

ISSN 2010-5460

MAKTAB VA HAYOT

Maxsus son № 1

ILMIY-METODIK JURNAL

MUNDARIJA

BOSH MUHARRIR

Liliya Gaynutdinova

TAHRIR HAY'ATI

Amanjol AYAPOV
Boris BLYAXER
Baxodir SOBIROV
Risboy JO'RAYEV
Sevara ZUPARXODJAYEVA
Lola MO'MINOVA
Vahobjon RAJAPOV
Nargiza RAXMONQULOVA
Sherzod SHERMATOV
Shavkat SHARIPOV

Mas'ul kotib

Sayyora Alimxodjayeva

Adabiy muharrir

Sayyora Alimxodjayeva

Kompyuterda terish va dizayn

Mirtohir Xoliqov

Muallifning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqolalarning uslubiy xatolarini to'g'rilash va qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tahririyatga yuborilgan maqolalar egasiga qaytarilmaydi va taqriz qilinmaydi.

Mualliflarning familiyasi, ismi, sharifi ularning pasportlari ma'lumotlariga muvofiq holda yoziladi.

Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

Фамилия и инициалы авторов пишутся согласно данным их паспорта.

Muassislar:

O'quvchilarni kasb-hunarga
yo'naltirish va psixologik-pedagogik
respublika tashxis markazi
«MAKTAB VA HAYOT» M.CH.J.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda

«MAKTAB VA HAYOT»dan olindi,
deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2001 yildan
chiqa boshlagan.

MANZIL:

100095, Toshkent sh.,
Olmazor t., Ziyo ko'chasi, 6A uy.
Tel: (0371) 246-21-02
E-mail: maktabvahayot@sarkor.uz

OBUNA INDEKSI - 1019

Sh.Q.Mardonov, O.M.Jabborova.

Boshlang'ich ta'limda – innovatsiyalar tizimi2

A.M.Shofqorov.

Alliteratsiya va uning uslubiy xususiyatlari3

R.A.Ikramov, R.B.Hojiyev.

Barkamol avlodni tarbiyalashda yosh pedagogic kadrlarning o'zmi va roli5

R.B.Hojiyev, R.R.Atajanova.

Ta'lim tizimini rivojlantirishda pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ahamiyati6

M.F.Qurbonova.

O'quvchilarning o'quv-bilish kompetensiyalarini
shakllantirishda kouching metodikasi8

M.N.Shermatov.

Innovatsion faoliyat – zamonaviy o'qituvchiga qo'yilgan jamiyat talabi10

B.N.To'raqulov.

Talabalar emotsional intellektini tadqiq etishning psixologik imkoniyatlari11

S.Haydarova.

Geografiyani o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvning tatbiq
etishning o'quvchi psixologiyasi bilan bog'liq jihatlari13

S.R.Abdalova, S.B.Qorayev, I.S.Joldasov.

Ta'lim oluvchilar aqliy rivojlanishini aniqlashda pedagogik testlarning roli15

D.T.Aralova.

Bolalar bilimni nazorat qilish xalqaro tadqiqoti yuzasidan topshiriqlar
tayyorlash texnologiyasi16

G.N.Sharipova.

Bolalarni boshlang'ich ta'limga tayyorlashni tashkil etish asoslari17

N.K.Razokova.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida matematikani o'qitishda
fanlararo bog'liqlik18

G.O.Ernazarova.

Uzlüksiz ta'lim jarayonida akmeologik yondashuvdan foydalanish21

SH.R.Mahkamova.

Imkoniyati cheklangan bolalar va har tomonlama yetuk avlodni
tarbiyalashda musiqaning o'zmi22

A.Y.O'tayev, N.E.Narziqulovna.

Behbudiyning siyosiy tarbiya to'g'risidagi qarashlari23

M.A.Asadullayeva.

Maktab yoshidagi bolalarda ovoz rejimi va gigiyenasi25

I.Q.Sayfullayeva.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematikani
o'rgatishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'zmi26

X.A.Kadirova.

Milliy ma'naviy-axloqiy tarbiya27

M.SH.Islamova.

O'quvchilarda kimyoviy bilimlar asosida kasbiy dunyoqarashni
shakllantirish usullari tizimi29

M.YU.Yakubova.

Xalq hunarmandchiligini o'rganishda o'quvchilarda kreativlikni
shakllantirish yo'llari30

N.N.Bozorov, M.F.Qurbonova.

Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyani shakllantirish tizimlari32

L.Bobaxodjayeva.

O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish – shaxsiy
kompetentlikni rivojlantirish mezonini sifatida33

H.N.Bozorov.

Zamonaviy kuzatish qurilmalarining astronomiya rivojlanishidagi ahamiyati35

S.A.Toshtemirova.

Ta'lim va tarbiyaning demokratik hamda insonparvarlik tamoyili36

SH.I. Botirova.

Проблемные аспекты, связанные с применением педагогических
технологий и интерактивных методов на уроках38

Э.С.Серегеева.

Анализ художественного пространства в современной русской литературе39

T.A.Yuldashева.

Фразеологизмы на занятиях кружка русского языка41

H.З.Шайхисламов.

Инновационные технологии в профессиональном образовании43



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA – INNOVATSIYALAR TIZIMI

Sh.Q.Mardonov, pedagogika fanlari doktori, professor

O.M.Jabborova, Toshkent viloyati, Chirchiq davlat pedagogika instituti, “Boshlang'ich ta'lim” kafedrasini mudiri

В статье речь идет об использовании инновационной системы в начальном образовании, а также об отражении инновационной системы в новой редакции закона “Об образовании” и методика применения их на практике.

Ключевые слова и понятия: инновации, инновационная система, начальное образование, государственные образовательные стандарты, государственные требования, процессы образования и воспитания.

This article reveals the organization of retraining and advanced training of public education workers in the Republic of Uzbekistan, the existing problems and the proposed ways to overcome them.

Key words and concepts: advanced training, retraining, frequency, independent learning, distance learning, continuing education, credit module.

O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabr kuni tasdiqlangan “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagilarning nutqida hozirgi zamon boshlang'ich ta'limda qo'llaniladigan zaruriy innovatsiyalar tizimini bayon qilib berildi [1;2]. Bu o'rinda ana shu innovatsiyalar tizimining asosiy jihatlari e'tiboringizni tortamiz. Eslatib o'tish joizki, biz innovatsion tizim deganda tajribadan o'tgan o'qitish vositalari va yangidan joriy etiladigan omillarni nazarda tutamiz.

O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risida”gi qonunida boshlang'ich ta'limga oid quyidagi innovatsiyalar tizimi o'z ifodasini topdi:

- boshlang'ich ta'limga qo'yiladigan Davlat ta'lim standartlari va ta'lim talablarini yangidan ishlab chiqish;
- boshlang'ich ta'limni umumiy o'rta ta'limning negizi sifatida tashkil etish;
- boshlang'ich ta'limda inklyuziv ta'lim turlarini rivojlantirish;
- boshlang'ich ta'limda sinf o'quvchilari sonini optimallashtirish borish;
- nodavlat boshlang'ich ta'lim tizimini qat'iy rivojlantirish;
- oliy ma'lumotli boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kamida 3 yil bo'lgan muddatda tayyorlash.

Bularning barchasi O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimi uchun innovatsion xarakterga ega bo'lib, ularni amaliyotga joriy etish ikki uslub asosida amalga oshiriladi:

- 1) boshlang'ich ta'lim jarayoniga milliy tajribaga tayanish;
- 2) boshlang'ich ta'limga oid xalqaro tajribalarni o'rganib borish.

Bu ikki asos Qonunda belgilangan innovatsiyalar tizimini amalga oshirish uchun tayanch hisoblanadi. Chunki, e'tibor berilsa, Qonunda boshlang'ich ta'limga oid mutlaqo yangicha yondashuvlar o'z aksini topgan. Jumladan, boshlang'ich ta'limga oid Davlat standartlari va Davlat talablari belgilangan. Bunda mazkur tushunchalarni farqlab olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Unga ko'ra, Davlat ta'lim standartlari – bu davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui, Davlat ta'lim talablari esa – bu ta'lim tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek, ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablardir. Shu jihatdan bugungi boshlang'ich ta'limning Davlat ta'lim talablari ishlab chiqilishi kerak. Bunda quyidagilar nazarda tutiladi:

- boshlang'ich ta'limning tuzilmasini aniq belgilash va uning umumta'lim tuzilmasidagi o'rnini aniqlashtirish;
- boshlang'ich ta'limning mazmunini konkret belgilab qo'yish va unda ta'limga qo'yiladigan mazmunlar bilan uyg'unlikni ta'minlash;
- boshlang'ich ta'limni amalga oshirish shart-sharoitlari talablarini belgilab qo'yish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kelgusida shakllantiriladigan kasbiy sifatleri ko'nikmasiga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish.

Diqqat qilinsa, bu o'rinda boshlang'ich ta'limning bilim, ko'nikma, qobiliyat va mahoratlarini shakllantirish vazifalari Davlat ta'lim talablari sifatida qo'yilmoqda. Boshlang'ich ta'limning mazmuniga qo'yiladigan talablar esa Davlat ta'lim standartlari zimmasiga yuklanmoqda.

Shu sababli Davlat ta'lim talabarlari asosida boshlang'ich ta'limni isloh qilish, uni takomillashtirish va amaliy samaradorligini oshirishning mutlaqo yangi shakllarini topish ehtiyoji mavjud.

Ikkinchi muhim yondashuv O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan so'zlagan nutqida bayon etilgan. Mazkur nutqda boshlang'ich ta'limga nisbatan qo'yilayotgan innovatsiyalar tizimi quyidagilardan iborat:

- kelgusi yilda boshlang'ich ta'limni raqamlashtirish ishlarini yakunlash, bunda quyidagilarga to'liq erishish;
- “Onlayn boshlang'ich ta'lim”ga o'tish;
- “raqamli va xavfsiz boshlang'ich ta'lim” tizimini tashkil etish;
- “boshlang'ich ta'limning elektron darsliklari”ni yaratish;
- “elektron kundalik” tizimini joriy etish.

Bu innovatsiyalar boshlang'ich ta'lim uchun birmuncha murakkab hisoblanadi. Ayni paytda, zamonaviy texnologik rivojlanish jarayoni va pandemiya kabi kutilmagan voqeyeliklar boshlang'ich ta'limning zahiradagi innovatsiyalar tizimini yaratib qo'yishni taqozo etmoqda. Shu jihatdan, “Onlayn boshlang'ich ta'lim” innovatsion tizimi nihoyatda murakkab bo'lib, uni ishlab chiqishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim olish, layoqatini rivojlantirish va axloqini shakllantirish masalalari hisobga olinishi kerak. Bunda ota-onalar, ularning o'rnini bosuvchi shaxslar va bolaning ishonchli shaxslari onlayn tarzda amalga oshiriladigan boshlang'ich ta'lim jarayonida faol ishtirok etadi. Shu sababli ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda boshlang'ich ta'lim ishtirokchilarining vakolatlari, huquqlari va majburiyatlarini belgilab qo'yish taqozo etilmoqda.

Boshlang'ich ta'limni raqamli texnologiyalar asosida amalga oshirishning hozircha maqbul texnologiyasi ishlab chiqilgan emas. Shu sababli bu borada kelgusida ilmiy-nazariy va amaliy-metodik tadqiqotlar ko'lamini yaratish taqozo etilmoqda. Biz bu o'rinda mavjud boshlang'ich ta'limni amalga oshirishga oid tajribalardan kelib chiqib, o'qitishning yangicha shakllari, uslublari va sharoitlarini yaratish mumkin, deb hisoblaymiz.

Bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich ta'limning uzviy qismi bo'lgan tarbiya jarayoniga ham innovatsiyalar tizimini joriy etish zarurat bo'lib turibdi. Bu borada 2020-2021 o'quv yilidan kiritilgan yangi “Tarbiya” fani asoslariga tayanish mumkin. Biroq, mazkur faning asoslari, darsliklari va metodik qo'llanmalari ishlab chiqilayotgan sharoitda quyidagilarni innovatsiya sifatida ta'kidlab o'tish mumkin:

- boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini amalga oshirish uchun oila bilan yangi tartibda ishlash (misol uchun, pandemiya kabi shart-sharoitlar jarayonida ota-onalarning o'quvchilar tarbiyasi uchun faolligi hamda majburiyati belgilab qo'yilishi kerak);
- boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining o'quvchilar oilasida bo'lishi uchun sharoit yaratish (bunda o'qituvchilarning vaqtini aniq belgilash, ularning bu faoliyatini rag'batlantirish va unga nisbatan oila a'zolarining faolligini tarkib topdirish muhimdir);
- boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida ularning layoqatini o'stirish, ularni yo'naltirish va axloqiy shakllantirish masalalariga asosiy e'tiborni qaratish.

Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini amalga oshirishning



metodikasini maqbul darajada o'zgartirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Prezidentimizning nutqida boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan fanlar bo'yicha quyidagi tanqidiy fikrlar bildirilib o'tildi:

- boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi murakkab;

- mazkur fanlarning nazariy bilimlari amaliyot bilan bog'lanmagan;
- o'quv dasturlarida uzviylik yo'q;
- darsliklarning mazmuni va sifati qoniqarsiz.

Bu fikrlar boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan aniq va tabiiy fanlarni o'qitish mazmuni, uslubiyoti va shakllarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida innovatsiyalar tizimini joriy etib borish tezkor va sifatli yondashishni taqozo etadi. Shu sababli Prezidentimiz tomonidan "Umumiy ta'limning milliy o'quv dasturi" ni ishlab

chiqish taklif etildi. Mazkur milliy o'quv dasturida boshlang'ich ta'limga innovatsiyalar tizimini joriy etishning mazmuni, talablari, vositalari va shakllari o'z ifodasini topishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib, bugungi kunda mazkur ikki muhim me'yoriy hujjatlarda boshlang'ich ta'limga oid muhim va maqbul innovatsiyalar tizimi taqdim etilgan. Ularni o'rganish va keyingi ilmiy-amaliy faoliyatda tatbiq etish dolzarb bo'lib turibdi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantali marosimdagi nutqi //Xalq so'zi// gazetasi. 2020 yil 1 oktyabr soni.

2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni // Xalq so'zi// gazetasi 2020 yil 24 sentyabr soni.

ALLITERATSIYA VA UNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

A.M.Shofqorov, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti dotsenti

Статья содержит фонетические повторы, их применение в поэзии Миртемира и конкретное стилистическое задание, выражающее семантико-стилистические особенности повторения аллитерации.

Ключевые слова и понятия: повторение, фонетическое повторение, аллитерация, ассонанс, геминация, стилистическое задание.

The article contains phonetic repetitions, their application in Mirtemir's poetry and a specific stylistic features of repetition of alliterations are represented.

Key words and concepts: repetition, phonetic repetition, alliteration, assonance, gemination, stylistic task.

Til ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida doimo qisqalik va osonlikka intiladi. Inson uchun qanday talaffuz qilish to'g'riligidan ko'ra, ko'proq qanday talaffuz qilish qulay va osonligi muhimroq. Tildagi fonetik takrorlar esa o'sha osonlikni va ravonlikni ta'minlaydi. Bu osonlikka erishish zo'rma-zo'rakilik, sun'iylik va notabiiylikdan xoli bo'lishi kerak ekanligini inson doimo anglab turadi. Demak, bu holatga ixtiyoriy ravishda emas, balki beixtyoriy ravishda erishiladi.

Biz ushbu maqolada Mirtemir she'riyatida qo'llangan alliteratsiyaning uslubiy xususiyatlari haqida fikr yuritamiz.

"O'rinli tovush takrori ritmni bezab, emotsional zaryad (quvvat)ni oshiradi, ifodalilikni kuchaytirib, she'riy nutq madaniyatini bir darajada yuqori ko'taradi, u biron mazmunli misrada kelib, uni ajratib ko'rsatishi ham lozim, ammo mazmunga nisbatan tovush takroriga zo'r berish mazmunning sezilmay qolishiga olib kelishi ham mumkin" [6, 83].

Fonetik takrorlar nutq tovushlaridan birortasining takrori yoki tovushlar ohangdoshligi asosida yuzaga keladi. "She'r kitobxonda estetik zavq uyg'otishi uchun u ma'no ta'sirchanligiga ega bo'lishi, ijodkorning ichki emotsiyasini ifodalay olishi kerak. She'ring emotsionalligi esa vazn, ritm, qofiya, poetik figuralar, badiiy san'atlar bilan birga poetik fonetikaga ham bog'liq bo'ladi" [2, 114]. She'riy asarlar o'ziga xos ohangga, jozibadorlikka, ekspressiv ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

Fonetik takrorlar xalq og'zaki ijodi va o'zbek mumtoz she'riyatida ham asosiy tasviriy vosita bo'lib xizmat qilgan. Bunga sabab folklor asarining, shuningdek, umumiy she'riy nutqning, jumladan, mumtoz she'riyatning og'zaki aytish, ijroga mo'ljallanganligidir. Mana shu xususiyat poetik fonetika birliklarining yuzaga chiqishiga asos bo'ladi. Bu holat she'riy nutqda tovushlarning mazmun va uslub talabiga ko'ra xilma-xil shakli, talaffuz o'zgarishiga uchrashida namoyon bo'ladi. Bu o'zgarish she'riy nutqning ta'sirchanligi, jozibas va lozim bo'lgan ohangini ta'minlaydi.

Badiiy adabiyotdagi har qanday shakliy izlanish va o'ziga xosliklar, hatto u fonetik birliklar darajasida bo'lsa-da, mazmunga bo'ysundirilishi, badiiy asarning mazmun-mohiyati va nutqning ifodaviyligini oshirishga xizmat qilishi kerak. Shu ma'noda nutq

tovushlarining badiiy nutqda takrorlanishi ham sof shakliy hodisa bo'lib, o'z o'rnida qo'llanganda asarning badiiy mukammalligini oshiradi, nutqning ravonligi uchun xizmat qiladi. Mana shunday takrorlar sirasiga *alliteratsiya*, *assonans*, *geminatsiya* kabi uslubiy vositalarni kiritishimiz mumkin. Bunday uslubiy vositalarning har birida nutq tovushlarining o'ziga xos takrori kuzatiladiki, bu ma'lum bir uslubiy vazifa bajaradi va she'riyatning badiiyatini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi.

"Alliteratsiya (lot. al – ga, littera – harf) – she'rda, jumlada, bandda va qisman nasriy asarlarda ham bir xil undosh tovushlarning takrorlanishi. Alliteratsiya fonetik-stilistik usul sifatida badiiy nutqning intonatsion ifodaviyligini va ohangdorligini kuchaytiradi" [2, 115].

Adabiyotshunos U.To'ychiev she'riyatda tovushning takror qo'llanishi haqida fikr bildirar ekan, shunday yozadi: "Tovush takrori poeziyaning, xususan bolalar adabiyoti va qo'shiq matnlarining muhim fazilatidir. U she'r musiqiylikni kuchaytiradi, biroq ritmni hosil etolmaydi, ammo bezaydi. Agar undosh tovushlar alliteratsiyani yuzaga keltirsa, unli tovushlar assonans nomli tovush takrorini tashkil qiladi" [7, 205].

Mirtemir she'riyatida alliteratsiya turli shaklda kelib, turlicha uslubiy vazifa bajargan va badiiylikni ta'minlagan.

1. She'ring biror misrasidagi so'zlarda ma'lum bir tovush takrori yuzaga keladi. Buni "Chollar" she'rida shunday tasvirlaydi:

*Sokinu savlatli, soyabon sada,
Sira yondosholmay garmsel zada;
Chollar o'tiribdi qurib chordana,
Davراسi arziydi desak shohona.* (4, 2-jild, 79).

2. She'ring ma'lum bir bandida biror tovushning to'liq ohangdoshligi kuzatiladi. Bunda Mirtemir she'riyatida, asosan, *j, s, sh, k, q* tovushlari takror qo'llanadi. "Seni, bolaligim", "Boqishi", "Salqin sahar, daryo bo'yi...", "Ko'l yoqalab", "Qaldirg'och", "Chaqmoq", "Kulgichi" she'rlarida shunday takrorlar mavjud:

*Suluvliging sehrdan soz,
Sehrdan soz, sen sarvinoz,
Yuz eslasam, baribir oz,*



Mehru vafo esingdami? [4, 3-jild, 205].

Xalq ohangida yozilgan ushbu “Salqin sahar, daryo bo‘yi...” she‘rida tovushlar takrori ohangdagi musiqiylikni, ifodaviy soddalikni ta‘minlagan. Shoir ma‘shuqaning go‘zal qiyofasini chizar ekan, birgina baytning o‘zida uning siyomosini *suluv, sehr, soz, sarvinoz* kabi sifatlovchilar vositasida obrazli ifodalagan. Bu so‘zlar keyingi baytdagi *mehru-vafo* so‘zlari bilan mantiqan bog‘langan. Bandning barcha misralarida *s* undoshi va unli tovushlar ohangdoshligi mavjud.

3. She‘rda ohangdosh so‘zlar yonma-yon qo‘llanishi natijasida ham tovush takrorlari yuzaga kelgan. Bunda shoir *charchoq* va *chanqoq, suv* va *suluv, chanqoq* va *chatnoq, qardoshlik* va *qondoshlik* kabi ohangdosh so‘zlardan foydalangan. Bu esa *tazmin-i muzdavaj* san‘atini ham yuzaga keltirgan.

Bu san‘atda ikki yoki undan ortiq ohangdosh so‘zlar yonma-yon keltiriladi. Natijada tovushlar ohangdoshligi yuzaga kelib, talaffuz, aloqadorlik kuchaytiriladi, musiqiy yaqinlik va bir tekislik yuzaga keladi.

Adibning “Shodiyona” she‘rida ohangdosh so‘zlarning yonma-yon qo‘llanishi natijasida yuzaga kelgan shunday takrorlarni kuzatishimiz mumkin:

Charchoq, chanqoq, baribir,

Quvnoq ko‘krak kerasan,

Azmkorsan, shashtingdan

Adir qolmas, cho‘l qolmas. [4, 2-jild, 178].

4. She‘rdagi ma‘lum bir band misralari bir xil tovush bilan boshlanadi.

Sokit, so‘lim kecha... Men soqchi edim,

Soyalarday yiroq qorovulxona.

Sokit, so‘lim kecha, to‘rt tomonim jim...

Saqlar edim elni mardona. [4, 1-jild, 251].

“Vabo” she‘ridan olingan ushbu bandda misralar *s* tovushi bilan boshlanib, tovushlar ohangdoshligini yuzaga keltirgan. Bu ohangdoshlik misralar tarkibidagi *s* tovushi mavjud so‘zlarning ham vertikal, ham gorizontall joylashishida yuz bergan.

Zero, “Vertikal alliteratsiya, asosan, she‘riy matnga xos bo‘lib, misralar boshidagi so‘zlarda, ya‘ni misralararo, gorizontall alliteratsiya esa misra yoki jumla ichida bo‘lishi mumkin”. [8, 30].

5. She‘rning ma‘lum bir band misralari yoki biror misraning so‘zlari bir xil tovush bilan tugaydi. Bu ba‘zan misra ichidagi ohangdoshlik bilan uyg‘unlashib ketadi. Shoir “Elu yurt maqtovi” she‘rida *m* tovushi takrori bilan bog‘liq quyidagi sodda, ammo ta‘sirchan mazmunli misralarni yaratgan:

Saratonim, sovurim, chillam,

Bog‘u rog‘im, tutzorim, pillam.

Qo‘rg‘oshinim, tagi mo‘l tillam,

Ipagimsan, qorako‘limsan. [4, 3-jild, 16-17].

She‘rdagi takror tovushlar ohangdoshligi she‘rning umumiy mazmuniga mos holda shakllangan. Shoir yurtining sifati va xususiyatlariga, boyligiga o‘quvchining diqqatini tortish, ularni sanab o‘tish va urg‘u berish maqsadida tovush takrorlariga murojaat qilgan. She‘rda yurtimiz boylıkları birma-bir tilga olingan. Lirik qahramon ular bilan faxrlanadi. Bu faxrlanish hissi bandlardagi takror birliklar, jumladan, takror tovushlar vositasida obrazli, badiiy tasvirlangan. Ayniqsa, yuqorida keltirilgan banddagi *m* tovushi bilan bog‘liq takrorlar she‘rga o‘zgacha ohang in‘om etgan. Keltirilgan bandlardagi *m* tovushi takrori quyidagi shaklda yuzaga kelgan:

Bandda 11 o‘rinda *m* tovushi qo‘llangan bo‘lsa-da, qandaydir zo‘rma-zo‘rakilik yoki soxtalik va siyqalikni sezmaymiz. She‘rda yurt, mamlakat madhi ifodalangan. Insonning borlig‘i ham, boyligi ham, butun boru yo‘g‘i yurt, ona-Vatan ekanligi poetik tasvirlarda ifodalangan. Bunda takror tovush ma‘noni

kuchaytirib, ta‘sirchanlikni oshirgan.

Misralarda takrorlangan *m* tovushi o‘zi kelgan so‘zlar oxirini yopgan, fikrning qat‘iyligini xulosalagandek tuyuladi. Buning ustiga *m* tovushining I shaxs egalik qo‘shimchasi tarkibida mavjudligi shoirning ona yurtga chinakam mehrini, bu mehrning qayta-qayta takrorlanishi shoirning sadoqati, iqrorini ta‘kidlashga xizmat qilgan.

Mirtemir o‘z she‘riyatida alliteratsiyadan unumli foydalanib, turli shakllarni yuzaga keltirgan va ularning har biriga uslubiy vazifa yuklay olgan. Shoir she‘rlarida, asosan, *s, q, m, sh, k, ch, j, b, z, g‘* kabi undosh tovushlar takror qo‘llanib, o‘ziga xos uslubiy vazifa bajarib kelgan. Ayniqsa, *s* va *q* undoshlari takrorlari ko‘plab uchraydi. *S* tovushi bilan bog‘liq takrorlarda *sevgi, so‘lim, soch, sunbul, sokin, sabo, salqin, sen, silagan, suluv, sahar* kabi so‘zlardan foydalangan bo‘lsa, *q* tovushi bilan bog‘liq takrorlarda, asosan, turli shakllardagi ot va fe‘l so‘z turkumlaridagi so‘zlarni qo‘llagan.

Umuman olganda, fonetik takrorlar badiiy asarning shakliy o‘ziga xosligi bo‘lib, asarning badiiyatini oshirish, ayniqsa, she‘riy tilda misralarning ohangdoshligini ta‘minlash, ta‘sirchanlik, soddalik va ravonlikni oshirishga xizmat qiladi. Mirtemir lirikasida fonetik-uslubiy usul sifatida fonetik takrorlarning turli ko‘rinishlari uchraydi. Tovushlarning takror qo‘llanishi talaffuzda yaqin va uyg‘unlikni yuzaga keltiradi, bu esa tasvirlanayotgan narsa-hodisalarga o‘quvchining diqqatini jalb qilib, misralarning badiiy-estetik ta‘sir kuchini oshirgan, ma‘lum tushunchalarni ta‘kidlab, ajratib ko‘rsatishga xizmat qilgan, fikrning mantiqiy hamda uslubiy yukini oshirgan, ma‘lum bir so‘z yoki tovushga, ular tashuvchi mazmunga urg‘u berilgan, ohangdoshlik va musiqiylikni ta‘minlagan.

Adabiyotlar

1. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati / Tuzuvchilar: H.Homidiy, Sh.Abdullayeva, S.Ibrohimova. – T.: O‘qituvchi, 1967. – B. 300.
2. Boboyev T., Boboyeva Z. Badiiy san‘atlar. – T.: TDPU, 2001. – B. 122.
3. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. –T.: Fan, 2007. – B. 123.
4. Mirtemir. Asarlar: 4 jildli. – T.: Adabiyot va san‘at, 1980–1983.
5. Ne‘matov H. O‘zbek tilining tarixiy fonetikasi. – T.: O‘qituvchi. 1992. – B. 136
6. Стеблева И.В. Происхождения и развитие тюркской аллитерационной системы в связи с историческим родством тюркских и монгольских языков // Советская тюркология. – М.: 1971. – № 6. – С. 83-89.
7. To‘ychiyev U. O‘zbek poeziyasida aruz sistemasi. –T.: Fan, 1985. – B. 376.
8. Yuldashyev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi: Filol. fanlari doktori ... diss. avtoref. – T., 2009. – B. 48.



BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA YOSH PEDAGOGIK KADRLARNING O‘RNI VA ROLI

R.A.Ikramov, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Tarix va tillar fakulteti dekani, y.f.n., dotsent
R.B.Hojiyev, mazkur institut “Ijtimoiy fanlar” kafedrasida o‘qituvchisi

В этой статье обсуждаются реформы в системе образования страны, включая воспитание гармонично развитого поколения, а также роль и место учителей, особенно молодых учителей, достижения и недостатки в этом процессе и пути их преодоления.

Ключевые слова и понятия: гармонично развитое поколение, образование, глобализация, молодые учителя, инновационный кластер педагогического образования, система «учитель-ученик».

This article illustrates reforms in the country's education system, including the upbringing of a harmoniously developed generation, as well as the role and place of teachers, especially young teachers, achievements and shortcomings in this process and ways to overcome them.

Keywords and concepts: harmoniously developed generation, education, globalization, young teachers, innovative cluster of pedagogical education, “teacher-student” system.

Bugungi kunda dunyo tamadduni qiyofasini belgilaydigan yetakchi xususiyatlardan biri, shak-shubhasiz, yer yuzi bo‘ylab tobora keng yoyilib borayotgan globallashuv jarayonidir. Ushbu jarayonda eng muhim masala esa bu shubhasiz yoshlar tarbiyasidir. Jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik jihatdan qanchalik taraqqiy etmasin, har bir tarixiy davr inson ma’naviy-ma’rifiy kamoloti, yoshlar tarbiyasi borasida yangidan-yangi, murakkab masalalarni ko‘ndalang qo‘yaveradi. Globallashuv jarayoni ta’sirida mazkur masala yanada keskin tus olmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta’biri bilan aytganda: “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir” [1].

Jamiyatda qaror topayotgan yangicha munosabatlar ta’lim-tarbiya tizimida ham demokratik o‘zgarishlar qilishga olib keldi. Xususan, yurtimiz ishtirokchilik erishgan dastlabki kunlardan o‘tgan yoshlarning davr yukini o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan barkamol inson qilib voyaga yetkazish davlat ahamiyatiga ega eng muhim masalalardan biri sifatida e’tirof etildi [2].

Darhaqiqat, har bir inson, birinchi navbatda o‘zini anglay olishi lozim, shundagina u o‘z maqsadini to‘g‘ri shakllantirib, unga erishish yo‘llarini belgilab, hayotning mazmunini bila boshlaydi. Barkamol avlod aynan shu jihatlari bilan ham alohida mazmun kasb etadi. Agar-da, dunyoda inson qalbi va shuuri uchun shiddatli kurashning turli shakli va qamrovlarda avj olib borayotganini inobatga olsak, barkamol avlodni tarbiyalashimiz ertangi kunimizning poydevorini qurish, taraqqiyotimizning ta’minlovchi vorislarini yetishtirish ekanligini tushunish qiyin emas. Shuning uchun yoshlarning ongi va dunyoqarashini milliy manfaatlarimizni himoya etish tamoyillariga amal qilingan holda shallantirish milliy taraqqiyotimizni himoya qilish yo‘lida olib borilayotgan ishlarning mantiqiy davomiyligini ta’minlaydi [3].

Barkamol avlod tarbiyasida o‘qituvchilarning rolini hech narsa bilan taqqoslab bo‘lmaydi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda o‘qituvchi va murabbiylarning ijtimoiy mavqei va nufuzi pasayib ketgan edi. Shu bois mamlakatimizda o‘tgan davrda ta’lim-tarbiya sohasini yanada rivojlantirish, o‘qituvchi nufuzini oshirishga qaratilgan bir qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Ta’lim xodimlarining oylik maoshi oshirildi, ularga turli imtiyozlar berildi. Xususan, davlatimiz rahbarining 2018 yil 14 avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bu borada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur qarorning ijrosini ta’minlash maqsadida 5 ta yo‘nalish hamda 34 banddan iborat bo‘lgan kompleks chora-tadbirlar dasturi qabul qilindi. Unga ko‘ra dasturda yuksak ma’naviyatli, qat’iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega bo‘lgan fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash, yoshlarni yot g‘oyalar ta’sirida himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlariga sodiqlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida

tarbiyalash, pedagog xodimlarning qadr-qimmatini va nufuzini oshirish, ularning moddiy-ma’naviy va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish, o‘quvchi yoshlarni ijtimoiy muhofaza qilish, ijtimoiy ehtiyojmand oilalar farzandlarini moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash masalalari ustuvor vazifalar sifatida belgilab qo‘yildi [4].

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti tomonidan taqdim etilayotgan “Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri” modeli ta’lim tizimidagi yuqorida qayd qilingan kamchiliklarni bartaraf qilish imkoniyatini yaratuvchi yangi innovatsion loyiha sifatida baholanmoqda. Bu loyiha institutning strategik tadqiqot yo‘nalishi sifatida belgilangan bo‘lib, ushbu muammoni ilmiy nuqtai nazardan o‘rganish maqsadida hozirda o‘ttizdan ortiq professor-o‘qituvchilar ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishmoqda.

“Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri” modelining amaliyotga tatbiq qilinishi natijasida uzluksiz ta’lim tizimini tashkil qiluvchi ta’lim turlari o‘tasidagi tarqoqlikning bartaraf qilinishi, ularni mushtarak maqsad atrofida birlashtirish, uzviylik va uzluksizlikni qaror toptirish, o‘zaro raqobat va nazorat muhitini shakllantirish, pedagogik sohada samarali vorislikni ta’minlovchi tizim yaratish masalalari nazariy asoslangan va samarasi kafolatlangan yechimga ega bo‘ladi [5].

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutida tashkil etilgan pedagogik ta’limning innovatsion klasteri doirasida institutda tahsil olayotgan talabalarni 2-bosqichdan boshlab umumta’lim maktablarida amaliyot o‘tashlari yo‘lga qo‘yilgan. Mazkur tajriba natijasida umumta’lim maktablari tomonidan yosh pedagoglarga bo‘lgan talabning oshganini ko‘rishimiz mumkin. Bunga sabab qilib yosh pedagoglarning o‘z ustida tinimsiz ishlashlari, yangilikka bo‘lgan qiziqishlari va fikrlashining o‘quvchilar bilan yaqinligida kabi xususiyatlar muhim rol o‘ynaydi. Lekin pedagogik tajribaning yetishmasligi ularga malakali ustozlarning uslubiy yordami zarur ekanligini ko‘rsatib turibdi. Shu maqsadda institutda “Ustoz-shogird” tizimi muntazam yo‘lga qo‘yilgan. Mazkur tizim natijasi o‘laroq yosh pedagogik kadrlarning umumta’lim maktablarida amaliyot o‘tashlari va darsdan tashqari vaqtlarda ish faoliyatini olib borishlarida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda bir nechta xulosalarni ishlab chiqdik.

Birinchi, ta’lim-tarbiya tizimida o‘qitishning yangi, izchil va samarali uslublari joriy etilishi dardor. Sirasini aytganda, maktab va litseylar uchun yangi bino qurish, uni zamonaviy asbob-anjomlar bilan jihozlash mumkin, ammo o‘qitishda sifat o‘zgarishlariga erishmasdan, yuksak malakali, kasbini jon-u dili bilan sevadigan fidoyi pedagoglarni tayyorlamasdan, ko‘zlangan maqsadlarga erishish qiyin. Bizningcha, pedagog kadrlar tayyorlash tizimining zamonaviy talablar asosida takomillashtirilishi ana shu maqsadga yo‘naltirilishi lozim. Bu borada pedagogik ta’limning innovatsion klasteri usulidan foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ikkinchi, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari



surilayotgan “O‘z bolangni – o‘zing asra” shiorini dasturilamal qilgan holda yoshlar ta‘lim-tarbiyasi borasida faqat o‘quv yurtininggina emas, ota-ona, mahalla-ko‘y va keng jamoatchilikning mas‘uliyati ham oshirilishi shart.

Uchinchidan, biz axborot asri, mafkuraviy to‘qnashuvlar kuchaygan, ma‘lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlariga xizmat qiladigan, olis-yaqin manbalardan tarqaladigan, turli ma‘no-mazmundagi mafkuraviy kuchlarning ta‘siri doimiy ravishda sezilib turgan davrda yashayotgan ekanmiz, avvalo, yoshlar ongida mafkuraviy bo‘shliq paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun ularda tashqi g‘oyaviy ta‘sir va xurujlardan himoya qiladigan mustahkam immunitet shakllantirilishi lozim. Buning uchun esa yoshlarimiz erkin va mustaqil fikr yuritadigan, iymon-e‘tiqodli, aql-zakovatli, irodasi mutahkam, bilimli va dono bo‘lishi, o‘z yurtining tarixi, milliy qadriyatleri va buyuk ajdodlari qoldirgan bebaho ilmiy va ma‘naviy merosni ongi va qalbiga jo etmoq‘i dardkor. Bu borada yosh pedagoglarning o‘rni va rolini yanada oshirish va ularga malakali o‘qituvchilar tomonidan metodik qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish lozim deb hisoblaymiz. Shuningdek, boshqa millat-u elatlar qadriyatlarini o‘rganish, o‘zga xalqlar ta‘lim-tarbiya tizimida yuz berayotgan o‘zgarishlarni tahlil etish ham yurtimizda oila institutining iqtisodiy, ijtimoiy va ma‘naviy asoslarini yanada mustahkamlash, yoshlarimizni Vatanimizning rivojlangan mamlakatlari qatoridan munosib o‘rin

egallashiga fidokorona xizmat qiladigan etib tarbiyalashga zamin yaratgan bo‘lar edi.

Adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –T.:“O‘zbekiston”, 2017, 27-bet

2. Икрамов П., Хожиев П. Воспитание гармонично развитого поколения является приоритетом государственной молодежной политики // Вестник науки и образования №14(92). Часть 1. 2020. С. 88.

3. Hojiyev R. B., Xolmo‘minov G.B., Sharipov M.L. Raising a Harmoniously Developed Generation is a Priority of Democratic Reforms in Uzbekistan // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2020. № 8 (5). P. 1-3

4. Khodjamkulov, U., Botirova, Sh., Shofkorov, A., & Abdirimova, I. (2020). Bases of Organizing Cooperation between Educational Institutions through Clusters (on the Example of the Education System of Uzbekistan). Journal of Critical Reviews, 7(12), 243-247. <https://dx.doi.org/10.31838/jcr.07.12.47>

5. Nasirov O, Usmanov F., Begaliyev J. Order of Creation of Joint-Stock Companies in Turkestan In The Late XIX - Early XX Centuries and Participation of Foreign Capital in it // International Journal of Psychological Rehabilitation, Vol.24, Issue 07, 2020. P. 8034-8042.

TA‘LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA PEDOGAGIK TA‘LIM INNOVATSION KLASTERINING AHAMIYATI

R.B. Hojiyev, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasida o‘qituvchisi
R.R. Atajanova, mazkur institut, Tasviriy san‘at kafedrasida o‘qituvchisi

В статье рассматриваются понятие кластера, радикальные реформы в системе образования страны, роль инновационных кластеров педагогического образования в развитии высшего и общего среднего образования, саморазвитие высших учебных заведений. Важность инновационного кластера педагогического образования в переходе на самофинансирование.

Ключевые слова и понятия: кластер, кластер педагогического образования, инновации, научная педагогика, интеграция, тенденции, прогнозирование.

The article discusses the concept of a cluster, radical reforms in the country’s education system, the role of innovative clusters of teacher education in the development of higher and general secondary education, self-development of higher educational institutions. The importance of the innovative cluster of teacher education in the transition to self-financing.

Keywords and concepts: cluster, cluster of teacher education, innovation, scientific pedagogy, integration, trends, forecasting.

Ma‘lumki, Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.

Sh.Mirziyoyev.

Ta‘lim jarayoni bu davlatning ham iqtisodiy, ham siyosiy hayotiga bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy tushunchadir. Yurtimizda iqtisodiy, siyosiy sohalar bilan bir qatorda ijtimoiy sohaga ham katta e‘tibor berilmoqda. Mustaqillik yillarida ijtimoiy sohaga ajratiladigan xarajatlar miqdori 5 barobarga oshdi. Davlat byudjetining 30 foizdan ortiq qismi ta‘lim tizimini rivojlantirishga yo‘naltirilmoqda. 2017 yil 7-fevralda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmonida ta‘lim tizimini rivojlantirishning lozimligi belgilab berildi. Mazkur Farmonga muvofiq mamlakatimizda Maktabgacha ta‘lim vazirligi tashkil etildi. Umumiy o‘rta ta‘lim 11 yillik tizimga o‘tkazildi. Oliy ta‘lim tizimida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Albatta, mazkur islohotlar ta‘lim tizimining uchala bo‘g‘inida izchillikni ta‘minlash, yoshlarimizning mukammal bilim olishini ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

Ta‘lim tizimini isloh qilishda pedagogik ta‘limning innovatsion klasteri muhim o‘rin tutadi. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev quyidagi fikrlarni bildirdi: “Odamlarning dunyoqarashi, mehnatga munosabati o‘zgarimoqda. Dunyoqarashni

nima o‘zgartiradi? Ilm, daromad, manfaat” [1].

Haqiqatan ham, bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida ishlab chiqarish sohasida kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni inobatga olgan holda kadrlar tayyorlash har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Pedagogik ta‘limning innovatsion klasteri ham aynan mana shu jihatlarni inobatga olgan holda kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish lozimligini ko‘rsatadi.

Xo‘sh, pedagogik ta‘limning innovatsion klasteri nima o‘zi?

Pedagogik ta‘limning innovatsion klasteriga ta‘rif berishdan oldin, klaster tushunchasining o‘ziga to‘xtalib o‘tish lozim.

«Klaster» atamasi inglizcha so‘z bo‘lib, o‘zbekcha tarjimasida «bog‘lam», «guruh», «to‘planish» ma‘nolarini beradi. Keng ma‘noda klaster – jug‘rofik jihatdan yaqin bo‘lgan korxonalar, tashkilotlar, xizmat ko‘rsatuvchi sohalar, tadqiqot muassasalari, oliy o‘quv yurtlarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va subyektlar raqobatbardoshligini ta‘minlash maqsadida konsentriyalashuvi jarayoni [2].

Xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tahlillarida «klaster» tushunchasiga quyidagi ta‘riflar berilgan:

- klaster – bitta sohaga birlashgan va bir-biri bilan uzviy



aloqada bo'lgan korxonalar guruhi;

- klaster – bitta geografik hududda joylashgan va bitta tarmoqni tashkil qiladigan korxonalar guruhi;

- klaster – maxsus sohalar bo'yicha bitta geografik hududda faoliyat yuritayotgan, bir-biri bilan bog'liq bo'lgan va bir-birini to'ldiruvchi kompaniyalar, institutlar guruhi;

- klaster – gorizontal va vertikal ravishda funksional bog'liq bo'lgan korxonalar guruhi;

- klaster – jamoaviy, xususiy va yarim jamoaviy ko'rinishda bir-biri bilan bog'liq va o'zaro bir-birini to'ldiruvchi korxonalar, tadqiqot va rivojlanish institutlari guruhi;

- klaster – tijorat va notijorat tashkilotlari guruhi bo'lib, u guruhda faoliyat yuritayotgan har bir korxonaning raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi;

- klaster – hududiy konsentratsiyalashuviga asoslangan va texnologik zanjirga bog'langan tovar va xom ashyo yetkazib beruvchilar, asosiy ishlab chiqaruvchilarni birlashtirgan industirlashgan majmua [3].

Klaster doirasida bir necha subyektlarni o'zaro integratsiyalash jarayoni murakkab, ko'p tarmoqli ilmiy-amaliy hodisadir. O'zaro bog'liq bir nechta faoliyat turlarini umumiy maqsad atrofida birlashtirish aniq hisob-kitob va ilmiy yechimlarni, loyihalar natijasini kafolatlaydi.

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, ta'lim klasteri ilmiy pedagogikamizda innovatsiya bo'lib, o'zida nafaqat ta'lim turlarini, balki fan, ta'lim, ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyalashuv jarayonlarini, shuningdek, ta'limni boshqarish, ta'lim sohalari va shakllari bilan bog'liq sohalarni ham jamlaydi.

Pedagogik ta'lim klasteri tushunchasiga esa: "Muayyan geografik hududning raqobatbardosh pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida bir-biri bilan uzviy aloqadagi teng huquqli alohida subyektlarning, texnologiyalarning va inson resuslarining integratsiyalashuvini kuchaytiruvchi mexanizm"[4], - deb ta'rif berish mumkin.

Zamonaviy klasterlarni muvaffaqiyatli shakllantirishning shartlaridan biri fan bilan aloqadorligidir. Chunki, sohadagi yangi tendensiyalarni o'z vaqtida tushunish, unga moslashish, innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish, samaradorligini prognozlash, xorijiy tajribalarni o'zlashtirish bilan bog'liq klasterlarni samarali ishlashini ta'minlovchi yo'nalishlar ilmiy faoliyatsiz bo'lishi mumkin emas.

Bugungi kunda sohalarning rivoji va samaradorligini innovatsiyalarni tasavvur qilish qiyin. Shuningdek, ta'lim, xususan, oliy ta'lim tizimida amalga oshirilishi lozim bo'lgan innovatsiyalar sifatida quyidagilarni aytib o'tish mumkin:

- oliy ta'limning maqsadlarini shaxsni kasbiy rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim olish, uni ijtimoiy tartibga asoslangan ilmiy texnik va innovatsion faoliyatga yo'naltirish;

- o'quv jarayonini tartibga soluvchi va amalga oshiruvchi me'yorlarni har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti va iqtisodiyotning muayyan tarmog'idagi vaziyatdan kelib chiqqan holda o'zi ishlab chiqishi hamda amalga oshirishi bilan bog'liq yangi tizimni ishlab chiqish;

- tegishli fanlarni o'rganish jarayonida olingan bilimlarning integratsiyalashuvi va bir qator fanlarni muammoli-modulli o'rganishning dastlabki shartlarini yaratish;

- innovatsion va eksperimental ishlarni faol amalga oshirish;

- jamiyatning zamonaviy ijtimoiy-madaniy rivojlanish darajasiga mos ravishda ta'lim jarayoni zarur moddiy-texnika vositalari bilan ta'minlash;

- ta'lim turlari o'rtasida manfaatli aloqadorlikning yangi ko'rinishlarini ishlab chiqish;

- jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning o'zgaruvchanligini inobatga olgan holda bir paytning o'zida bir

necha turdosh mutaxassisliklarga o'qitish;

- ta'lim muassasalariga o'z-o'zini ta'minlash va boshqarish vakolatini berish jarayonlarini bosqichma-bosqich amalga oshirish va hokazo.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalari o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tayotgan, zavod, firma, korxonalar va tashkilotlar bozor iqtisodiyoti sharoitida o'zlari uchun zarur bo'lgan kadrlarni yetishtirish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada ishlab chiqarishning innovatsion klasteri tizimidan foydalanish ish beruvchilar va kadrlarni tayyorlovchi tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishni, ta'lim tizimida bozor talablariga mos tarzda zamonaviy va yetuk kadrlarni tayyorlanishini, ayniqsa, malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojning ta'minlanishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida mamlakatimiz taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar

1. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev asarlaridan olingan fikrlar. –T.: "Yoshlar", 63-bet.

2. U.Xo'jamqulov "Maktab laboratoriyasi" uslubiy qo'llanma. Chirchiq-2019, 36-bet.

3. G'.Muhamedov, U.Xo'jamqulov "Pedagogik ta'lim klasteri: ta'rif, tavsif, tasnif" ilmiy risola. Chirchiq-2019, 28-bet.

4. Икрамов Р., Хожиев Р. Воспитание гармонично развитого поколения является приоритетом государственной молодежной политики // Вестник науки и образования №14(92). Часть 1. 2020. С. 88.

5. Hojiyev R. B., Xolmo'minov G.B., Sharipov M.L. Raising a Harmoniously Developed Generation is a Priority of Democratic Reforms in Uzbekistan // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2020. № 8 (5). P. 1-3.

6. Koshanova N. Kuchkarova Z. Problems of Ensuring Professional Membership in the Continuous Education System (Based On Education Cluster) // Academia An International Multidisciplinary Research Journal. Vol. 10, Issue 6, June 2020. P. 1519-1525.

7. Koshanova N. Teacher Actions in Professional Direction of Secondary School Children (according to the educational cluster) // European Science Review № 3–4, 2020. P. 24-26.

8. Nasirov O, Usmanov F., Begaliyev J. Order of Creation of Joint-Stock Companies in Turkestan In The Late XIX - Early XX Centuries and Participation of Foreign Capital in it // International Journal of Psychological Rehabilitation, Vol.24, Issue 07, 2020. P. 8034-8042



O'QUVCHILARNING O'QUV-BILISH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA KOUCHING METODIKASI

M.F.Qurbonova, Toshkent viloyati Chirchiq pedagogika instituti o'qituvchisi

В данной статье речь идёт о методике коучинга в формировании учебно-познавательных компетенции учащихся, принципах данной методики, пути их проведения.

Ключевые слова и понятия: образование, воспитание, знания, умения, навыки, педагогическая технология, компетенция, коучинг, методика, конструктивный, идея, ресурс, принцип, цель, техника, иерархический, модель, мотивация, ответственность, зона, планирование, стратегия.

This article deals with the coaching methodology in the formation of educational and cognitive competence of students, the principles of this methodology, the way they are carried out.

Key words and concepts: education, upbringing, knowledge, abilities, skills, pedagogical technology, competence, coaching, methodology, constructive, idea, resource, principle, goal, technique, hierarchical, model, motivation, responsibility, zone, planning, strategy.

Biz tadqiqot davomida metodikamizda hali ishlab chiqilmagan bir qancha metodlarni, jumladan, "Kouching" metodi ustida fikr yuritdik. Bu metod yordamida bilim berilganda o'quvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga tez va oson erishadi, olingan bilimlari xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Davlatimiz tomonidan o'qituvchilarning darslarga ijodiy yondashishini ta'minlash, ular faoliyatiga ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish hamda o'quvchilarning dastlabki bilim egallash poydevori mustahkam bo'lishi, barcha fanlarni o'zlashtirishga qiziqishini oshirish maqsadida zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda. Ana shulardan biri ta'lim tizimiga endigina kirib kelayotgan kouching metodikasidir.

Kouching – inglizchadan tarjima qilinganda "Mashq qildirmoq" so'zini anglatadi. Ta'limda esa, o'qituvchi bilan o'quvchining samarali faoliyatiga imkoniyat yaratuvchi uzluksiz jarayonni nazarda tutadi. Kouching - bu muhim o'quv maqsadiga erishish uchun o'quvchiga individual maslahat berish, uning ichki potensialini ochish, zarur qobiliyat va ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, natija olish uchun ilg'or strategiyalarni o'zlashtirishdir. Kouching maqsadi – nimagadir o'qitish emas, balki o'quvchining zarur bilim va tajribani egallashi uchun o'z-o'zini o'qitishga sharoit yaratishdir. Bu metodika kasbiy va shaxsiy o'sishi uchun o'quvchilarning o'z oldiga qo'ygan vazifalar va o'zgarishlarga ehtiyojlarini anglash, imkoniyatlarini kengaytirish uchun mo'ljallangan. U ta'limda, shuningdek, biznesda, shaxslararo munosabatda, oilada, jismoniy sog'lom bo'lish kabi hayotning turli sohalarida rejalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan [1].

Kouchingni qo'llash doirasini xarakterlaydigan bo'lsak u quyidagilarga yordam beradi: maqsadni va unga erishishning optimal yo'llarini aniqlash; o'quvchining mustaqilligi va javobgarligini oshirish; o'z faoliyatidan qoniqish olish; samarali hamkorlikning yangi yo'llarini topish; qiyin holatlarda muhim yechimni tez topish; individual maqsadlarni ta'lim muassasasi maqsadlari bilan moslashtirish; o'z hayot tarzini boyitish; yangi imkoniyatlarni ochish; hayotni yangi produktiv shaxsiy munosabatlar bilan boyitish va boshqalar [2].

Qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun kouchingda – ilmiy asoslangan metodlar, shaxsiy o'sish texnikalari va amaliy tajribadan foydalaniladi.

Kouching - bu yordam berish vositasi, boshqa kishiga uning shaxsiy yechimlarini izlashga yordam berishdir. Kouching – hayotning turli sohalarida maqsadga erishishga yo'naltirilgan jarayondir. Kouch – termini kouchingni o'tkazuvchi mutaxassis (o'qituvchi)ni bildiradi. Kouching – bu muammolar zonasidan samarali yechish zonasiga ko'chib yuruvchi texnologiyadir. Bu tizim, o'quvchining ko'p hollarda o'z ichki potensialini ochib berishga va tartib o'rnatishga imkon beruvchi, yangi yondashuvlar va imkoniyatlarni sezishga, ko'rishga imkon beradi. Kouchingdan foydalanish bilan o'quvchilar o'z maqsadlariga juda tez, eng samarali yo'l va qoniqish olish bilan erishadi.

Kouchingning afzalliklari shundaki, u o'quv faoliyati samaradorligini yaxshilaydi, o'quvchilarni har tomonlama rivojlantiradi hamda ularni eng yaxshi yo'llar va metodlar bilan o'qitadi. Kouching tez o'qitishni nazarda tutadi, bu jarayon o'z navbatida: quvonch va qoniqish olib keladi; jamoada o'zaro munosabat yaxshilanadi; hayot sifati, o'qishda esa muhit yaxshilanadi; o'qituvchida ko'p bo'sh vaqt mavjud bo'ladi; ko'plab konstruktiv g'oyalalar paydo bo'ladi; inson resurslari va mahoratidan yaxshi foydalaniladi; o'quvchilarning oldin aniqlanmagan iqtidorini ochadi va boshqalar.

Kouchingning asosiy prinsiplari mavjud. Kouching yo'nalishlariga ta'limni maqsadli boshqarish, rivojlantirish maqsadlarini qo'yish texnikasi, tashkil etishda maqsadlar ierarxiyasi, bilim berishning maqsadli modeli, maqsadlarni qo'yish orqali motivatsiya, o'quvchilarning javobgarlik zonasini aniqlash, rejalashtirish strategiyasi, rejalarni amalga oshirilmasligini ayrim sabablari, har bir strategiyani afzalliklari va cheklanganligi, ta'lim muassasasining strategik maqsadlarni aniqlash (konkret, erishiladigan, real, dolzarb), taktik rejalashtirish, maqsadlarni amalga oshirish uchun javobgarlik sohalarini aniqlash, o'qituvchi tomonidan masalalarning qo'yilishi, yo'nalishlar bo'yicha taktik rejalarni ishlab chiqish, rejalarni bajarilishi bo'yicha monitoring tizimi, maqsadlarni korrekcirovka qilish, vaqtni boshqarish, vaqtni yo'qotish sabablarini aniqlash, ish muhitini samarali tashkil etish (ish stoli, arxivlar, kompyuter) kiradi [3].

Kouchingda motivatsiya: oraliq natijalarni nazorat qilish va baholash, natijalarni maqsadlar bilan taqqoslash, o'quvchilar harakatini baholash, ular bilan teskari aloqa, ishni tahlil qilish va ishni yakunlash.

Tashkiliy struktura: faoliyatni loyihalash va tahlil qilish jarayoni, javobgarlikni taqsimlash prinsiplari, ta'lim muassasasining tashkiliy strukturasini, funksional tahlil – u nima beradi, o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyatini reglamentga solish metodlari, ularning malaka elementlari, tahlil qilish metodlari, faoliyatni reglamentga solish va loyihalash metodlari (tartib, instruksiya, metodik tavsiyanoma).

Javobgarlik: u orqali o'quvchilarni rivojlantirish, vazifalarni qo'yish va qabul qilish texnikasi, vazifalarni aniqlash va ular bajarilishi ustidan nazorat qilish, ularni yechish uchun optimal yo'lni tanlash hamda taqsimlash bo'yicha yechim qabul qilish, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi, ularning kompetentlik darajasidan kelib chiqib vazifalarni savodli qo'yish, o'quvchi intizomi, ular faoliyatini nazorat qilish va baholash, o'quvchi bilan teskari aloqa, kommunikativ kompetentlik, samarali muvotiqning malakalar tarkibi, ovozni mashq qildirish, faol va diqqat bilan eshita olish.

Guruhni shakllantirish: guruhda ishlashning afzalliklari va kamchiliklari, guruhni tuzish va boshqarish, rol va vazifalarni taqsimlash texnologiyasi, o'zaro ishonch, tushunish va hamkorlikni o'rnatish qoidalari, atrofda qilargalarga ta'sir o'tkazish metodlari va metodlari, ishonch muhitini yaratish uchun noverbal tartibdan foydalanish, ta'sirga javob reaksiyasi, g'oyalarni yaratishning samarali texnologiyasi, motivatsiya tizimlarini shakllantirish texnologiyasi, o'quvchilarni motivatsiya qilish prinsiplari, ularni motivatsiyani shakllantirishda o'qituvchining vazifalari, ehtiyoj, motivatsiya va o'quvchilar intizomi o'rtasidagi o'zaro munosabat, boshqarishning strategik, taktik va operativ darajalarida motivatsiyani shakllantirish, motivni shakllantirish texnologiyasi.

Individual kouchingni o'tkazish

1. Ish qoidasini kelishib olish: o'quvchi yordam berishni iltimos qilib so'raydi; o'qituvchi o'yin qoidasini tushuntiradi, kutilayotgan natijani shakllantirishga yordam beradi.

2. Aniq vazifalarni aniqlash: o'qituvchi o'quvchi bilan aniq vazifalarni detallashtiradi.

3. Hozirgi holatni o'rganish (muammolar): o'qituvchi hozirgi holatni, unga o'quvchining munosabatini tushunishga, yordam berishga savollar berish va faol eshitish bilan intiladi; ular birgalikda holatni, unga o'z munosabatini bildiradi.

4. Natijaga erishish yo'lida ichki va tashqi to'siqlarni aniqlash: o'qituvchi o'quvchiga masqadga erishishda nima xalaqit berayotganini ochib



beradi hamda to'siqlarni anglash va o'rganishga yordam beradi; o'quvchi o'zining ichki va tashqi to'siqlarini o'rganadi.

5. To'siqlarni bartaraf etish uchun imkoniyatlarni ishlab chiqish va tahlil qilish: o'qituvchi o'quvchiga cheklashlarni bartaraf etish va yechishni izlash uchun ikkilantiruvchi savollar beradi hamda boshqa metodlardan foydalanadi; o'quvchi to'siqlarni bartaraf etish uchun imkoniyatlarni o'rganadi.

6. Reja tuzish va harakatning aniq bir variantini tanlash: o'qituvchi o'quvchiga imkoniyatlarni tahlil qilishga yordam beradi; o'quvchi imkoniyatlarni tahlil qiladi, aniq variantni tanlaydi va harakat rejasini tuzadi.

7. O'qituvchi keyingi uchrashuvda aniq nima qilish kerakligi to'g'risida o'quvchi bilan kelishib oladi. Keyingi uchrashuv obzordan boshlanadi: nima qilindi, nimaga erishildi, yanada yaxshiroq nima qilish mumkin. Beriladigan savollarning mazmuni va tartibi o'qituvchiga dialogni faol boshqarishga imkon beradi. Maqsadlarni qo'yish bosqichida quyidagi savollardan foydalanish mumkin: Nimaga erishishni xohlaysiz? Siz istagan natijangizni olganingizni qanday bilasiz? Bu natija sizga nima berishi mumkin? Agar ushbu savollardan birinchisi shaxsiy afzalliklarni anglashga yordam bersa, unda ikkinchisi natijani baholash vositasini izlashga yo'naltiradi, uchinchisi esa unga erishishning yo'llari va natijani belgilashga undaydi.

Reallikni anglash bosqichini muvaffaqiyatli o'tishini quyidagi tipdagi savollar yordamida tashkil etish mumkin: Hozir nima ro'y beradi? Hozirgi vaqtda voqeaning keyingi rivojlanishi nimaga bog'liq? Aniq nimaga, qanday va qaysi darajada shaxsan siz ta'sir eta olasiz? Beriladigan savollarning mazmuni reallikni anglashga, javobgarlik hissinin shakllantirishga imkon berishga o'quvchini undashi lozim.

Imkoniyatlar va to'siqlarni aniqlash bosqichida quyidagi savollarni berish maqsadga muvofiq: Siz nima qila olasiz, qanday to'siqlar bo'lishi mumkin? Istalganlarni olish uchun qanday sharoitlar ideal bo'lishi mumkin, qaysilari noma'qul? Muhim ahamiyatli variantlarni amalga oshirish kimga bog'liq? Ularni hayotga tatbiq etish uchun sizning javobgarligingiz qanday? Shu narsa muhimki, berilgan savollarga javoblar o'quvchiga u ega bo'lgan tajribalarga samarali yordam bersin.

Berilgan maqsadlarni amalga oshirish metodlariga oid savollarga o'tamiz. Bu maqsadlarni, reallikni hamda mavjud imkoniyatlarni aniqlashga harakat rejasini ishlab chiqish kabilarga yordam beradi. Bunda quyidagi savollar o'rinli. Demak, konkret nima qilish kerak bo'ladi? Ko'zlanganlarni amalga oshirish uchun: nima, kimga, qachon va qanday ketma-ketlikda qilish kerak? Sizing maqsadingizga erishish uchun so'zsiz nima qilish kerak, nima ma'qul, nimasiz bunga erishish mumkin? Ko'rinadiki, birinchi savol o'qish rejasini uzishga undaydi, ikkinchisi uning ketma-ketligi, ularning vaqt bo'yicha davomiyligi, uchinchisi rejaning ierarxiyasini tuzishga hamda ko'zlangan maqsadga erishish uchun ularning ahamiyatini anglashga yo'naltiradi.

Ustalik bilan qo'yilgan savollar bilan o'qituvchi o'quvchi o'ylab qo'rgan ishlarni amalga oshirishga tegishli bo'lgan, harakat va jarayonlar o'rtasidagi sabab-oqibatli aloqalarni anglashga imkon beradi. Shunday savollarni berish kerakki, ular o'quvchining hodisa borishiga ta'sir etish imkoniyatini chuqur tushunishga imkon bersin. Berilgan savollarga javob izlashda o'quvchi tomonidan real javobgarlikni anglashga erishilsin. Buning uchun quyidagi tipdagi savollarni berish mumkin:

Siz aytganlarning barchasi bir-biri bilan qanday bog'langan? Siz bayon qilganlaringizda nima sabab hisoblanadi, nima oqibat, bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda nima mavjud yoki nima bo'ladi? Bu yerda nima asosiy va nima uchun, nima 2-darajali? Siz tomondan har bir belgilangan vazifalarning yechimi kimga bog'liq va nima uchun? Bu fikrni real amalga oshiruvchi o'quvchi qanday resurslarga ega bo'lishi kerak? Bu ishni oxiriga yetkazishni bo'yniga olgan o'quvchi qanday sinovlarga tayyor bo'lishi kerak? Nima uchun ayni bu o'quvchi mazkur natijani olishga javobgarlikni o'z bo'yniga olish kerak va u nimada ifodalanadi?

Shaxsiy yangilashlarni profilaktikasi uchun quyidagi savollarni berish mumkin: Anqlik kiritish uchun qo'shimcha yana nima talab etiladi? Qanday variantlar mavjud? Biz hozir yechgan vazifaga o'zgacha yondashuv nimadan iborat bo'lishi mumkin? Birinchi savol ilgari aytilganlarni aniqlashga, detallashtirishga javob berishga yo'naltirilgan, ikkinchisi o'xshashlarni izlashga, mavjud tajribalarni tahlil qilishga qaratilgan, uchinchisi o'rganan stereotiplar aylanasi javoblarni izlashga imkon beradi. Navbatdagi savollarni muhokama qilishga o'tsak bo'ladimi yoki o'qishni davom ettirishga ehtiyoj bormi deb to'g'ridan-to'g'ri so'rash foydali.

Maqsadni qo'yish – bu birinchi qadam. Bu yerda harakat rejasini tuzish zarur. Sotsiologlarning aniqlashicha, inson o'z maqsadlariga erishish bo'yicha o'ylangan rejalariga 3 foizigina ega. 97 foiz esa faqat umid. Buning uchun o'qituvchi tomonidan shakllantirilgan maqsadlarga erishish uchun muhim o'zgarishlar ro'yxatini tuzish hamda uni amalga oshirishning konkret yo'llarini va qanday yordam kerakligini, sizga kim va nima yordam berish mumkinligini aniqlash lozim. Barcha ishlar sizdan va sizning nazoratingizda bo'lishi uchun rejani qanday tuzish kerakligini o'ylash kerak. Hayotda hamma narsa bo'lishi mumkin, muvaffaqiyatsizlikdan hyech kim himoya qilinmagan. Fors-major vaziyatidagi harakat rejasini tuzib, tasodifiylarga qaramasdan harakat qilish kerak. Bunda holat o'zgarib boshlaydi. Uni bajarish uchun reja tuzish bilan harakat ketma-ketligini ishlab chiqish va yozish lozim. Har bir yo'lni aniq muddat bilan solishtirish kerak. Qadimgilarning aytishicha, bugungi yaxshi yashash, ertagi orzuga yaqinlashtiradi. Bugungi kun sizga qanday muammolar yaxshilik yoki yomonlik olib kelishidan qat'iy nazar faqat ko'zlangan maqsad bo'yicha oldinga intilish lozim. Muvaffaqiyatga erishishning birinchi faktori – intizom, ikkinchisi - e'tiborning bir yerga qaratilishi, uchinchisi - sabr-toqat, to'rtinchisi esa - manfaatdorlik.

O'qituvchi texnologik umumiy vazifalar bilan ishlashda quyidagilarni nazarda tutadi: maqsadga qaratish, harakat dasturini ishlab chiqish va imkoniyatlarni baholash, nazorat va korrektirovka hamda natijalarni baholash. O'qituvchining o'quvchi bilan ishlash formulasi: Mazkur vaziyatda siz qanday harakat qilardingiz? Siz keyingi safar yangicha nima qilgan bo'lardingiz? Teskari aloqa – o'qituvchi o'quvchi tomonidan aytilganlarni to'g'ri tushunganini tasdiqlaydi. Fikr almashish (Turli nuqtai nazardan biz nimaga qaraymiz?). Vazifani yechish yo'llarini izlash. Kelajakni aniqlash (Keyin nima qilamiz?) [4].

Hamkorlikda ishlashga nima xalaqit beradi? jismoniy charchoq, motivatsiya, o'ziga ishonch, adekvat resurslar hamda liderning yo'qligi, vaqtni noto'g'ri taqsimlash, teskari aloqa yo'qligi, o'quvchilar fikrini hurmat qilmaslik.

Amaliyotda o'qituvchining savollar ro'yxati. Maqsadlarni qo'yishda: Siz nimaga erishishni xohlaysiz? Bizning uchrashuvimiz natijasida siz qanday natijalarni olishni xohlaysiz? Qanday vaqt ichida siz bunga erishishni istaysiz? Siz xohlaganingizni olganligingizni qanday bilasiz? Keyingi ishlarda natija qanday bo'ladi? Bu maqsad yo'lida qanday oraliq qadamlar bor? Siz o'z muvaffaqiyatingizni qanday ko'rasiz? Siz o'z maqsadingizni yetarlicha nazorat qila olasizmi, siz unga ta'sir eta olasizmi? O'z maqsadingiz yo'lidagi bosqichlarni aniqlay olasizmi? Yaqin kelajakda siz nimaga erishishni xohlaysiz? Siz qachon o'z maqsadingizga erishishni xohladigiz? Sizing maqsadingiz erishib bo'ladiganmi, ijobiy-mi? Qanday qilib siz bu maqsadga erishasiz?

Resurslarni yaratish va izlashda istalganlarni olish uchun qanday sharoit ideal bo'lishi mumkin, qaysisi to'g'ri kelmaydi? Eng ahamiyatli variantlarni amalga oshirish kimga bog'liq? Siz gapirganlar barchasi o'zaro qanday bog'langan? Bu yerda nima va nima uchun eng asosiy, qaysisini ikkinchi darajali? Siz tomondan belgilangan har bir vazifa kimga va nima uchun bog'liq? Bu ishni oxiriga yetkazuvchi qanday sinovlarga tayyor bo'lishi kerak? Nima uchun faqat bu o'quvchi mazkur natijani olish uchun javobgarlikni o'z bo'yniga oladi va u nimada o'z ifodasini topadi? Vazifalarni to'liq yoki qisman yechishga olib keluvchi barcha alternativlarning ro'yxatini tuzing. Nima agar ... (vaqt, aloqalar, yangi kishilar)? Imkoniyatlardan qaysi biri yaxshi natija berishi mumkin? Imkoniyatlardan qaysi birini hozir sinab ko'rgan bo'lardingiz? Ko'rilayotgan qaysi harakatlardan biri siz uchun yoqimli? Alternativ ro'yxatga kiritilganlarning qanday afzalliklari va kamchiliklari bor? Siz boshqa variantlarni taklif etishni xohlaysizmi?

Teskari aloqa va monitoringda: Yana qo'shimcha aniqlashtirish uchun nima talab etiladi? Qanday variantlar mavjud? Demak, biz bu bilan yetarlicha kelishib oldik, endi keyingilarni aniqlab olish mumkin. Men to'g'ri tushundimmi, vaqt keldiki, siz endi yetarlicha savolga javob berishga tayyorlandigiz. To'g'rimi, men sezyapman, hozir siz uchun muhimroq ... ni muhokama qilish. Siz qanday o'ylaysiz, ... haqidagi savolga qaytish arziydi deb o'ylaysizmi?

Shunday qilib, kouching bu, o'quvchining individualligini rivojlantirish (bilish, anglash, javobgarlik kabilarni), bilim berishning o'zgacha shakli, o'quvchining shaxsiy va kasbiy hayotini yaratish istagiga tayangan ikkita shaxsning ijodiy sherikligidir. Bu albatta o'quvchilarning o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishda muhim hisoblanadi. Shuning



uchun ham ta'lim tizimiga kirib kelayotgan yangi metod sifatida o'qituvchilarning kouching metodini mukammal o'rganishlari va o'quv jarayoniga joriy etishlari muhim.

Adabiyotlar

1. Максимов В.Е. Коучинг от А до Я. Возможно все. – СПб.: Издательство «Речь», 2004. – 272 с.

2. Данилова М.А. Коучинг по-русски: смелость желать. – М.: 2000. – 192 с.

3. Харрис Д. Коучинг: личностный рост и успех. – М.: 2004. – 112 с.

4. Сидоренко Е.В. Тренинг коммуникативной компетентности в деловом взаимодействии. – М.: 2006. – 208 с.

INNOVATSION FAOLIYAT – ZAMONAVIY O'QITUVCHIGA QO'YILGAN JAMIYAT TALABI

M.N.Shermatov, Toshkent viloyati, Chirchiq davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

В статье рассматриваются теоретические и практические основы поднятия системы непрерывного образования на новый уровень за счет инновационной деятельности учителей.

Ключевые слова и понятия: инновационное развитие, государство и общество, новая мысль, новая идея, инновационная практика, инновационные технологии, развитие содержания образования, личностное развитие, «инновации» и «инновации», инноватор-педагог.

The article examines the theoretical and practical foundations of raising the lifelong education system to a new level through the innovative activities of teachers.

Key words and concepts: innovative development, state and society, new thought, new idea, innovative practice, innovative technologies, development of educational content, personal development, “innovation” and “innovation”, innovator-teacher.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 22-dekabr kuni Oliy majlisga murojaatnomasida “Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'lida o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oya, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuvlar asosida boshlashimiz kerak”ligini e'tirof etgan edi.

Darhaqiqat, keng ko'lamli islohotlarning muhim bo'g'ini – innovatsiyalar har bir sohada bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham o'zining afzalliklarini namoyon etmoqda. Ayni paytda ta'lim sohasida ham innovatsiya tushunchasi keng qo'llanilmoqda. Ta'limga “**innovatsion yangilik kiritish**” tizim ichki tuzilishini o'zgartirishni talab qiladi. Bunda innovatsiya amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy ob'ekt sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy sub'ektlarning harakat tizimidir.

Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug'ilib, ta'lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo'ladi. Shuningdek, umuman ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiya – ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishiga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llashga qiziqish, e'tibor tobora kuchayib bormoqda, buning sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, innovatsion texnologiyalarda esa, ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qiziqib izlab topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari kelishib chiqarishlariga o'rgatadi. Pedagog bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Ta'lim tizidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- Faoliyat yo'nalishiga qarab (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi);
- Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra (lokal, modulli, tizimli);
- Kelib chiqish manbaiga ko'ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan).

Ta'lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo'la olmaydi. Shu sababli “novatsiya” va “innovatsiya” tushunchalari o'rtasidagi asosiy farqni ko'rsatib o'tish zarur. Buning uchun islohot faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko'lamini asos bo'lib xizmat qiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli bo'lsa, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lmasa, o'z oldiga mua-

yyan tizimdagi faqat ba'zi elementlarini o'zgartirishni vazifa qilib qo'ygan bo'lsa, u holda biz novatsiya xususida fikr yuritayotgan bo'lamiz. Agar faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo'lsa va uning natijasi o'sha tizim natijasiga yoki uning pritsipial o'zgarishiga olib kelsa, bu innovatsiya yoki innovatsion o'zgarish bo'la oladi.

Har ikkala tushuncha mezonlari kuyidagicha: **novatsiya** mavjud nazariya doirasida amalga oshiriladi, ko'lam va vaqt bo'yicha chegaralanadi, metodlar yangilanadi va natijasi avvalgi tizimni takomillashtiradi. **Innovatsiya** esa tizimli, yaxshi va davomli bo'ladi, ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, amaliyot sub'ektlari pozitsiyalarini to'la yangilaydi. Bunda faoliyatning yo'nalishlari ochiladi, zamonaviy texnologiyalar yaratiladi, faoliyatning yangi sifat samaralariga erishiladi, natijada amaliyotning o'zi ham yangilanadi.

Ta'limda innovatsiyaning amaliyotga kiritilishi innovatsion jarayonlarda amalga oshiriladi. Innovatsion jarayon deb – innovatsion o'zgarishlarga tayyorgarlik ko'rish va uni amalga oshirish jarayonida aytiladi. Innovatsion jarayon – bu pedagogik yangiliklar, bu yangiliklarning pedagogik hamjamiyat tomonidan o'zlashtirilishi va ulardan ilmiy asosda amaliyotga samarali foydalanishning o'zgarib boruvchi yaxlitlikdir.

Ta'lim jarayonidagi innovatsion o'zgarishlar, tizimga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita o'qituvchi faoliyatini yangilash va o'zgartirish orqali amalga oshirilishi ham atroflicha o'rganilgan. Innovatsion faoliyat – bu uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo'lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yorning yuzaga kelgan me'yor bilan to'qnashuvchi natijasida vujudga kelgan qator muammolarni yechishga qaratiladi. Innovatsiyalar doimiy ravishda pedagogik faoliyatga yangiliklar olib kirish orqali ta'lim rivojiga hissa qo'shadi, pedagogik faoliyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'qituvchining innovatsion faoliyatiga tayyorligining ijtimoiy va kasbiy muhim sifatleri nafaqat ta'lim muassasidagi iqtisodiy va moliyaviy vaziyatga, balki bevosita bu sifatlarning talab etilganligi bilan bog'liqdir. Kasbiy jihatdan muvaffaqiyatli o'qituvchilarning malakalari va kasbiy sifatleri zamonaviy ta'lim tizimining asosiy real talablari hisoblanadi. Innovator-pedagoglar bugungi kun ta'lim tizimining talabi bo'lib, kasbiy cho'qqilarga erishish uchun malaka oshirish, qayta tayyorlash kurslarida ta'limni chuqurlashtirish talab etiladi. O'qituvchilar o'zlarining innovatsion faoliyatni keng yoyish, yosh o'qituvchilarga o'rgatish, interfaol o'qitish usullarini ochiq darslarda namoyon qilishlari zarur. Bu o'qituvchilar o'z faoliyatlarini baholashning yangi usullarini topish, kasbiga bo'lgan qarashlarni o'zgartirish, pedagogik va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda o'qituvchilarga kasbiy vazifalari to'g'risidagi tor tushunchalarning o'zgarishiga olib keladi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonida qayd etilgan – ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish kabi vazifalar samarali amalga oshirilishi shubhasiz.

Bizga ma'lumki, pedagogik jarayonlar pedagogik tizim ichida kechadi. Ilgaridan loyihalashtirilgan har bir didaktik jarayon ma'lum prinsiplar imkoniyatlarga ega bo'lib, u o'quvchida bilim, ko'nikma va malakalarning sifatli shakllanishini nazarda tutadi. Bu degan so'z, biz ta'lim-tarbiyada zaruriy darajadagi natijani olish uchun pedagogik tizimni takomillashtirishimiz, uning funksiyasini ijobiy tomonga yo'naltirishimiz, intensiv pedagogik jarayonni vujudga keltirishimiz zarur.

Bundan xulosa shuki, ta'lim-tarbiyada sifatli, samarali natijani olish uchun mavjud pedagogik tizimni modernizatsiyalashtirib borishimiz kerak. Shu munosabat bilan **innovatsiyalarning ob'ekti** sifatida quyidagi pedagogik muammolarni keltirishimiz o'rinli bo'ladi:

- o'quv-tarbiyaviy faoliyat motivatsiyasini oshirish;
- darsda o'quv materiallari xilma-xilligi va hajmini kengaytirish;
- o'quv jarayon samaradorligini oshirish;
- ta'lim jarayonida vaqtdan unumli foydalanish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining shaxsiy ishtiroki va faolligiga ma'suliyatni oshirish.

Bu sohada eng to'g'ri yo'l – yangiliklarni asta-sekinlik bilan, ketma-ketlikda, uzluksiz, uning natijaviyligiga ishonch hosil qilgan holda, har tomonlama o'ylab, o'lchab navbatdagi qadamlarni bosish kerak.

Buning uchun innovatsiyalarni pedagogik jarayonga kiritish yo'llarini belgilash zarur:

- yangi pedagogik g'oyalarni shakllantirish;
- konsepsiya ishlab chiqish;
- innovatsion dastur yaratish;
- ijro mexanizmini ishlab chiqish;
- amaliyotga joriy etish.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "O'qituvchilar va murabbiylar kuni" bayrami munosabati bilan o'z tabrigida "Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiya. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq" degan edi.

Adabiyotlar:

1. Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov Ta'lim sifatini boshqarish. – T.: "Turon-Iqbol", 2006. 590 b.
2. Xalq ta'limi jurnali "Innovatsiya – yangilikka intilish, kelajakka qadam". T.: 2018. № 1. 4-6 b.
3. J.G'.Yo'ldoshev "Innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga uzluksiz ravishda tatbiq etish zamon talabi". – T.: "Uzluksiz ta'lim". 2011. № 6, 11-15 b.

TALABALAR EMOTSIONAL INTELLEKTINI TADQIQ ETISHNING PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

B.N.To'raqulov, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti "Psixologiya" kafedrasida katta o'qituvchisi

Статья посвящена психологическим особенностям исследования эмоционального интеллекта студентов, а также описана структура эмоционального интеллекта студентов, психологическая основа, которая его обеспечивает, психологические подходы к анализу эмоционального интеллекта, взаимосвязь интеллектуального и профессионального потенциала.

Ключевые слова понятия: Студент, интеллект, эмоциональный интеллект, возраст, образование, психология, потребность, интерес, эмпатия, межличностные отношения, высокие чувства, эмоциональная чувствительность, эмоция, эмоциональные состояния.

The article is devoted to the psychological characteristics of the study of students' emotional intelligence, and also describes the structure of students' emotional intelligence, the psychological basis that provides it, psychological approaches to the analysis of emotional intelligence, the relationship of intellectual and professional potential.

Key words and concepts: Student, intelligence, emotional intelligence, age, education, psychology, need, interest, empathy, interpersonal relationships, high feelings, emotional sensitivity, emotion, emotional states.

Ma'lumki, 17-21 yosh oraliq'ida inson ijtimoiylashuv bosqichining yetuk pallasi bo'lib, unda bir qator psixologik sifatlar, xususiyatlar, yuksak his-tuyg'ular, burch va qadriyatlar tizimi tubdan o'zgaradi. Aynan shu yosh bochqichi, talabalik davriga to'g'ri kelib, uni tahlil etish shaxs kamolotining ko'plab jihatlarini ochib berishi ehtimoldan holi emas. Agar biz talabani shaxs deb olsak, uning faoliyati to'liq ijtimoiy rollarni o'zlashtirish jarayoni bilan xarakterlanadi. Demak, ushbu mavzuni o'rganish uchun bizda asos bor. Qolaversa, mazkur turkumdagi ilmiy tadqiqotlar mamlakatimiz psixologiyasi uchun o'ziga xos yangi ilmiy maktablarni yaratishi ehtimoldan holi emas.

Tadqiqotchi M.A.Nguyenning fikricha, ta'lim jarayoni talabalar shaxsi uchun yuksak axloqiy va estetik his-tuyg'ularni shakllantiruvchi psixologik omillardan biri sanaladi. Ya'ni, ularning his-tuyg'ulari faqat o'z manfaati uchun emas, balki jamiyat mafaatlari bilan uyg'unlashadi. Kasbiy bilim va ko'nikmalar asosida, talabalar o'z kelajak yo'lini tanlay boshlaydilar, shuningdek, mehnat munosabatlari haqida tasavvurlari yanada ortib, fuqarolik va kasbiy rollarni to'liq anglay boshlaydilar [1,140].

Bundan tashqari, talabalarning emotsional holati ko'proq ularning akademik muvaffaqiyatlari bilan bog'liq bo'lib, bunday muvaffaqiyatlar zamirida har bir pedagog o'qituvchilarning o'rni beqiyos sanaladi. Chunki, talabalar har bir pedagogga xos aqliy, hissiy, kommunikativ xususiyatlarni o'zlashtira boradi.

Ta'kid joizki, har bir oliy ta'lim o'qituvchisi nafaqat intellektual jihatdan, balki shaxslilik fazilatlarini jihatdan ham boshqalar uchun namuna bo'la olishlari shart sanaladi. Ta'lim jarayoni bilan bog'liq hamkorlikdagi faoliyat o'z mazmunida, o'zaro qadriyatlarga asoslangan muloqot, ta'lim-tarbiya berishdagi bog'rikenglik, boshqalar kechinmalariga qaratilgan empatik munosabatlar kabilarni ham qamrab olishi lozim sanaladi.

Mohiyatan, talaba so'zi lotincha so'zdan olgan bo'lib, "o'qish", "mehnat qilish" kabi ma'nolarni angalatadi. Ya'ni bu davr inson tomonidan yangi bilimlarni o'zlashtirish bosqichidir. Universitetda o'qish bir tomondan yaqinlar va ota-onadan uzoqlashish bo'lsa, ikkinchi tomondan yashash joyining o'zgarishi bilan bog'liq kechinmalarining yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi. Mazkur ikki omil ham talabalar emotsional intellekti dinamikasi uchun o'ziga xos psixologik shart-sharoitlardan biri hisoblanadi.

I.N.Andreyevaning aytishicha, talabalarning yangi sharoitlarga moslashishi va yaqinlaridan uzoqlashishi, ularda ichki nizolarni paydo etadi, ya'ni ehtiyojlar, qiziqishlar va intilishlar yo'nalishida to'qnashuvlar yuzaga keladi. Ichki nizolarning sababi shuki, muammoga oid yechimlarni tanlashdagi qiyinchiliklar va yangi muhitdagi talablarning haddan tashqari yuqoriligidir. Keyinchalik, ushbu muammolarning hal etilishi organizm uchun mamnuniyat va quvonch hislarini kechishini yuzaga keltiradi [2,94]. Ha albatta, muallif nazarida ichki nizolarning paydo bo'lishi bu yangi ijtimoiy muhit va uning talabalari bilan bog'liq. Shuningdek,



ichki nizolarga munosabat va uni yengish shaxsga xos individual xususiyatlar turiga ham bog'liq sanaladi. Misol uchun, ba'zi talabalar muammoli vaziyatlarda tez yechim topsalar, ba'zilar bunday imkoniyatdan mustasno sanaladilar. Yuqoridagilardan farqli o'laroq, I.S.Stepanovning ta'kidicha, o'quv faoliyati bilan bog'liq muvaffaqiyatsizliklar talabalarda salbiy his-tuyg'ularning namoyon bo'lishini yuzaga keltiradi. Salbiy his-tuyg'ular asta-sekin ko'payib, ular oxir-oqibat umidsizlik tuyg'usini paydo etadi [3,96]. "Umidsizlik" – bu keng ma'noda barcha qiyinchiliklar va qarama-qarshiliklarni hal qilishning halokatli yo'li sanaladi. Ba'zida ayrim talabalarning o'qishni tashlab ketishi va o'z jonlariga qasd qilishlari ham ayrim manbalarda keltirib o'tilgan. Mazkur holat ko'proq, dunyoqarashi cheklangan, qo'rqqolikka moyil, ekstremal vaziyatlarda o'zini o'zi boshqara olmaydigan talabalar tipida ko'proq uchraydi. Demak, talaba o'z his-tuyg'ularini har qanday shart-sharoitdalarda boshqara olishni o'rgara borishi lozim sanaladi.

V.V.Volovga ko'ra, talabalar o'quv yilining ikkinchi bosqichida hissiy-emotsional jihatdan o'zi o'zi yaxshi anglay boshlaydilar. Ya'ni ularda xotirjamlik yuzaga kelib, umidsizlik tuyg'ulari ancha kamayadi. Chunki, talabalar bu bosqichda o'z his-tuyg'ulari va kayfiyatlarini tartibga solishda o'ziga xos ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Shuningdek, ularning ijtimoiy intellektiga aloqador hayotiy tajribasi, emotsional intellektning takomillashuviga keng imkoniyat yaratadi [4,93]. Demak, hayotiy tajriba emotsional intellekt rivoji uchun ham o'ta muhim sanaladi.

N.A.Viskochilning fikricha, tanqidiy fikrlash talabalar emotsional sohasini rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri sanaladi. Ayni shu davrda inson kasbiy kamolotining poydevori yaratiladi. Chunki, tanqidiylik yangiliklarga, yangiliklar esa, yangi his-tuyg'ularning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi [5,123].

Mohiyatan, yoshlik davri bu o'ziga xos sezgirlik davri sanalib, mazkur davrda inson tabiatiga xos bo'lgan his-tuyg'ularning barcha ko'rinishlari takomillasha boradi. Bunga asosiy sabab guruhiy faoliyat va ta'lim-tarbiya jarayonidagi yuqori bilim ko'nikmalar hisoblanadi. Bundan tashqari, talabalarning emotsional sohasida nafaqat ob'yektiv hislar (ma'lum bir voqeaga, shaxsga, hodisaga yo'naltirilgan), balki umumlashtirilgan his-tuyg'ular ham shakllanib boradi (ijobiy tuyg'ular, salbiy tuyg'ular, hazil tuyg'usi, rahimdillik, samimiylik va hokazo).

Ilmiy jihatdan olib qaralganda, talabalarda emotsional intellektni rivojlantirish ishlari, kasbiy kompetentlik va o'z-o'zini rivojlantirish orqali ham amalga oshiriladi.

Birinchidan, yuqori emotsional intellekt, avvalambor, empatiya, kommunikativ bag'rikenglik, o'zini o'zi anglash va intilishlar darajasining yetariligi, o'ziga ishonch va akademik qobiliyatlar, o'z his-tuyg'ularidan xabardor bo'lish, ularni boshqara olish, sheriklarining his-tuyg'ularidan xabardor bo'lish hamda o'z kechinmalarini tartibga sola olish qobiliyatlari bilan xarakterlanadi.

Ikkinchidan, emotsional intellektning yuqori darajasiga ega bo'lgan talaba, bu, birinchi navbatda, o'z hayotini, kasbiy yo'lini, o'z hissiy olamini chuqur anglay olgan shu bilan birga, introspeksiya (ichki kuzatuvga) moyil hamda o'zini o'zi har tomonlama namoyon qiladigan shaxsdir.

Tadqiqotchi M.M. Sarenkova psixolog talabalar orasida emotsional intellekt xususiyatlarini aniqlash borasida tadqiqot olib bordi. Va oxir-oqibat emotsional intellektning har bir tarkibiy qismlari rivojini hamda emotsional intellektga xos umumiy ko'rsatkichlarni aniqladi. Muallifning xulosalariga ko'ra, psixolog talabalarda "hissiyotlarni anglash" boshqa yo'nalish talabalaridan farqli ravishda, ancha yuqori ko'rsatkichga ega. Bunga sabab, hissiyotlarni anglash va tahlil qilishdagi kompetentlik xususiyatidir [6,4]. Ya'ni inson hissiyotlari va emotsional sohasi borasidagi bilim va ko'nikmalar ustunligidir.

V.S.Yurkevich o'z tadqiqotlarida psixolog R.Baron tomonidan

ishlab chiqilgan "emotsional intellekt" modelining o'ziga xos alohida besh kichik turini tasniflashga harakat qildi. Muallifga ko'ra ular [7,10]:

- Ichki intellekt – bu o'z his-tuyg'ularini anglash, o'ziga ishonch, o'zini o'zi hurmat qilish, o'zini namoyon qilish hamda mustaqillik kabi psixologik unsurlardan iborat;

- Shaxslararo munosabatlardagi intellekt – bu empatik munosabatlar, shaxslararo munosabatlar tizimi, ijtimoiy mas'uliyat kabi xususiyatlardan iborat;

- Moslashishga nisbatan intellekt – bu muammolarni hal qilish, turli voqe'liklarni baholash kabilarda namoyon bo'ladi;

- Stressni boshqarishga nisbatan intellekt – bu shaxsga xos chidamlilik, salbiy impulsni yengish holatlari bilan xarakterlanadi;

- Umumiy kayfiyat – turli vaziyatlarga nisbatan organizmning bir reksiyalari ya'ni nekbin tipdagi insonlar bunga misoldir. Demak, yuqorida keltirilgan psixologik tarkiblar, emotsional intellekt rivojlanishini va uning barqaror kechishini ta'minlovchi omillar hisoblanadi.

Quyida nazariy fikrlarimizning isboti sifatida, talabalar emotsional intellekti rivojlanishining tipik xususiyatlariga oid, amalga oshirilgan empirik tadqiqotimizning ayrim natijalaridan namunalar keltirib o'tamiz.

Talabalarda emotsional intellekt rivojlanishining individual-tipik xususiyatlarini faktorli analiz yordamida tekshirish uchun Dj. Raven tomonidan ishlab chiqilgan "Progressiv matritsalar ya'ni umumiy intellekt" testi, Dj. Gilfordning "Sotsial intellektni o'rganish xususiyatlari" so'rovnoma, N. Kollning "Emotsional intellekt xususiyatlarini o'rganish" so'rovnoma va Lyusina tomonidan ishlab chiqilgan "Umumiy emotsional intellekt ko'rsatkichlari" kabi so'rovnomalardan foydalanildi. Faktorli tahlil shunday statistik ko'rsatkichki, tadqiqotda qo'llaniladigan metodikalar yoki so'rovnomalarda shkalalari birinchi faktorda yuqori vazndagi shkalalar borligi yoki ortiqcha shkalalarni va tadqiqotda ko'zlangan maqsadga yerishishda yuqori natijani aniqlashda imkon beradigan statistik mezonlardan biri sanaladi. Quyida keltiriladigan jadvalda Chirchiq davlat pedagogika institutida tahsil oluvchi talabalarning umumiy va sotsial intellekt ko'rsatkichlar omillarini o'rganish kabi so'rovnomalardan olingan natijalarning faktorli tahlil ko'rsatkichlari keltirilgan.

11-jadval

Umumiy va sotsial intellekt ko'rsatkichlari so'rovnomalari darajasining faktorli analiz ko'rsatkichlari

Shkalalar	Komponentlar			
	1	2	3	4
Umumiy intellekt	-0,082	0,221	0,860	-0,304
Muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish	0,738	0,330	0,129	-0,308
Noverbal xulq-atvorni tushunish	-0,016	0,685	0	0,699
Verbal ekspressiyani tushunish	0,715	-0,401	-0,241	-0,057
Shaxslararo o'zaro ta'sir	-0,176	-0,724	0,432	0,425
Sotsial intellekt	0,843	-0,065	0,266	0,391

Tadqiqotdan olingan natijalar shuni namoyon qiladiki, Chirchiq davlat pedagogika instituti talabalarning progressiv matritsalar, ya'ni umumiy intellekt va sotsial intellekt diagnostikasi ko'rsatkichlarini o'rganish so'rovnomalari natijalari va ulardagi o'zaro individual-psixologik xususiyatlarni qay tarzda yo'lga qo'yilishini belgilab beruvchi mexanizm sanaladi. Sinaluvchilar natijalari faktorli analiz bo'yicha ko'rsatkichlar 4 ta faktorlarga



birlashdi. Birinchi shkalani tashkil etgan psixologik faktorlar: muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish 0,738, verbal ekspressiyani tushunish 0,715 va sotsial intellekt 0,843 kabi natijalar bilan o'zaro farqlandi. Ikkinchi shkalani tashkil etgan psixologik faktorlar: noverbal xulq-atvorni tushunish 0,685 va shaxslararo o'zaro ta'sir 0,724 natija bilan alohida xarakterlanadi. Uchinchi shkalani tashkil etgan psixologik omillar: umumiy intellekt 0,860 va shaxslararo o'zaro ta'sir 0,432 daraja bilan qayd etildi. To'rtinchi shkalani tashkil qilgan psixologik birliklar: noverbal xulq-atvorni tushunish 0,699 va shaxslararo o'zaro ta'sir 0,425 kabi psixologik xususiyatlar bilan farqlandi. Sinaluvchilarning to'plagan qiymatlari to'rtta faktorlarga birlashganligi va bu faktorlar so'rovnomadagi asosiy qiymatlar va ahamiyatli farqlarni belgilovchi asosiy xususiyatlarni tashkil etmoqda. Keyingi jadvalda Chirchiq davlat pedagogika instituti talabalarining umumiy emotsional intellekt so'rovnomalari bo'yicha olingan faktorli analiz ko'rsatkichlari taqdim qilinadi.

Yuqorida tahlil etilgan barcha nazariy yondoshuvlarning oliy maqsadi bitta, ya'ni emotsional intellektning haqiqiy mohiyatini ochish, kerak bo'lsa uni rivojlantirishning psixologik, pedagogik shart - sharoitlarini aniqlashdir. Xulosa qilib aytganda, emotsional intellekt ko'plab kognitiv jarayonlar, irodaviy sifatlar, refleksiv jarayonlar, ijtimoiy -psixologik sifatlar, muloqot unsurlari kabilar bilan uzviy bog'liq sanaladi. Shuning uchun ham, emotsional intellektni tadqiq etish o'ziga xos murakkab vazifa sanaladi.

Adabiyotlar

1. Нгуен М.А. Роль эмоционального интеллекта в становлении личности студента-профессионала / Нгуен М.А. // Профессиональное образование. Столица. - «Новые педагогические исследования». № 5, 2007. – С.137-140.
2. Андреева И.Н. Гендерные различия в сфере эмоционального интеллекта // Материалы Междунар. междисциплинарной научно-практ. конф., 19-20 декабря г. Минск, 2003 . – С. 94.
3. Степанов И.С. Психологические условия формирования эмоционального интеллекта личности. Диссертация. 2010. – С.73.
4. Волов В.В. Инновационный подход к исследованию базовых механизмов эмоционального интеллекта // Актуальные проблемы психологического знания. 2016. № 3. С. 93-102
5. Царенкова М.М. Эмоциональный интеллект: от иерархических моделей к представлению о единой когнитивной способности // Психологические исследования: электронный научный журнал. 2014. № 37. Т.7. С. 4.
6. Юркевич В.С. Проблема эмоционального интеллекта // Практическая психология образования, 2012, №3 (4) июль-сентябрь, С.10.

GEOGRAFIYANI O'QITISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNI TATBIQ ETISHNING O'QUVCHI PSIXOLOGIYASI BILAN BOG'LIQ JIHATLARI

S.Haydarova, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti erkin izlanuvchisi

В статье обсуждается важность учета психологических особенностей студентов в учебном процессе, способы повышения их мотивации к науке, научные и инновационные подходы.

Ключевые слова и понятия: учебный процесс, умение, компетентность, психология личности, логика, дерматоглифика, инновации.

The article discusses the importance of taking into account the psychological characteristics of students in the educational process, ways to increase their motivation for science, scientific and innovative approaches.

Key words and concepts: educational process, skill, competence, personality psychology, logic, dermatoglyphics, innovation.

Umumta'lim maktablari bitiruvchilari tegishli fanni a'lo o'zlashtirgan bo'lsada, ko'pincha nostandart vaziyatlarda kutilgan natijani ko'rsata olmasliklari, boshqacha aytganda fanni yaxshi o'zlashtiradigan kuchli o'quvchilar ham dars paytida hamda hayotida uchraydigan nostandart vaziyatga tegishli masalalarni yechishda o'rgangan bilim va ko'nikmalarini qo'llay olmasliklariga guvoh bo'lamiz. Buning boisi o'quvchilarda ma'lum kompetensiyalarning yetarli darajada shakllanmaganligidir. Ushbu masalaning yechimi sifatida umumta'lim fanlari bo'yicha kompetentlik yondashuvga asoslangan uzluksiz ta'limning Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini ishlab chiqish hamda fanlarda amalga oshirish belgilangan. Asosiy maqsad o'quvchilarning bilim saviyasini bugungi kun talabiga moslash, xalqaro andozalar darajasiga ko'tarish, ya'ni ularning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirishdan iborat.

Respublikamiz ta'lim tizimidagi va xalqaro tajribalar asosida geografiya fanini o'qitishga yangicha yondashuvlar: o'qituvchi yordamida tizimlashgan ilmiy bilimlar olish asnosida, bilim va ko'nikmalarini amaliyotga joriy etish, olgan bilimlardan kundalik turmush va texnikada samarali foydalanish malakasini, ya'ni o'quvchilarda kompetentlikni shakllantirish usullari tatbiq etilmoqda.

Faoliyatli yondashuv - fan mazmuniga maksimal darajada amaliy komponentlarni (laboratoriya ishlari, namoyish-tajribalar, amaliy ishlar, ekskursiyalar) kiritish orqali ta'lim jarayonini tashkil etish.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv - fan dasturi mazmunini har bir ta'lim oluvchini kundalik hayotida muhim hisoblangan, adekvat xulqi

(ongli, aniq maqsadli, umumqoidalarga bo'ysunuvchi, sharoitga moslashuvchan) inson qilib shakllantirish.

Kompetensiyaviy yondashuv – egallagan bilimlarini kundalik hayotda amalda qo'llay olish, amaliy faoliyat asosida universal ko'nikmani shakllantirish kabi tamoyillarni geografiyani o'qitishga samarali tatbiq etish ko'zda tutilgan.

O'quvchilarda mazkur ko'nikmalarini shakllantirish o'tilgan har bir mavzu mazmunini yoritishda ularning kundalik turmushda qo'llanilish doirasi va chegaralarini, insoniyat va umumbashariyat buguni va kelajagi bilan bog'liq jihatlarni o'quvchilar ongiga singdirib borish orqali amalga oshiriladi [1]. Bunda o'quvchilarga mazkur fanning hayotiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy zarurat ekanligini anglatish muhim hisoblanadi. O'quvchilarning tayanch hamda fani o'zlashtirishdagi xususiy kompetensiyalarini birgalikda shakllantirishda o'quvchi shaxsining psixologik xususiyatlari, unga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar mavjudki, ta'lim samaradorligini oshirishda o'qituvchilar bu jihatlarni e'tiborga olishi zarur bo'ladi. Ya'ni, ta'lim jarayonini tashkillashtirayotgan o'qituvchi uchun ta'lim oluvchining psixologik rivojlanish konsepsiyasini bilish muhim hisoblanadi. Ma'lumki, inson psixologiyasi tashqi muhit hosilasi sifatida shakllanadi hamda mavjud tashqi sharoit va tashqi muhit o'quvchilar psixologiyasiga bilvosita, shu muhitdagi faoliyati orqali ta'sir qiladi. Shu sababdan, ta'limda, xususan, umumta'lim maktablarida fanni o'qitish jarayonida o'quvchi shaxsiga ham yangi, muhim tadqiqot ob'ekti sifatida qarash zarurati tug'iladi.

O'quvchilarning tajriba o'tkazish, tabiatni kuzatish jarayonida



hamda amaliy ishlarni mustaqil bajarishdagi yuqori emotsional psixologik holatlarining inobatga olinish zarurati esa, geografiya o'qitishining yana bir o'ziga xos xususiyatini tashkil etadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning psixologik holati, xususiyatlari muhim o'rin tutadi. Amerikalik J. Bruner fikricha, har bir o'quvchi ixtiyoriy fanni to'laqonli o'zlashtirishi mumkin. Faqatgina uning yoshiga mos o'qitish metodikasini to'g'ri tanlash lozim. Bu nazariy va pedagogik jihatdan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan holat hisoblanib, shu o'rinda bu fikrning davomi sifatida ba'zi mulohazalar bildirish mumkin. Tabiat qonunlari, yuz berayotgan jarayonlar va hodisalarning mohiyatini anglashda o'quvchilarning fikrlashlari talab etiladi. O'quvchilarning ijodiy qobiliyatini o'stirish, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, abstrakt tafakkurini shakllantirish pedagogikaning, o'qitish metodikasining muhim masalasi hisoblangani holda, insonning genetik muhri (irsiyati)ga ham bog'liq bo'ladi.

Hozirgi davrda psixologiya fanida hodisalarni psixologik jarayonlarga, holatlarga, shaxsning xususiyatlariga ajratish qabul qilinganligi muhim ahamiyatga ega. Bunday yondoshuvlar psixolog B.G. Anan'evning fikricha, dastlabki materiallar, bir tomondan, psixik funksiyalar, xulqning, ikkinchi tomondan, elementar motivlar hisoblanadi. Olimning mulohazasicha, bu qo'shimchalar "genetik ma'no kasb etib, fiziologiyasidan miya mexanizmlarini umumpsixologik va neyrohumoral regulyatorlarini qamrab olish psixologiyaga o'tishga imkon beradi" [2].

O'smirlik davri ontogeneziga oid o'tkazilgan tadqiqotlar va zamonaviy ko'p o'lchovli statistik tahlillar asosida, insondagi o'zgaruvchanlik alomatlari: tana o'lchamlari, bosh va yuz qismi, dermatoglikfik belgilari, shaxsning psixologik xususiyatlari kompleks holda o'rganilganda, insonning xarakteri, dermatoglikfik va psixologik belgilari ularning umumiy konstitutsional strukturasi bog'liq bo'lar ekan. E'tiborli tomoni, barmoqlardagi chiziqlari kombinatsiyalaridan organizmning barcha tizimlari faoliyatining o'ziga xosligi haqida xulosa qilsa bo'ladi. Bu o'z navbatida inson xarakterining asosiy xususiyatlari, ma'lum bir jismoniy yuklamalarga moyilligi, o'zini qaysi sohalarida samarali (istiqboll) namoyon qila olishligini ham ko'rsatadi.

Dermatoglikfikaning ilmiy asoslariga ko'ra, insonning ichki yashirin qobiliyatlarining genida muhrlangan bo'ladi va ma'lum ma'noda kelajak faoliyatini bashorat qilish imkonini beradi. Ya'ni, insonning genetik holatiga qarab uning psixologik xususiyatlarini uyg'unlashtirish mumkin. O'quvchilarning psixologik konsepsiyasini belgilash orqali esa, ularning o'qish motivini oshirish, fanni o'qitish samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin.

Psixologik va didaktik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayoni o'quvchilarga nafaqat tizimli bilim berish, balki, o'zlikni anglash ko'nikmalarini ham shakllantirishni taqozo etadi [3]. Bugungi kunda o'quvchilarga "bilimni qay tarzda berish kerak?", ularga "berilayotgan materiallarni o'zlashtirishi uchun qanday yondashuvlar talab qilinmoqda?". Bu masalaga geografiyani o'qitish misolida, qaraydigan bo'lsak o'quvchilarning yosh psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda birinchi navbatda o'quv fanning maqsadi, ta'lim mazmuni, qo'llanilish imkoniyatlarini ularga tushunarli va qiziqarli qilib yetkazib berish talab qilinadi.

Xususan, geografiyaning geomorfologiya bo'limida olam sirlarini namoyon etayotgan tabiat yer yuzasining ko'rinarli qismi o'rganiladi. Inson qo'li bilan yaratilgan qurilmalar, masalan Misr piramidalari, osmono'par binolar va boshqa inshootlar bilan ularning mushtarakligi tabiat va inson yaratuvchiligidagi mushtaraklik xususiyatlari haqida fikr yuritishga undaydi. Tabiiy relief shakllari va inson yaratgan inshootlarning funksional va geometrik o'xshashliklari va tafovutlari, ularning vazifalari haqida savollar tuzib o'quvchilar bilan fikr almashish tavsiya qilinadi. O'quvchilar o'zlarining fikr-mulohazalarini bildirishadi, bu esa tabiiyki o'quvchilarda tabiat hodisalari va ularning hosilalari, tabiiy shakllarning mohiyati bilan inson yaratgan inshootlarning xususiyatlari bo'yicha qiyosiy tasavvurlar shakllanishiga va shu

bilan tabiatdagi barcha shakl va hodisalarning mohiyat va mazmuni bo'yicha kompetensiyaviy yondashuv ko'nikmasini paydo qilishga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Geografiyaning "yer yuzasining relief shakllari" mavzusini nazariy jihatdan batafsil yoritish va amaliy ko'nikmalar hosil qilishda mavjud adabiyotlardan, internet ma'lumotlaridan samarali foydalanish bilan bir qatorda kundalik real hayotimizdagi hodisalar, harakatlar va jarayonlardan dars mobaynida foydalanish maqsadga muvofiqdir. "yer yuzasining relief shakllari" mavzusida tog', tepalik, balandlik, cho'qqi, cho'kma va boshqa relief shakllari kabi geografik tushunchalar yoritiladi, bu o'quvchilar ongida tabiatning naqadar mo'jizaviy, aql bovar qilmas yaratuvchi ekanligini inson qo'li bilan yaratilgan qurilmalarga taqqoslash imkoniyatini beradi va ayni paytda ilmning egallanmagan cheksizliklarini anglatadi.

Masalaning yana bir muhim jihati sifatida, bugungi kun o'quvchi yoshlarning aksariyatida o'qishga bo'lgan qiziqishga nisbatan, turli o'yinlarga bo'lgan moyillik yuqori ekanligini ta'kidlab o'tish mumkin. Xususan, mavzuga oid qisqa esse va hikoyalar asosida mavzuda yoritiladigan tushunchalarning kundalik va umumjamiyat hayotidagi o'mini yoritish, krossvord, viktorina, rebus kabi boshqotirma o'yinlarini tashkil qilish orqali bolalarda intellektual ko'nikmalarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Kartalar, chizmalar va rasmlarning o'zaro mantiqiy aloqadorligi, masala mohiyati va ta'rifi, hayotdagi qo'llanilish ahamiyati haqidagi fikrlarni rivojlantirish, mustahkamlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Darsini bu tarzda tashkil etish, pedagoglardan birmuncha vaqt va izlanishlarni talab qilsada, o'quvchilarning darsga, fanga va o'qituvchisiga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi, ya'ni, monoton dars o'tish uslubidan voz kechishga olib keladi.

Demak, pedagog ta'lim jarayonini to'g'ri tashkilashtirish uchun nafaqat nazariy va metodik jihatdan mukammal bilimga ega bo'lishi balki, o'quvchilar bilim va ko'nikmalarini shakllantirishning umumiy psixologik qonuniyatlarni ham yaxshi bilishi talab etiladi. Bunda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini va shaxsiy psixologik jihatlari: qiziqish va moyilliklari, o'qishga, mehnatga, jamoaga hamda o'ziga bo'lgan munosabatini, iroda va emotsional sifatleri: mustaqil fikr va harakatlari, tashabbusi, o'z maqsadiga qat'iyatlilik, ruhiy kechinmalari, turg'un sezgilari, o'ziga xos bilish faoliyati, harakati va aqliy rivojlanishi: diqqati, xotirasi, mantiqiy fikrlashi va tafakkuri, qobiliyati nazarda tutiladi.

O'quvchilarning psixologik rivojlanishini harakatlantiruvchi kuch, bu eski va olinayotgan yangi ma'lumotlarning qarama-qarshiligidir. Ta'limsiz to'laqonli rivojlanish bo'lishi mumkin emas. Ayni paytda, o'qish o'quvchining ichki rivojlanish qonunlariga ham salbiy ta'sir o'tkazmasligi lozim. Ya'ni, ta'lim olish imkoniyatlari keng, lekin chegarasiz emasligi ham yoddan chiqmasligi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'rganuvchilarni o'rganmasdan, ular ongiga tabiat qonunlarini singdirib bo'lmaydi ya'ni, o'quvchining ta'lim olishga qay darajada tayyorgarligi, uning psixologik omillari ham muhim pedagogik jihat hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Васильева Ирина Васильевна. "Проектная и исследовательская деятельность учащихся как средство реализации компетентностного подхода при обучении физике в основной школе" Автореф. канд. дисс. – М.: 2008
2. Umumiy psixologiya. E.G'oziyev. O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti. – T.: – 2010. 151-bet.
3. Абрамова Т.Ф. Пальцевая дерматоглифика и физические способности. Автореф. Док. дисс. – М.: 2003.
4. Негашева М.А. Морфологическая конституция человека в юношеском периоде онтогенеза (интегральные аспекты). Док. дисс. – М.: 2008.



TA'LIM OLUVCHILAR AQLIY RIVOJLANISHINI ANIQLASHDA PEDAGOGIK TESTLARNING ROLI

S.R.Abdalova, Toshkent viloyati, XTXMOQTM dotsenti. p.f.n.
S.B.Qoraev, Chirchiq davlat pedagogika instituti v.b. dotsenti
I.S.Joldasov, mazkur institut "Tarix" kafedrasida o'qituvchisi

В данной статье речь идёт о качествах и достоинствах человека, определении своего места в жизни, бытие, а также его развитие в процессе образования и воспитания.

Ключевые слова и понятия: проблема, самостоятельность, распорядительность, объективность, жесткость, здоровье, отношение, метод, лидерство, возможность, характер, нормативность, поведение, педагогическая технология, интерактивные методы и др.

This article deals with the qualities and merits of a person, determining his place in life, being, as well as his development in the process of education and upbringing.

Key words and concepts: problem, independence, management, objectivity, rigidity, health, attitude, method, leadership, opportunity, character, normativity, behavior, pedagogical technology, interactive methods.

Insonni xar tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, xalqimizning azaliy orzusi bo'lib ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarni muttasil izlaganlar. Chunki, insonning ma'rifatli va manaviy komillikka erishishi uning hayotda, turmushda, ta'lim-tarbiya olishda o'z o'mini topishi yetakchiligida amalga oshiriladi.

Bu o'z navbatida, bugungi kunda insonning o'zini anglashni, haqiqatni, o'z muammolarini hal eta olishini, qanchalik sabrini, tejamkorligini, ta'sirga beriluvchanligini, o'zida hazil-mutoyiba tuyg'usi borligini, qanchalik mustaqil ekanligini, hassos yoki tadbirkor ekanligini, qanchalik ob'ektiv va kuzatuvchan ekanligini, o'z fe'l-atvorini, qanday psixologik turga mansubligini, o'zini tuta bilishini, odamlar bilan tez chiqishib keta olishini, o'z hukmini o'tkaza olishini, qat'iyatligini, jur'atli yoki jur'atsizligini, o'z mulohazasiga egaligini, izzatlabligini, o'ziga nisbatan ishonchi komilligini, asablari joyidaligini, salomatligini, taqdir zarbalarini qanday yengish mumkinligini, ishbilamlik qobiliyati bor yoki yo'qligini, rahbar muomala va muloqot uslubini, liderligini, qaysi guruh insonlarga kirishligini, shaxsiy ichki imkoniyatini, xarakter tipini, normativ-huquqiy hujjatlarini, pedagogik va axborot texnologiyalarini, interfaol usullar kabilarni bilish kerakligini taqozo etadi.

Bizning tadbirkorlik asrimizda ortiqcha his-hayajonlarga berilish ancha tashvish keltirib, ba'zan odamlarni asabiylashtiradi. Biroq aql bilan hisob-kitob oshirib yuborilsa, inson o'zini iliq do'stona ishtirokdan, bog'lanishdan mahrum qilishi mumkin. Do'stlik, muhabbat borasida hisob-kitoblarning imkoni bormikan? Xo'sh, insonda his-hayajonga berilish kuchlimi yoki hisob-kitobmi? Mazkur savolga maxsus tayyorlangan test orqali javob beriladi.

Ba'zan inson ko'pchilikni yoqtirmaydi, tabiat qo'ynida osoyishta sayr qilishni afzalrok ko'radi, shu bois tanishlari uni zerikarli odam deb hisoblaydi. Aksincha, ba'zan inson anchayin yengil tabiatsiz, odamlar bilan tez chiqishib keta oladi. Lekin ba'zida ma'yus, ba'zan judayam shodon kayfiyatda bo'lib, tez-tez o'zgarib turishi ham mumkin. Ayrim hollarda tanishlari insonni ko'pchilik orasida tengi yo'k deb biladi. Bu inson hazil-mutoyibaga moyil, o'zgalarning kayfiyatini ko'tarishga yordam beradi. Tinimsiz kuldiraverib, qiziqarli voqyealar gapirib bera olishi mumkin. Mazkur testlar asosida inson o'zini tekshirib ko'rishi mumkin. U havola etayotgan fe'l-atvordan o'ziga ko'proq mosini tanlab oladi. Albatta, har doim ham insonni to'g'ri va ob'ektiv baholashning uddasidan chiqib bo'lmaydi. Birinchi taassurot aldamchi bo'ladi deb, bejiz aytishmaydi. Tajribasiz inson ko'pincha faqat his-tuyg'ulariga tayanadi, uni baholash uchun deydik, ruhiyatshunosdan farqli ravishda ob'ektiv mezonlari yo'q. Faqat ayrimlari insonni tamomila ro'yi-rost baholash kabi hahiqatda ajoyib qobiliyatga ega. Insonlarni sub'ektiv baholashda yanglishishlar tufayli turli kelishmovchilik va tushunmovchiliklar ro'y beradi. Tabiiyki, insonni ob'ektiv baholashga o'rganish oson emas. Maxsus tayyorlangan test psixologiya sohasida insonlarni ob'ektiv baholashga imkon beradi.

Kuzatuvchan inson tashqi alomatlariga ko'ra odamlar haqida ko'p narsa aytadi. Sherlok Xolms daholarcha kuzatuvchanlikka ega bo'lgan. Buning uchun alohida ishlab chiqilgan test insonning ushbu san'atni qay darajada egallaganini tekshirishga yordam beradi.

G'arbning mashhur psixologi G.Yungning "Psixologik turlar" ki-

tobida ilk bor ekstravertlar (tashqariga qaratilganlar) va intravertlar (ichkariga qaratilganlar) haqida so'z borgan. Muallifning fikricha, hayotga moslashishning ikki xil varianti mavjud. Ulardan biri - ekspansiya: doimo muloqot qilish, aloqalarni kengaytirish, hayot bergan hamma narsani olishdan iborat. Intravertlar esa, aksincha o'z aloqalarini cheklab, xuddi o'z qobig'iga yashiringandek odamovi bo'ladi. Ushbu yo'nalishga oid testni bajarish bilan insonning qaysi xilga mansubligini bilib olishga harakat qilish mumkin.

Inson haddan tashqari impulsiv bo'lib, xayoliga kelgan hamma narsani oqibatini o'ylamasdan beixtiyor bajarib yuborishi mumkin. Biroq ortiqcha jizzakilik, ta'sirchanlik hamkasblar, qarindoshlar, do'stlari bilan muloqot qilganda jiddiy muammolar keltirishi mumkin.

Ispanlar ishlab chiqqan testga "ha" yoki "yo'q" deb javob berish bilan insonning o'zini tuta bilishidan boxabar bo'ladi.

Ispan psixologlarining testini yechish bilan inson o'zini ro'yi rost baholab, ochiqroq javob berishga urinadi. Bunda insonning hayot tarziga ko'proq muvofiq keladigan javoblar varianti tanlanadi.

Hayotda muvaffaqiyatga erishishni kim orzu qilmaydi? Hoynahoy, har bir inson. Lekin, hamma ham unga yetisholmaydi. Nima uchun? Muvaffaqiyat sari yo'l balki eng qiyindir: yetib borguncha juda ko'p narsani qurbon qilishga to'g'ri kelishi mumkindir. Muvaffaqiyat (nima-da bo'lishidan qat'iy nazar) makkor narsa: yetakchilik uchun har doim baland baho to'lashga, shuhrat mehrobiga barcha bo'sh vaqtingizni, hayotdagi mayda quvonchlarni qo'yib, vaqti kelganida esa, boshqa kishilar bilan to'g'ri munosabatlarni izdan chiqarish, ba'zida hatto do'stlik va muhabbatni ham qurbon qilishga to'g'ri keladi. Bugun faqat katta ke-lajak haqida orzu qilayotgan va o'zini unga hozirlayotganlar o'zlariga: men shuhrat qozonishim uchun nimaning bahridan o'tishim kerak, deb savol bersalar, yomon bo'lmasdi.

O'ziga ishonganlik o'zini baholash bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Inson o'zini mana shu parametrlar bo'yicha baholab ko'rish kerak. Ziddiyatlarni, doimiy yukning ortib ketishlarini "asr kasalligi" deys-hadi. Ko'plar borgan sari asabiyroq, salga jahli chiqib ketadigan bo'lib ketayotganligini sezadi. Kundalik ta'sir etuvchilarni qanday uddalayap-miz? Eng muhim, zaruriy onda o'zimizni qanday bosib olishni eplayap-miz? Maxsus tayyorlangan testga javob berish bilan ushbu savollarga taxminan bo'lsa ham javob olish mumkin. Ushbu test taniqli fransuz mutaxassisi Erik Loro tavsiyasi bilan tuzilgan. U inson vujudini ahvolini o'rganib, uning kuchli va zaif jihatlarini ochish va shu bilan jismoniy qobiliyat haqida xulosa chiqarib, insonga eng maqbul keladigan sport turini tanlash uchun yordam beradi.

Qadimgilar hamma xastaliklar asabdan, deyishardi. Bugun ham shifokorlar buzilgan asab tizimi ko'pgina kasalliklarni chaqiradi yoki avj oldirib yuboradi, deya ta'kidlaydilar. Stresslarning foydali jihatlari ham bo'ladi, albatta haddan tashqari zerikarli, bir maromdagi hayot insonni aqlidan adashtirishi hych gap emas. Hamma gap, ularni qanday yengib o'tish va chegarasi qaerdaligida. Bu, ayniqsa, keksa va hissiyotli kishilar uchun muhimdir. Ijobiy hissiyotlar ham insonni ancha hayajonlantirib, to'liqlantirib yuborishi mumkin. Stress oqibatlarining birinchi belgila-ri: insonlik, bosh og'rig'i, qon bosimi o'ynab turishi.

Inson tadbirkor bo'lishi mumkin, faqat biron bunga juda undasa. Inson o'zicha bunga intilmaydi qulay vaziyat, yetarlicha mablag' va yaqin-



laringiz da'vatigina uni yaxshi tadbirkorga aylantiradi. Ish boshlashdan avval o'sha sohani yaxshi o'rganib chiqib, atrofingizga mutaxassislarni yig'a olish mumkin. Testlarga javob berish bilan, inson tadbirkorlik uchun zarur barcha xislatlarga ega yoki ega emasligini biladi. Maqsad yo'lidan og'ishmaslik, muvaffaqiyatga ishonch va g'ayrat har qanday g'oyani ro'yobga chiqarishga imkon beradi.

Rahbar kadrlar saviyasi, rahbarlik uslubini takomillashtirishda ish o'yinlari, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, pedagogik amaliy masalalar yechish, nizoli vaziyatlarni tahlil qilish, munozara, modellashtirish kabi bevosita faoliyat bilan bog'liq mashg'ulotlar olib boriladi. Bunga oid testlar hozirgi vaqtda keng qo'llanilmoqda. Ularning afzalligi shundaki, bilimlarni oshirish jarayonida ham keng foydalanish mumkin. Ularni mustaqil ravishda yechish jarayonida chuqur tahlil qilib, natijalari bilan o'z bilim, malaka, ko'nikmalar, rahbarlik mahorati va uslubini solishtirib, o'zidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlab, insoniy xislatlarni va rahbarlik uslubiga o'zgartirish kiritish tarzida foydalanish mumkin.

Testlar ta'lim oluvchilar faoliyatini aniqlash va baholashga, ular faoliyatini kelajakda to'g'ri rejalashtirib olishga, o'z bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish yo'llarini tahlil etishga, ta'lim oluvchilarda individuallik, mustaqillik, erkinlik, hamkorlik, ijodkorlik, tadbirkorlik, tashabbuskorlikka oid kompetentlikning shakllanishiga yordam beradi, uning natijalari ta'lim oluvchilar faoliyatini kelajakda yanada takomillashtirishga, hayotda o'z o'rnini topishga va Vatanimiz ravnaqiga qo'shadigan hissalamini oshirishga olib keladi.

Ta'limda qo'llash maqsadi va vazifalariga asoslangan testlar o'z ichiga intellektual rivojlanish darajasini aniqlovchi, pedagogik va muayyan kasbga yaroqlilikni aniqlovchi testlarni oladi. Pedagogik testlar insoniyat tafakkuri erishgan muvaffaqiyatlardan biri bo'lib, ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. U bilimlarni o'zlashtirish sifatini nazorat qilishda ta'lim beruvchilar mehnat unumdorligini oshiradi, o'quv dasturini chuqur va har tomonlama o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Pedagogik testlar afzalliklari quyidagilar: test topshiriqlari o'quv fanining asosiy mazmunini qamrab oladi, barcha ta'lim oluvchilar testning bir xil savollariga javob beradilar, bu ularning bilimlarini taqqoslashga imkon beradi, ular bilimiga haqqoniy baho berish mezonini oshadi, test nazoratida oldindan yaratilgan barcha uchun bir xil bo'lgan shkala yordamida ular bilimiga bir muncha aniq va tabaqalashgan baho qo'yishga imkon beradi, ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar bilimini nazorat qilishga kam vaqt sarflaydi, boshlang'ich darajasini va har qanday vaqt oralig'ida bilimlarni oshirish imkoniyatini o'lchashga sharoit yaratiladi, test nazorati kompyuterlashtirishga qulay, bu pedagogik testlashning asosiy afzalliklaridan biridir, o'quv jarayonining takrorlanuvchanligi ham aynan shunda o'z ifodasini topadi.

Test tuzishdagi eng xarakterli xatolarning tahlili quyidagilar: yopiq test topshiriqlariga taklif qilinayotgan javoblar miqdorining kamligi, testda oddiy, voqyealarning sanalari, atamalar, ism-shariflar, ya'ni faqat eslab qolishni talab etadigan topshiriqlarning ko'pligi, test topshiriqlarining shu fan bo'yicha darslikka o'ta bog'liq qolganligi, testda shu o'quv fani asosiy qoidalarini umumlashiradigan majmualar xarakterdagi topshiriqlarning yo'qligi, taklif qilinadigan javoblarning kattaligi, test topshirig'i shartlarini ta'riflashdagi ko'p so'zlilik, ta'riflashdan ikki xil ma'no chiqishi yoki uning aniqmasligi, topshiriqni noto'g'ri tushunishga olib kelishi mumkin.

Ishlab chiqiladigan test topshiriqlari soni, rejalashtirilgan sondan taxminan ikki-uch marta ko'proq bo'lishi kerak. Bu, bir xil o'quv fani bo'yicha testlarning bir necha turli variantlarini yaratishda zarur bo'ladi. Tajriba ko'rsatishicha, topshiriqlarning taxminan yarmidan ko'prog'i birinchi sinovdan keyin, boshqalaridan esa keyingi chuqur tahlil jarayonida yaroqsiz deb topilishi mumkin.

Fanning mazmunidan kelib chiqadigan test topshiriqlari shakllari quyidagilar: birdan-bir to'g'ri javobi bo'lgan yopiq, bir necha to'g'ri javoblari nazarda tutilgan yopiq, bitta so'z tushirib qoldirilgan gapdan tashkil topgan ochiq, to'g'ri ketma-ketlikni aniqlash, o'zaro bog'lanishni aniqlash, ayrim fanlar bo'yicha bilimlarning chuqurligini aniqlash, sonli to'ldirishga mo'ljallangan, qarama-qarshi munosabatlarni aniqlash, masalalar yechishga qaratilgan, chizmalar va sxemalarni tushunishga qaratilgan, olingan axborotni o'zlashtirish darajasini aniqlash, sinonimlar va antonimlarni aniqlash, o'qilgan matn tushunishga oid, bilimdonlikni aniqlashga doir, tafakkurni aniqlovchi, orfografik va til masalalariga doir.

Test topshiriqlariga qo'yiladigan didaktik talablar quyidagilar: o'quv maqsadiga muvofiqligi, materialning ahamiyatligi, ilmiy aniqlik, izchillik, to'kislik va uyg'unlik, o'zlashtirish darajasiga ko'ra tabaqalanganligi, samaradorlik, vaqtning qat'iy belgilanganligi, ixchamlik, til ravonligi, aniqligi va bir ma'noliligi, murakkablik me'yori, to'g'ri javobda qo'shimcha belgilarning mavjud bo'lmasligi, variativlik, shaklan va mazmunan o'zaro bog'liqlik.

Tuzilgan test topshiriqlarining hammasini ham birdek qo'llashga yaroqli deb bo'lmaydi. Test savollari mukammal bo'lishi uchun, ularni tuzishda bir qancha talablarga amal qilish lozim.

Test topshiriqlarida aks ettirilishi zarur bo'lgan muayyan masalalar: ta'riflay olishni, qonunlar, formulalar, tamoyillarni, masalalar yechishda qonunlar, formulalarni qo'llashni, sxema va grafiklarni o'qishni, apparatlar (texnik moslamalar)ning tuzilishi va ishlatish qoidalarini, EHM qo'llab matematik modellar va eng maqbul hisob-kitob uslublaridan foydalanishni bilish.

Shunday qilib, test topshiriqlari talab etiladigan bilimlar, ko'nikmalarni egallash darajasini to'la-to'kis aniqlashi kerak. Buning uchun test topshiriqlarida aks ettirilishi zarur bo'lgan muayyan masalalar ro'yxati, ya'ni test spetsifikatsiyasi ishlab chiqilishi zarur.

Adabiyotlar

1. M.Mahkamova. O'quv mashg'ulotlarida foydalaniladigan tarbiyalash texnologiyasi. TFI jurnali №3 son 44-46 b.
2. N.Yusupova. O'zingizni bilasizmi? ommabop testlar. – T.: "Davriy press" NMU 2013. -220 b.
3. M.Xolmuxamedov. Ta'lim muassasalarida ochiq o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, o'tkazish va tahlil etish. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand. – 2010. – 15 b.
4. S.Abdalova, S.Qoraev Shaxsning ta'lim-tarbiya sohasidagi o'zini, komillikka erishish, yetakchilik qobiliyatlarini aniqlash yo'llari. Uslubiy qo'llanma. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti 2019. – 189 b.
5. S.Abdalova va b.q. "Interfaol usullardan foydalanib o'tiladigan mashg'ulotlarda ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish". O'quv qo'llanma. "Fan va texnologiya" nashriyoti. 2009. – 120 b.

BOLALAR BILIMINI NAZORAT QILISH XALQARO TADQIQOTI YUZASIDAN TOPSHIRIQLAR TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI

D.T.Aralova, Samarqand shahar 80-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

Эта статья посвящена правильному и эффективному использованию уроков по естественнонаучному чтению и внеклассных мероприятий при подготовке учащихся начальной школы к международным исследованиям.

Ключевые слова и понятия: исследование, PISA, PIRLS, TIMSS, свободное мышление, логическое мышление.

This article focuses on the correct and effective use of science reading lessons and extracurricular activities in preparing elementary school students for international studies.

Key words and concepts: research, PISA, PIRLS, TIMSS, free thinking, logical thinking.

O'zbekiston Respublikasi umumta'lim muassasalarining ta'lim oluvchi yoshlari 2021-yildan boshlab xalqaro baholash tizimi tadqiqotlarda ishtirok etadi. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalq

ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori qabul qilindi. Unga asosan 9-sinf o'quvchilari PISA, boshlang'ich sinf o'quvchi-



lari PIRLS, 4-, 8-sinf o'quvchilari TIMSS xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishi va bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalari belgilandi. Boshlang'ich sinfda PIRLS tadqiqotiga tayyorgarlik uchun alohida o'quv soatlari ajratilmaganligi va metodik qo'llanmalar yetarli emasligini hisobga olgan holda, imkon qadar o'qish fanida va sinfdan tashqari o'qish uchun ajratilgan soatlardan unumli foydalanish zarur deb hisoblayman. Bunda o'qituvchidan ziyarlik va aql bilan matnga savol va topshiriqlar qo'ya olish, savol qo'yganda ham o'quvchini mantiqiy va erkin fikrlashga undaydigan savol, topshiriqlar qo'yishi darkor. Bunda har bir fan o'qituvchisi bunday ravishdagi matnlarni o'zlarida tuzishi kerak. Hozirda darslarning onlayn ravishda olib borilishi sababli "O'qiyamiz va fikrlaymiz" kabi to'garaklarning tashkil etilishi hamda unda o'quvchilarning o'qigan kitoblari yuzasidan fikrlarini videorolik qilib boshqalar bilan o'rtoqlashishi ko'zda tutiladi. Bunday mashg'ulotlar ham o'quvchilarni keng va erkin fikrlashga undaydi.

Quyida 4-sinf o'qish kitobidagi Mirkarim Osimning "Kitobga ixlos" matni asosida topshiriqlardan tayyorlangan misollar keltiramiz:

1. Bu voqyealarni kim hikoya qilyapti?

- a) Ibn Sino so'zlab beryapti.
- b) Xalq tilidan yozib olingan.
- d) Muallif tomonidan aytilgan. Javob: d)

2. Qorabug'roxon shaharni ishg'ol qilishda unga nima qo'l keladi?

Asosiy sababini ko'rsating.

- a) Buxoro aholisining tarqoqligi.
- b) Qorabug'roxonning askarlariga bozorni berishi.
- d) Buxoroning doimiy qo'shidan ajralgani, ko'chmanchilar tomonidan bosib olinishi. Javob: d)

3. Qorabug'roxon Buxoroni bosib olgandan so'ng qanday voqealar yuz berdi, shulardan birini yozing.

Javob: Qorabug'roxon shaharni ishg'ol qilib, boyliklarni qo'lga kiritdi, o'z askarlariga bozorni talatdi; ko'p imoratlarga o't tushib ketdi, achchiq tutun shaharni o'rab oldi.

4. Ibn Sino yong'inni ko'rib qolishidagi ilk belgilarni ketma-ketlikda yozing

- b) Ibn Sino uyqusini qochiradigan dorisini ichib hovliga tushganida;
- a) Hulkar yulduzini qaerga kelganini bilmochi bo'lganida;
- s) Registon tomoning qizarib, osmonga uchqun sachrab turganini sezganida;
- d) Osmonga uchqun sachrab turganida ko'rib qoladi;
- ye) O'qtin-o'qtin olovning qip-qizil tillari qorong'u osmonni yalar, uzoqdan qiy-chuv ovozlari eshitilardi;

Ibn Sino nima uchun hujraga o'zini urdi?, Ibn Sino qanday qilib hamma e'tirof yetgan buyuk tabibga aylandi?, Kitobga ixlos qilish Ibn Sinoning hayotida qanday ahamiyatga ega bo'ldi?, Ibn Sinoni yevropada Avitsenna deb atashganini nima uchun o'zi bilmaganini izohlang? Ushbu hikoyaning asosiy g'oyasi nima? kabi savollarning berilishi o'quvchilarni maktab darsliklaridagi matnlar bilan ishlashga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning bilimni xalqaro baholash tizimi va unda ishtirok etish O'zbekistonga boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida o'qish qobiliyatlarini darajasini mustaqil ravishda ob'ektiv baholash imkonini beradi. Bundan tashqari, Respublikamiz ta'limining ochiqligi va integratsiyalashuvi dunyoning yetakchi ta'lim tizimlarining xalqaro hamjamiyatiga integratsiyalashuvini ta'minlaydi.

Adabiyotlar

1. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabr kuni qabul qilingan "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori.
2. S.Matchonov va b. O'qish. 4-sinf uchun darslik. – T.: "O'qituvchi" 2017.
3. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash."Sharq" – 2019.
4. Rabbonaeva D. PIRLS tadqiqotlari uchun topshiriqlar to'plami. O'quv-uslubiy qo'llanma .Samarqand XTXQTMOHM.

BOLALARNI BOSHLANG'ICH TA'LIMIGA TAYYORLASHNI TASHKIL ETISH ASOSLARI

G.N.Sharipova, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi, MTMRMOTMOI katta o'qituvchisi

В данной статье описаны организация подготовительных групп к начальному образованию в дошкольных образовательных организациях, планирование деятельности подготовительных групп, роль сотрудничества в подготовке детей к школьному обучению, эффективные пути и средства организации жизни детей в подготовительных группах.

Ключевые слова и понятия: дошкольное учреждение, начальное образование, подготовительная группа, образование-воспитание, воспитанники, планирование, организация, сотрудничество, адаптация, социализация.

This article describes the organization of preparatory groups for primary education in preschool educational organizations, planning the activities of preparatory groups, the role of cooperation in preparing children for school education, effective ways and means of organizing the life of children in preparatory groups.

Key words and concepts: preschool, primary education, preparatory group, education and upbringing, pupils, support, organization, cooperation, adaptation, socialization.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq jamiyatning barcha sohalarni qamrab olgan siyosiy va iqtisodiy tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. Ta'lim sohasida, jumladan uning birinchi pog'onasi hisoblanmish maktabgacha ta'lim sohasida ham katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Istiqloq yillarida mamlakatimizda ta'lim muassasalarini faoliyatini me'yoriylashtiruvchi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim to'g'risida»gi Nizom, «Maktabgacha yoshdagi bolalarni ta'lim-tarbiyasiga qo'yilgan davlat talablari», "Ilk qadam" Davlat dasturi kabi muhim davlat hujjatlari qabul qilindi. Respublikamizda maktabgacha yoshdagi bolalarni MTTlariga qamrab olish borasida keng ko'lami ishlar amalga oshirilmog'da. Shular qatorida 2018 yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 999-sonli qarori, 2020 yil 9 mart kuni qabul qilingan "Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 132-sonli qarorlarining qabul qilinishi ham bolalarni to'laqonli maktabgacha ta'lim bilan ta'minlashning yangi yo'nalishini ochib berdi. 2018-2019 o'quv yilida Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumanida, Fargona viloyatining Furqat tumani va

Quvasoy shahrida hamda Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek, Mirobod, Bektemir, Uchtepa, Yashnobod, Chilonzor, Yunusobod va Shayxontohur tumanlarida bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bepul bir yillik tayyorlash tizimi tajriba-sinov 494 ta guruhida 11 103 nafar bola ishtirokida muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 mart kuni qabul qilingan "Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 132-sonli qarorida kelgusida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil qilinadigan boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhlarining kelgusidagi faoliyat yo'nalishlari aniqlab berildi.

Har bir faoliyatni amalga oshirishdan oldin mazkur faoliyat bo'yicha aniq rejalar ishlab chiqiladi. Ishlab chiqilgan reja asosida har bir MTT boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhlarini tashkil etish bo'yicha faoliyat yo'nalishlarini tashkillashtiradi. Rejalar aniq, mazmunli bo'lsa va og'ishmay amalga oshirib borilsa, birgalikdagi ishlar bo'yicha istalgan natijalarga, muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Bu esa bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda, ularning maktabda qiynalmay o'qib ketishlarida yaxshi samara beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti boshlang'ich ta'limga tayyorlash guruhlari faoliyatini rejalashtirishda MTTda ta'lim-tarbiya jarayonining



davlat talablariga muvofiq tashkil etilganligi, tarbiyalanuvchilarning ta'lim-tarbiya dasturlarini o'zlashtirishida tarbiyachi-pedagog kadrlar salohiyati, ijro intizomi, me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ishlashning ahvoli, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moddiy texnik bazasi holati, milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarini aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o'qishga qiziqishni uyg'otuvchi o'quv-metodik, didaktik materiallar, o'yin va o'yinchoqlar va badiiy adabiyotlar bilan ta'minlanganligi, byudjetdan tashqari ishlab topilgan va qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa manbalardan olingan mablag'lar va ularning maqsadli sarflanishi, shuningdek, MTT faoliyatiga beriladigan jamoatchilik fikri hisobga olinishi kerak. Shuningdek, boshlang'ich ta'limga tayyorlashni tashkil etish bo'yicha tuzilgan rejada faoliyat vazifasi, mazmuni, ish shakllari, vaqti, bajarish uchun javobgar shaxslar ko'rsatilishi lozim.

Boshlang'ich ta'limga tayyorlash guruhlari maktabgacha ta'lim tashkiloti hududining demografik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi.

Majburiy boshlang'ich ta'limga maktabgacha ta'lim tashkilotiga bormaydigan, shu yilning sentyabr oyida olti yoshga to'lgan bolalar jalb qilinadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari maktabgacha yoshdagi bolalarni operativ ravishda hisobga olish uchun shakllar, muddatlari, mas'ul kishilar belgilanadi. Vasiylik ostidagi bolalar bilan ishlash, meditsina nazorati, bemor bolalar bilan ishlash, ularni olib kelish rejalashtiriladi. Ota-onalar, jamoa tashkilotlarini jalb etib, bolalar bilan hamkorlikda qilinadigan ishlar belgilanadi, o'zlashtirishi qiyin bolalarga yordam qilish yo'llari o'ylab chiqiladi, maktabgacha ta'lim bo'yicha jamoalar bilan aloqada bo'lish ko'rsatiladi. Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhlari bolalarni qabul qilish maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarining buyrug'i asosida amalga oshiriladi.

6-7 yoshli bolaning maktab ta'limiga tayyorligini aniqlashda maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchilar asosiy shart hisoblanmish – bolaning maktabga tayyorligi maktabgacha va maktab davridagi hayot tarzi hamda faoliyati uchun ko'prik vazifasini o'tashini, oila yoki MTTdagi ta'lim-tarbiya sharoitlarida maktab ta'limiga moslashuvi, ijtimoiylashuvini ta'minlash zarurligini hisobga olishlari lozim. Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabatlarida anchayin jiddiy o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bolani MTTda maktab ta'limiga tayyorlash, ijtimoiylashuviga ko'maklashish, boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhlari "Ilk qadam" davlat dasturi asosida ta'lim-tarbiya berish bolalarning jamiyatga o'z o'rinlarini topishlariga yordam beradi.

Maktabgacha pedagogika sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ko'rsatishicha, boshlang'ich ta'limga tayyorlash guruhi tarbiyalanuvchilar hayotini tashkil etishning quyidagi tamoyillari ishlab chiqilgan:

1. Har bir yosh guruhida bolalarni jamoatchilik ruhida tarbiyalash va ularning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan bir xil shart-sharoitlar yaratish.

2. Bolalarni guruhlariga taqsimlashda har bir guruhga faqat bir xil yoshdagi bolalarni tanlash va shunga qarab ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.

3. Bolalarning har xil faoliyat bilan shug'ullanishlari va bir-birlari bilan muloqotga kirisha olishlari uchun zarur bo'lgan moddiy muhitni

yaratish. Buning uchun guruh xonasi va maydonchani gigienik, pedagogik, estetik talablar darajasida kerakli asbob-anjomlar bilan ta'minlash.

4. Bolalarning yoshiga mos kun tartibiga rioya qilish va uning barqarorligini ta'minlash.

5. Bolalar shaxsini shakllantiradigan faoliyat turlarini tashkil etish va bu faoliyatlar uchun kun tartibidan ma'lum vaqt ajratish. Bolalarning har xil faoliyatlarini ilmiy asoslangan tamoyillar asosida almashtirib borish bolalar bog'chasining har xil yosh guruhlari bolalar hayotini to'g'ri tashkil etishni ta'minlaydi.

Bolalarni majburiy boshlang'ich ta'limga qamrab olishda Maktabgacha ta'lim tashkilotlari mahalliy hokimiyat, mahalla fuqarolar yig'ini, Sog'liqni saqlash hududiy muassasalari, umumta'lim maktablari bilan hamkorlikda ish olib borishlari lozim.

Ta'limda uzluksizlik va uzviylik muammosi har doim eng dolzarb va muhim masalalardan biri bo'lib kelgan. Maktabgacha ta'limda uzluksizlik bu tajriba va to'plangan bilimlar asosida bola shaxsini to'laqonli shakllantirishga qaratilgan, uning jismoniy va ruhiy jihatdan maktabgacha ta'limdan maktab ta'limiga tayyorlash bosqichidir.

Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash zamonaviy bosqichda MTT uchun psixologik-pedagogik muammodan ulkan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan vazifaga aylandi. Mazkur murakkab va mas'uliyatli vazifani bajarishda MTT pedagoglari va ota-onalar muhim rol o'ynaydilar. Bola maktabga chiqishi bilan uning hayoti yangi bosqichga ko'tariladi, o'yin faoliyati o'qish faoliyatiga almashadi. Yangi muhitga moslashish jarayoni boladan anchagina ruhiy va jismoniy ko'nikmalarni talab qiladi. Bu jarayonda bolaning ta'lim jarayonida muvafaqqiyatga erishishi asosan, uning maktab ta'limiga psixologik va ongli tayyorligiga bog'liq bo'ladi. Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, o'qituvchilar, ota-onalar va tarbiyachilar o'rtasidagi hamkorlik yaxshi o'rnatilgan, o'zaro tajriba almashish tashkil etilgan, MTT faoliyati doimiy tahlil qilinadigan taqdirdagina bolalarni boshlang'ich ta'limga tayyorlash darajasi ancha yuqori va boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining faoliyati samaradorligi yuqori bo'ladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2012 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 391-son qarori. – T.: 2019 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 132-sonli qarori. – T.: 2020 y.
4. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: "Ma'naviyat", 2008 y.
5. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". – T.: O'zbekiston, 2016 y.
6. Корзникова Г.Г. Менеджмент в образовании. Практический курс. – М.: "Академия", 2008 г.
7. Поздняк Л.В., Лященко Н.Н. «Управление дошкольным образованием». – М.: «Академия», 2001 г.

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKANI O'QITISHDA FANLARARO BOG'LIQLIK

N.K.Razokova, Chirchiq davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

В этой статье мы остановимся на одном из самых актуальных вопросов на данный момент. Мы попытались показать связь математики с другими науками на примерах и задачах. При формировании выпускников общеобразовательных средних школ как зрелых, ответственных и трудолюбивых людей идея заключалась в том, чтобы математика была связана с другими дисциплинами и чтобы они имели возможность самостоятельно работать с книгами.

Ключевые слова и понятия: математическое образование, интеграции предметов, физика и математика, наука и техника, проценты, пропорции, уравнения.

In this article we will focus on one of the most pressing issues at the moment. We tried to show the connection between mathematics and other sciences by examples and problems. In shaping the graduates of general education secondary schools as mature, responsible and hardworking people, the idea was for mathematics to be linked to other disciplines and to be able to independently work with books.

Key words and concepts: mathematical education, integration of subjects, physics and mathematics, science and technology, percentages, proportions, equations.



Ushbu maqola O'zbekiston respublikasi prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PQ-4947-son "O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonida va 2019 yil 9 iyuldagi PQ-4387-son "Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, O'zbekiston respublikasi fanlar akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020 yil 7 maydagi PQ-4708-son "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida belgilangan topshiriqlarning ijrosini ta'minlashga muayyan darajada xizmat qiladi.

Hozirgi kunda jahonda umumiy o'rta ta'lim maktablarida matematikani o'qitishda fanlarni bir-biriga bog'lagan holda dars jarayonlarini tashkil etish hamda matematika fanini o'qitish qonuniyatlarini o'rganish jarayonida pedagogika, mantiq, psixologiya, lingvistika, falsafa, kibernetika fanlar bilan uzviy aloqada bo'lib, o'quv jarayoniga tatbiq etish qonuniyatlarini o'rganish jarayonida fizika, chizmachilik, kimyo va astronomiya kabi fanlar bilan uzviy aloqada bo'ladi [2].

Respublikamizda umumta'lim maktablarida matematikaning boshqa fanlar bilan aloqasi dastur asosida ta'minlangan deyaish mumkin. Buni har bir darsni ko'zdan kechirganda ko'rish mumkin. Masalan, VI sinf matematikasida fizikaga kerakli paralelloped, uning yuzi va hajmi, V sinf arifmetika kursida bir necha funksiyalarning xossalari va grafiklarini qaralgan bo'lsa, ulardagi o'zgarishlarni esa VII sinfda oladilar. Matematika fanida beriladigan bilimlar mehnat darsida hisob - kitoblarini belgilashda va andoza chizishda keng qo'llaniladi. Lekin shu bilan bir qatorda o'quvchilar matematik bilimlar bilan fizika, astronomiya, chizmachilik, kimyo va boshqa tabiiy fanlarni o'rganishda tanishadilar.

Maktabda matematikaning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi asosiy masala bo'lib kelgan. Hozirda ham bunga asosiy etibor jalb qilinmoqda. Shu maqsadda bunga asosiy dastur ishlab chiqilmoqda.

Dasturda quyidagi yozuvlar keltirilgan: "matematika - matematikadan foydalanuvchi fanlarga yordam berib, ularda hosil bo'lgan savollarga javob beradi. Odatda matematik tushunchalar, xossalari, teoremlar ketma-ketlikda fanlarning ma'lum bir bo'limlarida ishlatiladi. Masalan, mehnat, biologiya, fizika, kimyo va geografiyani boshlang'ich qismlarida".

Darsliklar haqida fikr yuritsak, VII sinfda o'rganiladigan geometrik yasashlarning teoremlari keyinchalik chizmachilikda, tenglamalar, proporsionallik, funksiyalar, hosilalar fizika fanida qo'llaniladi.

Tenglamalarni o'rganish holatida miqdorlar orasidagi bog'liqlikni yechish kerak. Misol uchun: issiqlik miqdori tenglamalari, temperatura ta'siri natijasida jismning kengayishi tenglamalarida va boshqalarda.

Fizika va matematikaning o'zaro aloqadorligini harakatga oid ba'zi masalalarda ham ko'rishimiz mumkin:

1. Poyezd 4 soatda 216 km yo'l yuradi. Uning tezligini toping. Poyezd shunday tezlik bilan 10 soatda necha kilometr yo'l yuradi.

2. Mustaqil vatanimiz O'zbekistonning hududi 448,9 ming kv. km. Tog'lar va tog' oldi yerlar respublika hududining taxminan 20% ini tashkil qiladi. Tog'lar va tog' oldi yerlar necha ming kvadrat kilometr dan iborat.

Kimyo masalalarida esa matematikaning protsent, proporsiya tenglamalar va boshqa bo'limlari ishlatilishini ko'rish mumkin. Misol uchun:

1. Qotishma kumush va misdan iborat. Qotishmaning 40%i mis bo'lib, mis qo'rg'oshindan 4 kg kam. Qotishmada qancha qo'rg'oshin bor.

2. Massasi 400 g va konsentratsiyasi 8% bo'lgan eritma massasi 600 g va konsentratsiyasi 13% bo'lgan eritma bilan aralashtirildi.

Hosil bo'lgan aralashmaning konsentratsiyasini toping? [3]

Shu kabi masalarni juda ko'p uchratish mumkin. Bu bog'lanishlar o'quvchining tafakkurini kengaytiradi. Matematik bilimlar ularda yaratuvchanlikni shakllantirishi lozim. O'quvchilarga matematikani shunday o'rgatish kerakki, ular hayotda matematikani ko'rsin va amaliyotda qo'llay olsin [2].

Matematikani amaliyotga joriy qilish, ma'lum bir ajratishlarga ega bo'lishi kerak emas. Balki, har bir mavzu ichiga to'liq kirish kerak.

Buni to'liq ko'rib chiqamiz:

1. Masalalar matematik qoidalarga mos tushishi va unga asosan amalga oshirilishi lozim.

Afsuski, hamma mualliflar ham misolda bu qoidalarga amal qilishmaydi. Bir nechta misollar keltiramiz:

a) Non tayyorlash uchun 48 kg un va unning 1/8 qismicha kepek olindi. Bundan qancha non tayyorlangan, agar har bir nonning og'irligi 150 g bo'lsa, ma'lumki, kepek 35% ga teng balki 1/8 emas.

b) Dehqon bozorga sotish uchun 450 kg 100 g bodring olib keldi.

Bu yerda 100 g ni etiborga olmasa ham bo'ladi.

c) Idishga 1280*1/8 l suv ketadi. Aniqki 1/8 idish uchun ahamiyatsiz.

Bu masalalar mualliflar uchun matematik munosabatlarni to'liq anglashga yordam beradi. Masalaning hayotiyligi esa bu yerda ahamiyatga olinmaydi.

2. Matematik munosabatda har qanday masala amaliyot bilan bog'langan bo'lishi zarur:

Sterjen uzunligi $L=1500$ mm bo'lib u 2 xil po'latdan yasalgan: MX18H97 koeffitsentli po'latning cho'zilishi $L_1=17*10^{-6}$ va 20 koeffitsentli po'latning cho'zilishi $L_2=12.1*10^{-6}$. Shunday u trubkada ko'rinmadi. Shunda boshqacha ish ko'rdilar: sterjenni temperaturasi $t=200^0$ C qizdiriladi va uning cho'zilish temperaturasi o'lchanadi. O'chirilgani $\Delta L = 0,58$ mm teng chiqadi. Berilganlarga asosan sterjen uzunligini aniqlash kerak.

Masalaning matematik jihati $\begin{cases} x + y = L \\ a_1 tx + a_2 ty = \Delta L \end{cases}$ bunda $t=200^0$ C. Biz o'ylaymizki o'quvchi bu masalani tushunishga harakat qiladi, bu vaqtda berilgan masala matematik munosabatda qiymati yuqori emas.

Biz texnik terminlarga e'tiroz bildirmaymiz, lekin maktabda MX18H97 marka o'quvchiga aytilmaydi. Chunki, bu ortiqcha terminlar o'quvchlarni chalg'itadi.

3. Masala o'quvchilar uchun qiziqarli, fikrlatuvchi va tushunarli bo'lishi kerak. Ijtimoiy-iqtisodiy mavzuga oid masalalar har doim o'quvchilar uchun qiziqarli va juda muhim tarbiyalovchi masala hisoblanadi. Agar kelajakda bular kerakli bo'lmasa ularga e'tibor qaratish shart emas, chunki ma'lumotlar eskiradi. Masalan, 2010 - yilda don olsak, uning hosilini oxirgi vaqtda olingan natijasi bilan solishtirish zarur.

Hayotiy masalalar o'quvchilarga foydali ma'lumotlar berishi lozim.

Bir necha misollar keltiramiz:

1) 1 tonna bug'doydan yorma, non tayyorlash va oziq ovqat mahsulotlari olish mumkin. Bunda ularning miqdori 45:95:60 kg ni tashkil qiladi. 1 tonna bug'doydan qanchadan yorma, non tayyorlash va oziq ovqat mahsulotlari olish mumkin.

2) Ikki xonali xoll va oshxonasi ham bor xonadon yuzasi va hajmini aniqlaylik, bunda ikki xonalar birinchisi 3 m ga 5,8 m, ikkinchisi 2,4 m ga 4,2 m va oshxona 2m ga 1,8 m, xoll uzunligi 3.5 m ga 1.2 m vanna va oshxona 8 m kv kvartira balandligi 2.6 m.

3) Tez yurar poyezd Toshkentdan 14:38 da chiqib, 04:57 da Xorazimga yetib keladi. Toshkent va Xorazm orasi 953.4 km. Poyezdning o'rtacha tezligini toping.

a) Poyezd Samarqandda 12 daqiqa, Buxoroda 15 daqiqa, Navoiyda 13 daqiqa to'xtaydi. Poyezd o'rtacha tezligini hisobga olmaganda holda hisoblang.



Eslatma: Berilgan masalada bekatlarni etiborga olmaslik kerak bu o'quvchini chalg'itadi. Faqat bekat 40 daqiqa ekannini ko'rsatish yetarli.

4) Tezyurar poyezd Toshkent va Xorazm yo'lida mustahkamligini, elektrovozning yuqoriligini hisobga olib, tezlik $\frac{km}{soat}$ ga tezlashdi. Bunda vaqt 2 soatu 10 daqiqa qisqardi, boshlang'ich tezlikni hisoblang.

Berilgan masalaning oddiy masaladan ustunligi shundaki: "poyezd A punktadan B punktga boradi va boshqalar, o'quvchilar shaharlar orasidagi masofa bilan poyez vaqti va tezligi bilan" tanishadilar.

4) Maktabda matematikaga oid jadval hisoblash chizig'i muhim o'rin tutadi.

Grafikdan foydalanishni to'liq o'rganmasdan uni o'rganishni to'xtatmaslik kerak.

Hisoblash uchun grafikdan foydalanishni kichik sinflarda ham ko'rsatish mumkin, buni keyinroq asoslash mumkin. Misol uchun:

$$1) \text{ Proporsiyadagi noma'lumni toping } \frac{4,5}{2,1} = \frac{x}{3,5}$$


Yechish: To'g'ri burchakli koordinatali sistemasini olamiz (1-rasm). Mashtabi 1 sm bo'lsin. OA=2,1 sm, OB=4,5 sm, OC=3,5 smni belgilaymiz.

A va B nuqtalarni birlashtirib C nuqtadan AB kesmaga CD parallel chiziq o'tkazamiz. OD kesma uzunligi izlanayotgan proporsiya hadi bo'ladi.


Uchburchak AOB va uchburchak OCD o'xshash. Bundan $\frac{OD}{OB} = \frac{OC}{OA}$;

$$x = OD = \frac{OC \cdot OB}{OA} = \frac{4,5 \cdot 3,5}{2,1} = 7,5$$

To'rtinchi proporsional hadni qanday qilib protsent masalasi bilan alamshtirish mumkinligini ko'ramiz.



1-rasm



2-rasm

a) sonni (a=8) dan p% ni topamiz. To'g'ri burchakli koordinatalar sistemasini olamiz. OX o'qida foizni, OY o'qida

sonni hosil qilamiz (mashtabni har xil olish mumkin, masalan 1=1mm, OY o'qida 1=1sm) OX o'qida OC=p, OD=100, OY o'qida OA=a deb belgilaymiz.


A va D nuqtalarni birlashtiramiz C nuqtadan AD ga parallel BC to'g'ri chiziqni o'tkazamiz (2 rasm).

OB kesma uzunligi p% ga teng, a sonidan. Haqiqatdan OBC uchburchak va OAD uchburchak o'xshash, bundan quyidagi proporsiya kelib chiqadi. $\frac{OB}{OC} = \frac{OA}{OD}$;

$$OB = \frac{OC \cdot OA}{OD} = \frac{1 \cdot a}{100} = 1.6$$

b) a sonni toping, agar p% (p=25%) b songa tenglashsa.

Yechish: OX o'qida protsent (mashtabi 1=1 mm) OY da sonni belgilaymiz. Kesma OC=p, OD=100 va OB=b ni ifodalaymiz (3 rasm).



3-rasm

C va B nuqtalarni birlashtiramiz A nuqtadan BC ga parallel AD to'g'ri chiziqni o'tkazamiz.

OA kesma uzunligi a ga, va p protsentni b ga tenglaymiz. OBC uchburchak va OAD uchburchak o'xshash, bundan quyidagi proporsiya kelib chiqadi. Bundan

$$OA = \frac{OD \cdot OB}{OC} = \frac{100 \cdot b}{p} = \frac{100 \cdot 2}{25} = 8$$

A nuqtadan BD //AC ni o'tkazamiz. OC kesma uzunligi a va b protsentida tenglashtiramiz.

Haqiqatdan ham $\triangle OCA \sim \triangle OBD$ bo'lib, $\frac{OA}{OC} = \frac{OB}{OD}$ bo'ladi.

Matematika fanining taraqqiyoti va rivojlanishiga dialektik nuqtai nazardan qaraladi. Bu qarash hodisaning mohiyatini to'g'ri va chuqurroq ochib beradi. Maktab kursida matematik taraqqiyotning bu ko'rinishi darslik materialini o'rganishni talab etadi. Masalan, geometriyada alohida figuralarning xossalari o'zgarishida, algebrada esa funksiya xossalari har xil o'zgarishlarda o'rganiladi. Shuningdek, ularni hayotiy masalalarning fanlar bilan bog'liqligida ko'rishimiz mumkin.

Demak, matematikani boshqa fanlar bilan aloqasini ko'rsatish orqali o'quvchilarning unga bo'lgan qiziqishlarini ortishiga sababchi bo'lamiz.

Adabiyotlar

1. M.Tojiyev, M.Barakayev, A.Xurramov "Matematika o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanma. – T.: – 2017. 23 b.
2. М.П.Перова Методика преподавания математики в коррекционной школе: Учебное пособие. М.П.Перова. – М.: Высшая школа. – 2005. 423 с.
3. М.Я.Выгодский "Справочник по элементарной математике". – М.: – 1976. 80 с.



UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA AKMEOLOGIK YONDASHUVDAN FOYDALANISH

G.O.Ernazarova, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti "Pedagogika va menejment" kafedrasini professori

В статье подчеркивается сущность применения акмеологического подхода и его организационной структуры, совершенствование подготовки учащихся к профессиональной деятельности по основам акмеологического подхода, развитие личности в обучении.

Ключевые слова и понятия: акмеологический подход, акмеологическая среда, акмеологический режим, акмеологическая позиция педагога, творчество, саморазвития, самоуправление.

The article emphasizes the essence of the application of the acmeological approach and its organizational structure, improving the preparation of students for professional activities on the basis of the acmeological approach, personality development in learning.

Key words and concepts: acmeological approach, acmeological environment, acmeological regime, teacher's acmeological position, creativity, self-development, self-government.

Ma'lumki, pedagogika va falsafa fanlari insonning ijtimoiy rivojlanishi faqat barcha ta'lim muassasalarining bir butun ijtimoiy buyurtmaga asoslanishi haqida ma'lumot beradi. Uzluksiz ta'lim jarayoni shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan.

Insonning shaxs, individ, faoliyat sub'ekti sifatida shakllanishida muhim ijobiy holatlarni belgilash mumkin:

- yosh avlodning jismoniy sog'lomligi ta'minlanadi;
- ta'lim orqali har bir insonga tabiat, jamiyat, inson o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik haqidagi bilimlar beriladi, ushbu bilimlarni amaliyotda butun umri davomida o'rnatish ko'nikma va malakalari shakllantiriladi;
- tarbiya orqali yoshlarda o'z-o'ziga, jamiyatga, o'z yurtiga, mehnatga, boshqa insonlarga bo'lgan munosabatlari, milliy g'oya va mafkura, iftixor tuyg'ulari, komil inson sifatini shakllantiriladi.

Uzluksiz ta'limda shaxs mentaliteti, intellekti va tafakkurini rivojlantirishni yechish mumkin.

Bugungi kunda falsafa, sotsiologiya, psixologiya, pedagogikada shaxsni rivojlantirish va tarbiya tizimini takomillashtirish, uzluksiz ta'lim jarayonini rivojlantirish shakli, yangi samarali o'qitish metodlari, shakl, vositalari haqida ko'p fikr yuritilmoqda. Bu o'rinda pedagoglar akmeologiyaga – insonni o'z taraqqiyoti dinamikasida, takomili hamda hayot faoliyatining turli bosqichlarida o'zidagi eng kuchli qobiliyatlarini namoyon qilishning kompleks masalalarini o'rganadigan fan tarmog'i [3] sifatida e'tibor qaratadi.

Akmeologiya atamasi, evriologiya (P.Engelmeyer), ergonologiya (V.Myasishchev), refleksologiya (V.Bexterev) kabi sohalar singari ilmiy-amaliy bilimlarga ega bo'lib, o'tgan asrning 20-yillarida paydo bo'lgan [1,2].

Akmeizm sifatida N.Gumilev, S.Gorodetskiy, A.Axmatova va boshqalarning asarlarida XX asr boshlarida ijtimoiy-madaniy akmeologiya paydo bo'lgan edi. Ijodiy faoliyat yosh davrlari qonuniyatlarini tomonidan va F.Galton va V.Osvaldolarning turli psixobiologik omillar mahsuldorligi bilan bog'liqligini o'rganishga oid tabiiy-ilmiy tadqiqotlari akmeologiyaning kelib chiqishiga olib kelgan.

B.G.Anevnin fikricha, akmeologiyaning ilmiy asosi, insonning rivojlanishida individ, shaxs, individuallik va sub'ektning hayot faoliyati haqidagi fanlar integratsiyasidan tashkil topgan.

Akmeologiyada odam kasbiy faoliyat va o'z hayotini o'zi belgilash, o'z-o'zini rivojlantirish va ijodkorlik qobiliyati, inson hayot faoliyatida sub'ekt sifatida qarab chiqiladi [5,6].

O'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini boshqarish asosida insonning yangi muvaffaqiyatlarga erishish ehtiyoji, takomillashish, faol hayot tarafdori bo'lish, ezu fikrlash o'z imkoniyatlariga ishonish, hayot mazmunini tushunish yotadi. Shaxsning rivojlanishi uning ona bag'ri, maktabgacha bolalik davri, boshlang'ich sinf, o'smirlilik va o'spirinlik davridagi uzluksiz ta'lim-tarbiya va shart-sharoitlar bilan uzviy bog'liq. Ushbu davrlarda uning salomatligi qanday bo'lishi, nimalar u uchun qadri bo'lishi, uning xususiy baholanishi, insonlarga va mehnatga munosabati, xatti-harakatlari va boshqalar uning kelajakda qanday sifatidagi kasb egasi bo'lishini aniqlab boradi.

Uzluksiz ta'lim jarayonining mahsuldor ijtimoiy-pedagogik tizimida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining yaxlit va munosib rivojlanishini ta'minlash maqsadida, kasbiy ta'limga akmeologik yondashuvni qo'llash asosida ta'lim sifatini oshirish mumkin.

Insonning ilk o'smirlilik va o'spirinlik davrida yaxlit rivojlanishning integral sifat ko'rsatkichlari sifatida, ta'lim muassasasi bitiruvchisini ontoge-

nez va sotsiogenez jarayonlari o'zaro ta'sir shart-sharoitlari ijtimoiy yetuklikka erishishiga olib keladi [2,3].

Akmeologik yondashuv esa quyidagilardan tashkil topgan:

- ilk o'smirlilik va o'spirinlik davridagi ta'lim oluvchining borliq bilan munosabati va yaxlit fenomen sifatida haqqoniy aloqalarini o'rganish;
- har bir ta'lim oluvchini hayotiy cho'qqilarga erishishini mo'ljallashda, shaxsning o'zini shaxsiy sifatlarini takomillashtirishga, muvaffaqiyatga, madaniy rivojlanish yetukligiga va o'z-o'zini rivojlantirish jarayonidagi sifatlar, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini anglash asosida ma'naviy-axloqiy sifatlariga erishishga intilishi;
- yaratuvchilik, ijodkorlik faoliyatini tashkil etishda, qiziqarli va mahsuldor, har bir o'quvchining qobiliyatini ochib beruvchi va uning muvaffaqiyatlarini ta'minlovchi, ijtimoiy tan olinish, o'z yetukligini his etish, ijodiy guruhlarda kommunikativ hamkorlik qila olishni tashkil etish va boshqalar.

Akmeologik yondashuvdan foydalanish:

- ta'lim oluvchilarning sog'lig'ini mustahkamlash va saqlash, to'g'ri kasb tanlash va uni muvaffaqiyatli egallashga erishish, ijtimoiy va mehnat faoliyatiga tayyorlanish rivoji, ta'lim va tarbiya masalalarini muvaffaqiyatli hal etish;

- qayta fikrlash, ijodiy tafakkur qilish, ta'lim ichki ehtiyojga aylanishi, barcha sub'ektlarda ta'lim tizimlashtirilgan bilish motivlari bo'lishi, ta'lim muassasasini funktsionallikdan rivojlanishga o'tishida ta'lim sifatining oshishi imkonini beradi.

Uzluksiz ta'lim jarayonida akmeologik yondashuvni samarali amalga oshirish, ta'lim jarayoni ishtirokchilaridan barcha jarayonlarni o'zaro aloqadorlikda ko'rib chiqishni talab etadi. Shuningdek, muammolarni ko'rish va ularni o'z vaqtida yechishni; doimiy o'z-o'zini takomillashtirishdan to'xtamaslikka erishish imkonini beradi.

Akmeologik rejimda rivojlanayotgan ta'lim muassasasi, insonning yaxlit ma'naviy va ma'rifiy barkamoligini ta'minlash; bitiruvchining kasbiy faoliyatga va hayotga yuqori tayyorgarlik darajasini belgilaydi. Zamonaviy ta'lim muhiti o'quvchi yuqori cho'qqilarga erishishi, o'z-o'zini takomillashtirishi, rivojlantirishi mumkin bo'lgan, akmeologik muhitni shakllantirish bilan to'ldirilishi lozim.

Akmeologik yondashuvdan foydalanishning asosiy maqsadi - mavjud har qanday qiyinchilik yoki muammolardan o'quvchining o'zi mustaqil ravishda chiqib keta olsin, unda ijodkorlik shunday rivojlansinki, hatto o'zi mustaqil ravishda yakka tadbirkor sifatida faoliyat yuritga olsin.

Bunga erishish uchun ta'lim jarayonida akmeologik yondashuvdan foydalanish bilan birgalikda, pedagogik jamoada ijodkorlik va muvaffaqiyatga erishish motivida akmeologik muhitni shakllantirish ustida ish olib borilishi lozim. Buning uchun kolleja "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati va boshqa ijtimoiy tashkilotlar, psixolog, guruh murabbiysi, ishlab chiqarish ustosi, maxsus fan o'qituvchisi tomonidan ijodiy ishlar olib borilishi, jumladan, natijalari har semestr yakunida umumiy o'quvchilar va o'qituvchilar jamoasida ko'rib chiqilib, faollar munosib taqdirlanishi ko'zda tutilgan tadbirlar (to'garaklar, festivallar, konkurslar, musobaqalar, marafonlar, o'yinlar, treninglar), maxsus dastur natijalari doimiy ravishda ishlab turishi lozim. Bunda o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish, liderlik, ijodiy faoliyat, loyihalar ustida ishlash kabi qobiliyatlari shakllantirib borilishi maqsadga muvofiq.

Bunda pedagogning akmeologik pozitsiyasi muhim o'rin tutadi. Shu



o'rinda pedagoglar o'rtasida "O'qituvchining kasbiy motivatsiyasini oshirish, ta'lim jarayonini optimallashtirish sharti" mavzusida loyiha e'lon qilib, "Axborotlar bilan ishlashning zamonaviy usullari", "Zamonaviy pedagogning innovatsion kompetentligi: muammolar va ularni yechish", "Kollejda va darsda akmeologik muhit" kabi mavzularda seminarlar, trening va maslahatlar stoli tashkil etilishi va amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega.

Bunda, pedagogik jamoaning "Akmeologik yondashuv asosida ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish orqali ta'lim sifatini oshirish" kabi loyihalar ustida ish olib borishi to'g'ri yo'l hisoblanadi.

Ushbu loyiha maqsadi: Shaxs ehtiyojlari va jamiyat talablariga mos ravishda ta'lim muassasasining kelgusi muvaffaqiyatli faoliyati uchun ta'lim-tarbiya tizimini tashkil etishni rivojlantirishning umumiy strategiyasini aniqlashdan iborat.

Pedagogik jamoada ushbu loyiha asosida ish olib borilishi mavjud muammolarni yechish va ta'lim sifatini oshirishga olib keladi. Bugungi kunda yaqin besh yilga mo'ljallangan amalga oshirish rejasi ishlab chiqilgan bo'lib, "Akmeologik yondashuv asosida pedagogik jamoasini boshqarish"

loyihasi asosida, akmeologik yondashuv talabini e'tiborga olgan holda ta'lim-tarbiyani rivojlantirish konsepsiyasini tuzib, unga asosan ish olib borilishi uzluksiz ta'lim sifatini oshirish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Бодалев А.А. Акмеология и современные проблемы воспитания. // Акмеология. 2005. №1.
2. Бодалев А.А. О смысле жизни человека, его акме и других образованиях и их взаимосвязи. // Акмеология, №1, 2.
3. Djurayev R.X., Tolipov O'Q., Safarova R.G', To'raqulov X.O., Inoyatova M.E., Divanova M.S. Pedagogik atamalar lug'ati. – T.: 2008. – 136 b.
4. Максимова В.Н. Акмеология: новое качество образования. // Акмеология. 2004. №3.
5. Полетаева Н.М. «Акмеологическая позиция – ядро здоровой личности педагога и школьника». // Акмеология. 2004. №4. с. 29-35.
6. Скуднова О.Ю. К духовному диалогу через образование. // Акмеология, №1, 2004. №3.

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR VA HAR TOMONLAMA YETUK AVLODNI TARBIYALASHDA MUSIQANING O'RNI

SH.R.Mahkamova, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, "Musiq ta'limi va defektologiya" kafedrasini mudiri

В этой статье обсуждается работа с детьми с ограниченными возможностями, в частности, предоставление им уроков музыки и адаптация к их способностям. Один из приоритетов нашей государственной политики – воспитывать детей с ограниченными возможностями во всех отношениях, воспитывать их не меньше, чем здоровых детей, уделять им должное внимание.

Ключевые слова и понятия: дети с ограниченными возможностями, подростки, уроки музыки, тренинги.

This article discusses working with children with disabilities, specifically providing them with music lessons and adapting to their abilities. One of the priorities of our state policy is to educate children with disabilities in all respects, to educate them no less than healthy children, to give them due attention.

Key words and concepts: children with disabilities, teenagers, music lessons, trainings.

Mamalakatimizda olib borilayotgan siyosatda ijtimoiy himoya sohasida olib borilayotgan islohotlarning ham o'rni beqiyosdir. Shu o'rinda imkoniyati cheklangan bolalarning ta'limga bo'lgan huquqini ta'minlash borasida ko'plab ishlar olib borildi. Shu bilan birga ularning darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida ularni san'at, xususan, tasviriy san'at, musiqa bilan mashg'ul bo'lishlari uchun turli xil to'garaklar ham tashkil etildi. Mamalakatimizda ijtimoiy himoyaga muhoj bolalar jamiyat hayotida boshqa bolalar bilan birdek ishtirok etish huquqiga egadir. Shuning uchun ham davlatimiz tomonidan ijtimoiy ko'makka muhoj oila bolalari va nogironligi bo'lgan bolalarga turli xil tashabbuskorlik orqali zarur resurslar bilan ta'minlanmoqda. Ta'lim, tibbiyot, madaniyat-ma'rifat maskanlari nogironligi bor bolalar, ya'ni jismoniy yoki ruhiy nuqsoni bo'lgan bolalarning erkin harakatlanishi uchun moslashtirilgan bo'lishi kerak. Har bir bolaning turli xil nuqsonlari bo'lishiga qaramasdan ko'p orzular qiladi, yaxshi o'qishga intiladi, yoshligidanoq kelajakka nisbatan umid uyg'otib turli xil rejalar tuzishadi.

Shuni aytish joizki, bolalar hayotida maqsadli treninglar, musiqiy tajribani kengaytirish, tasavvur va tuyg'ular hissiyotlarini faollashtirish orqali bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. Musiqaning ta'limdagi ahamiyati ham ritm tuyg'usini faollashtirishdir va musiqa materiallarining chuqur rivojlanishiga hissa qo'shadi. Biroq, vaqt cheklovlari va odatda musiqa xonalarining yetishmasligi sababli kichik joylar ajratiladi, faqat ularning individual elementlari ishlatiladi. Natijada ularning bilim va ko'nikmalari faqatgina nazariy bilimlar bilangina cheklanib qolmoqda.

Harakatlanish usullarini musiqaning ritmiga bog'lab qo'llash kerak. Bularning barchasini amalga oshirish birinchi navbatda musiqa rahbariga bog'liqdir. Lekin shuni aytish kerakki, bolalar o'zaro hamjihat, jamoa va erkin hamkorlikda bo'lishlari shart. Musiqa harakatlari bolalarga eng jozibali tadbirlardan biri, o'ynash, his-tuyg'ularini namoyish etish, o'z energiyasini amalga oshirish qobiliyatidir. Shuning uchun u bolaning holati va tarbiyasiga foydali ta'sir ko'rsatadi. Musiqa intellektual rivojlanishga ta'sir ko'rsatadi, inson aql-idrokiga javob beradigan hujayralar o'sishini tezlashtiradi.

Bolalar asosan uch yo'nalishda tarbiyalanadi. Bular:

1. Bolalarning jismonan rivojlanishi.

2. Bolalarning ma'nau rivojlanishi.

3. Bolalarning nutqi va tafakkurini rivojlantirish.

Bolalarni guruhlariga ajratishda eshitishda muammosi bo'lgan bolalarning o'ziga xos psixologik fiziologik holati, moslashuvi, muammolari hamda aksariyat hollarda ularning ta'lim-tarbiyasi jarayoniga kech jalb etilishi hisobga olinadi. Ba'zan esa yakka tartibda mashg'ulot ham tashkil etiladi. Eshitishda nuqsoni bor bo'lgan bolalar uchun ona tili imo-ishora tili hisoblanadi. Ammo shuni aytish joizki, ularga ko'mak berib eshitish qobiliyatini rivojlantirish kerak. Yana ta'kidlash kerak, maktabgacha yoshdagi bolalarni teng integratsiya qilishni ta'minlash, keyinchalik hayotda o'z o'rnini topishi uchun bolalarning og'zaki nutqini shakllantirishga asosiy e'tibor qaratiladi. Bunday bolalarda nutq rivojlanishi juda murakkab jarayondir. Og'zaki nutqning shakllanishida eshitish analizatori – nutqni harakatga keltiruvchi analizatorlar ishtirok etadi. Og'zaki nutqni shakllantirishda ta'limiy o'yinlar va didaktik materiallardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu orqali bolalarning lug'at boyligi oshadi, og'zaki nutqi shakllanadi, saqlangan eshitish qoldig'i rivojlanadi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar tarbiyasida ham innovatsion ta'lim joriy etish bo'yicha qator ishlarni amalga oshirish, ular uchun turli xil dasturlar yaratish, zamon talabiga mos mashg'ulot ishlanmasini yaratish kerak. Dasturli o'yinlardan biri videoprojektordan foydalanishdir.

Misol uchun: Har bir meva tagiga nomi yozilgan bo'lib, u ekranning asosiy qismiga chiqadi. Tarbiyachi navbatma-navbat har bir boladan ekranda chiqqan mevani nomini so'raydi. Ular mevani nomini baland ovozda aytishadi, nutqi toza va ravon bo'lsa, ekranda yashil chiroq yonadi. Agar nutqi yaxshi bo'lmasa, qizil chiroq yonadi. Yuqoridagi mevalarning nomlarini yod olgach, ekranda mevaning sur'ati nomsiz ko'rsatiladi va bolalar bilan takroran mashg'ulot o'tkaziladi. Takroriy mashg'ulotlar ularning so'z boyligi oshishiga xizmat qiladi. Eshitishda nuqsoni bor insonning so'z boyligi sust rivojlangan bo'lsa yuqoridagi dastur ishlanmasi juda muhim o'rin tutadi. Ushbu dastur bolalarni nafaqat so'z boyligini rivojlantiradi balki o'yin qiziq bo'lgani uchun ular yanada ko'proq mashg'ulot o'tishni xohlaydilar.

Ko'rishda nuqsoni bor bolalarga esa ko'proq eshitish yo'li bilan mashg'ulot o'tish va ularni ko'proq kuylatish, turli xil harakatlarni o'r-



ganishda ko'maklashish kerak. Musiqali obrazlar shakllanishining asosiy manbai tabiat va kishi nutqiga mos kelishiga, atrof-olamdagi go'zalliklarni idrok etishiga bevosita bog'liqdir.

Musiqqa san'ati estetik tarbiyaning muhim omili sifatida shaxs shakllanishiga kuchli ta'sir etadi. Oilada, maktabgacha ta'lim muassasasida, maktabda musiqa mashg'ulotlarini maqsadga muvofiq tarzda uyishtirish, yosh avlodning ichki dunyosini boyitish va san'atni to'g'ri tushinishdagi samarali yo'nalishdir. Musiqqa insonni barcha ichki kechinmalari va tuyg'ularini, o'ziga xos uslubda ya'ni badiiy tilda ifoda etadi. Musiqaning kuch- qudrati shundaki, u shodlik, qayg'u, hayol, jasurlik, tushkunlik, va shunga o'xshash insonning ruhiy holatlarini xususiy va umumiy tarzda o'zaro bog'liqlikda, bir-biriga singib ketishida namoyish etadi. Musiqqa ham fan, ham san'atdir. Musiqqa hech qachon ortda qolmaydi, balki u rivojlanishdan to'xtamaydi. Musiqqa inson umrining doimiy yo'ldoshi hisoblanadi. Insoniyat yashar ekan rivojlanishdan to'xtamaydi, musiqa ham insonlar kabi rivojlanib boraveradi.

Prezidentimiz Shavkat Mirzoyev tomonidan, bolalarning darsdan tashqari vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ularning ham ma'nan, ham jismonan yetuk avlod sifatida shakllanishiga ko'maklashish, yetarli shart-sharoitlarni tashkil qilish yoki yanada takomillashtirish maqsadida ilgari surilgan "5 tashabbus"ning qabul qilinishi ham ushbu sohaning rivojlanishida tub burlish yasadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu islohot zamirida o'tgan ikki yil mobaynida ko'plab ishlar amalga oshirildi, ammo shunga qaramasdan musiqa ta'limidagi muammolarning ko'pchiligi o'z yechimini topganicha yo'q. Birinchidan, musiqaga bo'lgan yalpi qiziqishni oshirish maqsadida turli xil treninglar olib borilmasligi, bolalarni bu sohada bugungi kunda olib borilayotgan islohotlardan bexabar qolib, o'zida bo'lgan mahoratini yuzaga chiqishiga g'ov bo'lib qolmoqda. Ikkinchidan, ushbu ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan maktablarni kam sonli ekanligi ham bolalarni bilim olishiga oz bo'lsada monelik qilmoqda. Uchinchidan, ushbu ta'lim muassasalarida professional mutaxassislarini yetishmovchiligi, yetarli texnik resurslarning mavjud emasligi ham bolalarning o'zlaridagi bo'lgan iste'dod yoki qiziqishni yuzaga chiqib, yetilishiga halal beryapti. To'rtinchidan, musiqa ta'limini imkoniyati cheklangan bolalar uchun o'qitishning yangi metodlarini ishlab chiqish borasida ilmiy izlanishlarni to'xtatib qolganligi, ushbu toifadagi bolalar va o'smirlarga musiqa madaniyatini shakllantirish uchun qilinayotgan harakatlarni qisman chippakga chiqarmoqda, yoki yetarli darajada yetlazib berilmayapti. Beshinchidan, maktabgacha ta'lim muassasalaridan musiqa ta'limini berishni boshlanmasligi, bolalarga yoshlikdan musiqa va san'atga bo'lgan muhabbat uyg'otilmasligi, keyinchalik, ushbu yoshlardagi mavjud iste'dodlarni ham yo'q bo'lib ketishiga olib kelmoqda.

Bolalarni vatanparvarlik ruhida voyaga yetkazishda musiqaning o'rni beqiyos ekanligini hisobga olgan holda, ushbu sohada hozirgi kunga qadar yig'ilib qolgan, yuqorida sanab o'tilgan muammolarni hal qilmas ekanmiz, yoshlarimiz ongining bir chetida bu qisman kichik ma'naviy boshliq bo'lib saqlanib qolaveradi. Yurtimizda xalqimizning tarixdan, azal-azaldan musiqaga bo'lgan o'zgacha munosabatini inobatga olgan holda ushbu sohani yorqin kelajagini, kelajakdagi istiqbollarini bashorat

qilish mumkin. Buning uchun, avvalo, bolalarga maktabgacha ta'lim shakllotlardan boshlab musiqaga bo'lgan muhabbatni singdirish, musiqa-ga ixtisoslashtirilgan maktablar va imkoniyati cheklangan bolalar ta'hsil oladigan maktablarda texnik resurslarni yetarli darajada ta'minlash, Respublika miqyosida yangi ilmiy amaliy konferensiyalar orqali, ushbu soha mutasaddilari ishtirokida musiqa ta'limini rivojlantirishning ilmiy konsepsiyasini ishlab chiqish, yangi metodlarni o'ylab topish, umumta'lim maktablarida ommaviy targ'ibot tashbiqot iahlarini jadallashtirish orqali ushbu sohaning yorqin kelajagini qurish mumkin bo'ladi. Shu bilan birga, imkoniyati cheklangan bolalarda kelajakka bolgan umidni shakllantirish, hayotga muhabbat hisini uyg'otish, ta'limga bo'lgan bevosita huquqini ta'minlash mumkin bo'ladi. Zero, O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov "Sog'lom avlodni voyaga yetkazishda jismoniy tarbiya va musiqaning ro'lini oshirish, bu boradagi mavjud moddiy-texnik ba'za va kadrlar salohiyatini jahon standartlari asosida yanada mustahkamlash, eng muhimi, sportga, musiqaga mehr har bir bola, har qaysi oila hayotiga chuqur kirib borishiga erishish doimiy vazifamiz bo'lib qoladi va shu orqali yurtimiz kelajagi ishonchli qo'llarda ekaniga ishonch hosil qilasan", deb ta'kidlagan edi.

Adabiyotlar

1. Korreksion pedagogika va logopediya 2007-yil
2. Воробьева В.К. Методика развития связной речи у детей с системным недоразвитием речи: учеб. пособие / В.К. Воробьева. – М.: АСТ: Астрель : Транзиткнига, 2006. – 158[2] с. — (Высшая школа)
3. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Издательство «Наука», 1981. – 140с.
4. Гвоздев А.Н. Вопросы изучения детской речи / А.Н. Гвоздев. – М.: Изд-во АПН РСФСР, 1961. – Т.1. – 472 с.
5. Глухов В.П. Основы психолингвистики: учеб. пособие для студентов педвузов. – М.: АСТ: Астрель, 2005. – 351, с. – (Высшая школа).
6. Глухов В.П. Формирование связной речи детей дошкольного возраста с общим речевым недоразвитием. – М.: АРКТИ, 2002. – 144 с. (Биб-ка практикующего логопеда).
7. Жукова Н.С. и др. Логопедия. Преодоление общего недоразвития речи у дошкольников: Кн. для логопеда / Н.С. Жукова, Е.М. Мастюкова, Т.Б. Филичева. – Екатеринбург: Изд-во АРД ЛТД, 1998. – 320 с. (Серия «Учимся играя»)
8. Кривовязова Н. Д. Обучение связной речи: Учебно-методическое пособие. – М.: НМЦентр, 2000.
9. Лалаева Р.И., Серебрякова Н.В. Коррекция общего недоразвития речи у дошкольников (формирование лексики и грамматического строя). – СПб.: СОЮЗ, 1999. – 160с.; ил.
10. Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. – М.: Кранданд, 2010. – 2016с.
11. www. Ziyo.com.
12. ziyonet. Uz.

BEHBUDIYNING SIYOSIY TARBIYA TO'G'RISIDAGI QARASHLARI

A.Y.O'tayev, N.E.Narziqulovna, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
"Pedagogika va menejment" kafedrasida o'qituvchilari

В Республике широко отмечается 145-летний юбилей со дня рождения Махмудходжи Бехбуди (1875-1919). В статье анализируются взгляды Махмудходжи Бехбуди на политическое воспитание.

Ключевые слова и понятия: политическое воспитание, наука о воспитании, воспитание молодежи, политическая партия, политическая структура, педагогика джаида, новая школа, политический плюрализм, политическая квалификация.

The Republic widely celebrates the 145th anniversary of the birth of Mahmudkhoja Behbudi (1875-1919) is widely celebrated in our country. The article analyzes Mahmudhoja Behbudi's views on political education.

Key words and concepts: Political education, educational science, youth education, political party, political system, modern pedagogy, new school, political pluralism, political skills.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyun-dagi 422-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini uchun "Tarbiya" fani Kontsepsiyasi" da "tarbiya sohasiga doir siyosatni amalga oshirish" vazifasi balgilandi [2]. Bu vazifa ta'lim tizimida yoshlarni o'ziga xos siyosiy tarbiyalash masalasini q o'ymoqda. Chunki

siyosiy tarbiya – yosh avlodning siyosiy ongini shakllantirish, ularga siyosiy bilim berish va ularni siyosiy k o'nikma bilan qurollantirishni amalga oshiradi. Bu bilan Kontsepsiyada ta'kidlanganidek, "yoshlar tarbiyasida dunyoda yuz berayotgan murakkab siyosiy va mafkuraviy jarayonlarga to'g'ri baho bera oluvchi" avlodni voyaga yetkazishda erishiladi. Shu



jihtadan o'zbek "Jadid pedagogikasi" sarboni Mahmudxo'ja Behbudiyning (1875-1919) siyosiy tarbiya to'g'risidagi qarashlaridan xabardor bo'lish muhim ahamiyatga ega.

Ma'rifatparvar pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 145 yilligini nishonlash O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga Murojaatnomasida alohida ta'kidlandi [1], hamda Prezidentimizning O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati o'tkazilgan tadbirda ham yana bir bor ta'kidlab, jadid ma'rifatparvar pedagoglar orasida Mahmudxo'ja Behbudiy ham "El yurt xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofatlanliklarini ta'kidladi.

Mahmudxo'ja Behbudiy o'z zamonasi yoshlarining bilimlari, madaniyatli va siyosiy faol bo'lishlari uchun ilg'or g'oyalari bilan birga amaliy faoliyatda ko'rsatib berganligi bilan ham ahamiyatlidir. U o'z amaliy faoliyatida aqliy tarbiyaning hayotda, ishlab chiqarishda muhim ahamiyat kasb etishini, yosh avlodni qobiliyatli, yaxshi turmush egasi qilib kamol toptirishda asosiy manba bo'lishini anglaganlar.

Mutafakkir o'sha davr maktablari uchun "Muntaxabi jo'g'rofiyai umumiy" (Qisqacha umumiy jo'g'rofiya), "Kitob ul-atfol" (Bolalar uchun kitob), "Muxtasari tarixi Islom" (Islomning qisqacha tarixi), "Maddaxli jo'g'rofiyai imroniy", "Muxtasari jo'g'rofiyai Rusiy" (Rusiyaning qisqacha jo'g'rofiyasi) darsliklarini yaratib, millatni savodli qilishga, murg'ak qalbdan millat qayg'usi, millat iftixorini uyg'otishga oz bo'lsada hissa qo'shishga ishongan edi.

Mahmudxo'ja Behbudiy o'ziga xos siyosiy qarashga ega bo'lib, u o'z zamonining yoshlarini siyosiy ongli va siyosiy bilimlari shaxslar sifatida voyaga yetkazishni orzu qilgandi. Professor Begali Qosimov (1952-2005) to'g'ri ta'kidlaganidek, u "XX asr boshidagi Turkistonning yirik siyosiy arbobi"[4] sifatida yoshlarni siyosiy tarbiyalash masalasida muhim fikrlarga ega edi, biroq uning siyosiy tarbiya to'g'risidagi qarashlari o'rganilgan emas[5].

Behbudiy bundan yuz yil muqaddam o'z davriga nisbatan ilg'or fikrli ravishda yoshlarni siyosiy tarbiyalashning quyidagi ikki muhim omilini ta'kidlab k o'rsatadi:

1. Mavjud siyosiy partiyalarning g'oyalari bilan tanishtirish;
2. Mavjud siyosiy tuzumning mazmunini anglatish [2].

Biz bu yondashuvni "Jadid pedagogikasi" fanining siyosiy tarbiya masalasiga oid kontsepsiyasi sifatida qabul qilamiz va uning bugungi kunda ham ahamiyatini y o'qotmaganligini eslatib o'tmoqchimiz.

Behbudiy birinchi masala to'g'risida 1906 yilda yozilgan "Xayrul umuri avsatuh" (Ishlarning yaxshisi o'rtachasidur) maqolasida so'z yuritadi. Unga ko'ra, "butun dunyoda atfol (yoshlar) firqalar (siyosiy partiyalar) g'oyalari asosida tarbiya etilur; jumladan, Rusiyada t o'rt firqa mavjud turur:

1. Mustabid firqasi (Hukumat partiyasi);
2. Mashrutai avlomiya (Kadetlar partiyasi);
3. Ishtirokiyuni ommaviya (Sotsial-demokratlar partiyasi);
4. Rusiya musulmonlari ittifoqi (partiyasi)"[2].

Ma'rifatparvar pedagog tushuntirib o'tadi. Chunonchi, Mustabid firqasi (Hukumat partiyasi) "Rusiya podshohligini saqlash", Mashrutai avlomiya firqasi (Kadetlar partiyasi) "hokimiyatni fuqarolar ishtirokida boshqarish", Ishtirokiyuni ommaviya firqasi (Sotsial-demokratlar, keyinchalik kommunistlar partiyasi) "ishchilar ustuvorligi" va Rusiya musulmonlari ittifoqi (partiyasi) esa, "chin e'tiqodlik" siyosiy g'oyalariga asoslanadi [2]. Behbudiy bu siyosiy partiyalarning g'oyalari tasvirlab o'tar ekan, 1906 yildayoq keyinchalik KPSS nomini olgan partiya to'g'risida, "bu toifaga q o'shilmoq biz musulmonlar uchun nihoyatda zararlidir" deb ogohlantiradi [2]. Chunki donishmand Behbudiy bu partiyaning XX asr tong otaridayoq zo'ra vonlik, qatog'on va o'zidan boshqa hech kimni tan olmaslik kabi siyosiy g'oyalarni ko'ra olgan edi.

Ma'lum bo'ladiki, Behbudiy yoshlar siyosiy tarbiyasida siyosiy plyuralizm g'oyasiga asoslanishni tavsiya qiladi. Shu jihatdan bugungi kunda mamlakatimizda mavjud siyosiy partiyalarning g'oyalari esga keladi:

1. O'zLDP – "liberal (erkin) demokratik" g'oya;
2. MTDP – "milliy demokratik" g'oya;
3. "Adolat" SDP – "sotsial demokratik" g'oya;
4. XDP – "xalq demokratiyasi" g'oyasi.

Demak, partiyalarimiz demokratiyaning (xalq hokimiyatchiligining) liberal, milliy, sotsial va xalq ishtiroki siyosiy g'oyalari ilgari suradi. Shu sababli mavjud partiyalarimizning g'oyalari majmui siyosiy plyuralizm g'oyasini ifodalaydi. Bu biz uchun g'oyatda muhim omildir.

Behbudiy ikkinchi masala to'g'risida 1906 yili yozilgan "Kitobi muntaxabi jo'g'rofiyai umumiy" (qichqacha umumiy geografiya) darsligida fikr yuritadi va bu darslik o'zbek pedagogikasida "Geografiya" fani uchun birinchi darslik ekanligini eslatib o'tish joiz. Unga ko'ra, XX asr boshlarida davlat tuzilishi va boshqaruvini ifodalovchi siyosiy tuzumning k o'pchilikka ma'qbul bo'lgan quyidagi uch shakli mavjud:

1. Idorai mutlaqo (Monarxiya);
2. Idorai mashruta (Konstitutsion parlament);
3. Idorai jumhuriyat (Respublika) [2].

Ma'rifatparvar pedagog bu siyosiy tuzumlarning boshqaruv asoslarini birma-bir tushuntirib o'tadi. Chunonchi, Idorai mutloqa (Monarxiya) davlat tuzilishi va boshqaruvida "podshoh hokimiyat sohibidir, aning ra'i va amri zako'n (qonun) va nizom bo'ludur", Idorai mashruta (Konstitutsion parlament)da "saylangan vakillar mamlakatdorlik ishlariga aralashib, mashvarat qilur" va Idorai jumhuriyat (Respublika) boshqaruvida "fuqarolari saylagan boshliq yetti yilg'acha o'z mamlakat va hukumatlarini boshqaradi"[3]. Bunday pedagogik yondashuv XX asr boshlari Yurtimiz hayoti uchun yangi hodisa edi.

Ma'lum bo'ladiki, Behbudiy mazkur masalaga siyosiy malakaga urg'u beradi. Unga ko'ra yoshlar siyosiy tarbiyasining hosilasi ularning siyosiy malakasini shakllantirish kerak. Shu jihatdan mustaqil O'zbekistonning davlat tuzilishi va boshqaruvi Respublika shakliga asoslanishi esga tushadi. Behbudiyning bu boradagi fikrini eslab o'tish joiz: "Idorai Jumhuriyatda (boshqaruvning Respublika shaklida)"aksar fuqarosi ahli ilm bo'lib, bir nafar donishmand odamni Boshliq saylaydurlarki, u "Raisi Jumhuriyat", "Sadrmishini millat" (Millat yetakchisi) yo "Prezident" ataladur[3].

Shunday qilib, Mahmudxo'ja Behbudiy milliy pedagogikamizning o'zbek "Jadid pedagogikasi" fanida birinchi bo'lib yosh avlodning siyosiy tarbiya omillarini belgilab bergan edi. Unga ko'ra, birinchidan, ta'lim tizimida amalag oshiriladigan siyosiy tarbiyada yoshlarning siyosiy ongi, bilimi va faolligini shakllantirishda siyosiy plyuralizm (rang-baranglik) g'oyasiga asoslanish; ikkinchidan, siyosiy tarbiyaning hosilasi sifatida yoshlarning siyosiy malakasini tarkib toptirish; uchinchidan, bu ishda ilg'or siyosiy – pedagogik tajribalarga tayanish kerak bo'ladi.

Behbudiyning madaniy, ma'naviy, ma'rifiy va siyosiy qarashlaridagi ilg'or fikrlari, amaliy xulosalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatiga ega. Chunki u yashagan davr hozirgi davr bilan mos kelmasada, bugungi ijtimoiy hayotimizga hamohangdir.

Behbudiyning bugungi kunda ham yoshlar siyosiy shakllanishida "yangi maktablar ochish", "kamida t o'rtta tilni" bilish, "To'y va marakalarga sarf qiladigan mablag'larni yoshlarning ta'lim olishlari uchun boshqa davlatlarga yuborish", "kutubxonalar ochish, ularning sonini ko'paytirish, zarur kitoblar bilan boyitish", "mahalliy kadrlarning xorijda ta'lim olishlari uchun imkoniyat berish", "Teatrn rivojlantirish va xalqning, yoshlarning teatr orqali milliy dunyoqarashini, siyosiy ongini shakllantirish" g'oyalari nafaqat o'sha davr uchun balki bugungi jamiyat rivoji uchun dasturamal bo'lib xizmat qiladi.

Behbudiyning siyosiy tarbiya masalasiga doir qarashlari aniqligi, yangiligi va m o'ljalli ekanligi bilan ahamiyatga ega. Shu ma'noda ta'lim tizimida amalga oshiriladigan yoshlar siyosiy tarbiyasi masalasida, jumladan yangi "Tarbiya" fanining tegishli mavzusini o'qitishda siyosiy plyuralizm g'oyasi, siyosiy malaka masalasi va siyosiy – pedagogik tajriba metodiga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Negaki bu masalalar yangicha fikrlovchi va kelajakni ko'ra oluvchi Mahmudxo'ja Behbudiydek donishmand pedagog tomonidan tavsiya etilganligi bilan tahsinga loyiqdir.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyundagi 422-sonli "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. www. Ziyonet.uz. 2020 yil 7 iyun.
3. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. -T.: "Ma'naviyat". 1997.
4. Qosimov B. Karvonboshi. // Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – T.: "Ma'naviyat". 1997. 5-38 b.
5. Ahrarova Z. Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'rifiy-pedagogik qarashlari. NDA. – T.: 1997.



MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA OVOZ REJIMI VA GIGIYENASI

M.A.Asadullayeva, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, Musiqa ta'limi va defektologiya kafedrasida o'qituvchisi

В статье рассматриваются вопросы голосового режима и гигиены детей школьного возраста, ухода за ними, правильной направленности и развития голоса с учетом возрастных особенностей каждого ученика в процессе пения.

Ключевые слова и понятия: tessitura, диапазон, вокал, прима, октава

The article discusses the issues of the voice regime and hygiene of school-age children, their care, the correct orientation and development of the voice, taking into account the age characteristics of each student in the process of singing.

Key words and concepts: tessitura, range, vocals, prima, octave

Bolalar ovozi kattalar ovozidan tabiatan farqlanib turadi. Bu farqlanishni ayniqsa o'g'il bolalar va erkaklar ovozi misolida ko'rishimiz mumkin. Musiqa madaniyati darslarida kuylash faoliyati musiqi o'qituvchisidan bolalarning ovozlari ustida to'g'ri va samarali ishlashni talab etadi. Vokal mashqlarida muvaffaqiyatga erishish uchun kuylashga qulay sharoit yaratish muhimdir. Eng avvalo, kuylash jarayonida ovoz apparatining zo'riqmasdan ishlashi uchun yordam beruvchi a'zolarining o'zaro tabiiy bog'liqligini to'g'ri yo'naltirish kerak bo'ladi. Ovoz rivojlanishi sur'ati kuylovchining qay darajada undan foydalanishiga bog'liq.

Ovoz apparatining normal ishlash qoidalarini buzilishiga olib keluvchi asosiy sabablar ustida to'xtalib o'tish lozim. Kuylashni endigina boshlaganlarning ko'pchiligi o'z ovoz tessiturasiga ahamiyat bermay yuqori yoki juda past tessiturada kuylaydilar. Yuqori ovoz xususiyatiga ega kuylovchilar quyi notalarni kuylashga intiladilar, ular quyi ovozlarni uchun mo'ljallangan asarlarni kuylashga harakat qiladilar yoki aksincha. Aksari holatlarda kuylashni endigina boshlaganlar ovoz diapozonlarini kengaytirish maqsadida yuqori notalardan to'g'ri foydalanishni bilmagan holda mustaqil mashqlar kuylaydilar.

Ayniqsa bolalarda bu holat juda ko'p uchraydi. Ular bir-birlarini yuqori notalarda ortda qoldirishga, balki ovozlarni zo'riqtirib o'zlarining haqiqiy ovozlari bilan ko'ra baland kuylashga bellashadilar.

Ovoz tessiturasiga mos kelmagan yuqori notalar ovozni kuchaytirib kuylashni suiste'mol qilishlik, nafaqat ovoz hosil qilish a'zolarini normal funksiyasini buzilishiga olib keladi, balki oqibati xavfli bo'lgan ovoznining zo'riqishi va toliqishiga sabab bo'ladi. Darsning samarali bo'lishi uning to'g'ri tashkil etilganiga bog'liqdir. Mashg'ulotni kerakli rejimda olib borishda kuylovchining fiziologik xususiyatlarini (yoshi, individual) hisobga olish muhimdir.

Kuylash jarayonida barcha ovoz hosil qilish a'zolari faol harakatda bo'ladi. Bunda asab to'qimalariga sezilarli darajada bosim tushadi. Kuylashni endi boshlaganlar uchun bu holat noodatiy bo'lishi tabiiy. Vaziyat shunisi bilan xavfliki, boshlang'ich kuylash davrida ayrim kuylash a'zolari faoliyati haqida aniq bir to'xtamga kelinmagan bo'ladi. Kuylashda bir a'zoning yetarlicha bo'lmagan yoki haddan tashqari faolligi boshqa a'zoning zo'riqishiga yoki faoliyatining buzilishiga olib kelishi mumkin. Misol uchun, nafas tayanchi yetishmasligida tomoqdagi mushaklar ayrim hollarda ovoz hosil qilish organlaridagi burmalar faoliyati buziladi va ularning zo'riqishi va charchashiga olib keladi.

Tez toliqib qolish endigina kuylashni boshlagan o'quvchilar uchun xosdir. Shuning uchun ular bilan mashg'ulot o'tish rejimini shu o'ziga xoslikka ahamiyat bergan holda tuzish kerak bo'ladi. Birinchi yakka mashg'ulot 5-10 daqiqa kuylash orasida ozroq tanaffus bilan jami 20 daqiqadan oshmasligi kerak. Har bir insonda bardoshligi turlicha va har bir holatga individual yondashish kerak. O'quvchi darsdan ovozi charchagan holda ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak. O'quvchi darsdan ovozi charchagan holda ketishiga yo'l qo'yish kerak emas. O'quvchida ovoz o'zgarishidan yoki horg'in ko'rinish kabi ilk alamatlaridayoq mashg'ulotni to'xtatish kerak. Ovozning bardoshligiga qarab yakka darslar 30-45 daqiqagacha va albatta -10 daqiqalik 2-3 marotaba tanaffus qilgan holda uzaytiriladi.

Bolalarda yakka mashg'ulotlar kichik tanaffuslar bilan 30 daqiqadan oshmasligi kerak. Ularga ovoz hosil qilish a'zolarining to'liq rivojlanmaganligini, mushaklar nozikligi va asab tizimining tezda toliqishini hisobga olgan holda ehtiyotkorlik bilan yondoshish talab etiladi. Kattalarda ovoza bosim vaqt o'tib normal holat bo'lishi mumkin, ammo bolalarga og'irlik qiladi. Bolalarning ovozlari nozikligidan tashqari ular kattalardek faol va diqqatli turg'un emas.

Kuylovchi tana a'zolarida kechayotgan har qanday o'zgarish uning ovozigacha ta'sir ko'rsatadi. Inson umumiy salomatligi holati ba'zida kuylashi mumkin yoki mumkin emasligini belgilab beradi. Yurakdagi ba'zi nuqsonlar va o'pka kasalliklarida kuylash mumkin emas. Umumiy hol-sizlik, darmonsizlik holatlari kuzatiladigan barcha surunkali kasalliklarda mashg'ulotlar kutilgan natijani bermaydi. Inson qachonki sog'lom, tetik va yaxshi kayfiyatda bo'lgandagina ovoz jarangdor bo'ladi.

O'quvchining kayfiyati dars sifatini belgilaydi. Agar o'quvchi darsga tushkun, xafa holda kelsa, mashg'ulot samarasiz bo'ladi. Kayfiyat ruhiy ko'tarinkilik-asab tizimi va organizmning umumiy faollashuviga ta'sir ko'rsatadi.

Insondagi umumiy faollik uyquning qay darajadiligiga bog'liqdir. Ma'lumki, agar inson odatdagidan kamroq uxlasa, uning ovozi chiroyli yangramaydi. Uyqu (sutkada 7 soatdan kam bo'lmagan, bolalarda undan ko'proq) me'yorida tinch, osuda bo'lishi kerak. Ovoz uyqudan uyg'onish bilan (ayniqsa kunduzgi uyqudan) ko'ngildagidek yangramasligi barchamizga ma'lum. Shu sababli uyqudan uyg'ongach 1-1,5 soat keyin shug'ullanish samaralidir.

Ovozning jarangdor bo'lishida ovqatlanish tartibi va sifatining ham o'rni katta. To'yib ovqatlanish natijasida diafragmaning erkin haraklanishiga erishib bo'lmaydi. To'yib ovqatlangandan keyin kuylash kuylovchiga qiyinchilik tug'diradi. Bundan tashqari to'yib ovqatlangandan so'ng insonda bo'shshish, ba'zida uyquchanlik kuzatiladi. Shu sababli mashg'ulotlar me'yordagi ovqatlangandan 2-3 soat keyin o'tkazilishi kerak. Kuylovchi o'tkir ta'm beruvchilar va achchiq ziravorlar iste'mol qil-magani ma'qul. Shuningdek, yong'oq, kungaboqar urug'lari ham zararlidir. Ularning mayda parchalari halqumning shilliq qavat burmalariga tiqiladi. Salqin ichimliklar va muzqaymoq iste'mol qilish ham ayniqsa mashg'ulotdan so'ng ovoz qizib turganda juda zararlidir.

Shamollash va shu kabi nafas yo'llarining boshqa kasalliklari to'g'ridan-to'g'ri kasbiy kasalliklar hisoblanmaydi, ammo kuylovchi kasallik davrida kuylasa, kasbiy kasalliklarni keltirib chiqaruvchi omil bo'lishi mumkin.

Shamollashning keng tarqalgan turlari haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz: Eng ko'p uchraydigan shamollash kasalligi bu - tumovdir (burun shilliq qavatining yallig'lanishi). Kasallikning birinchi kumida odatda ovoz yangraydi. Lekin kuylagandan so'ng bunday sharoitda ovoz mushaklarining uzoq muddat bo'shshishi ro'y beradi va o'zining haqiqiy xususiyatini yo'qotadi. Kasallikning o'tkir shakli bo'ladimi yoki surunkali shaklimi, albatta bunday vaziyatda jiddiy davolanish talab etiladi.

Tomoqdagi shamollash kasalliklari o'tkir laringitda nafaqat tomoqdagi shilliq qavatlar, balki ovoz hosil qilish a'zolaridagi burmalar ham zararlanadi.

Kuylash jarayonida barcha surunkali shamollash kasalliklari, ayniqsa shilliq qavatlarining quruq shamollashi yoqimsiz jarayonni yuzaga keltiradi. Chunki kasallikning bu turi uzoq muddatli davolanish jarayonini talab etadi, ovoz tembriga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tomoqdagi bodomsimon bezning o'tkir shamollashi (odatda angina deb ataladi) odatda tez tuzaladi va hech qanday iz qoldirmaydi. Ammo kasallikning tez-tez takrorlanib turuvchi surunkali turi organizmda asorat qoldirishi bilan xavflidir.

Traxeyalarning yallig'lanishi kuylovchida og'irlik, noqulaylik va hat-toki traxeya atrofida og'riq kuzatilishi kabi belgilarni yuzaga keltiradi. Bu kasallikda traxeyalar qisqarishi qobiliyati susayadi, natijada ovoz sifati yomonlashadi, tembr o'zgaradi. Kuylovchilar uchun bu kasallik jiddiy hisoblanadi.

Kuylovchilar uchun juda ham yoqimsiz shamollash turlaridan yana



biri bu yoʻtal bilan kuzatiladigan nafas yoʻllari kasalligidir. Yoʻtal ovoz paychalariga kuchli bosim oʻtkazib, ularni shikastlanishiga sabab boʻladi. Shu sababli hattoki ozgina yoʻtalish natijasida ham ovoz xususiyati yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Kuchli yoʻtal xurujidan keyin esa ovozning anchagacha yoʻqotilish holatlari kuzatiladi. Bunday paytda nafaqat davolovchi, balki tinchlantiruvchi dorilar ham yaxshi samara beradi. Barcha gigiyena qoidalariga risoladagidek amal qilish bilan bolaning doimiy rivojlanib kelayotgan nozik ovozlarni ehtiyot qilgan va asragan boʻlamiz.

Adabiyotlar

1. Qahharov N.V. Vokal asoslari. Oʻquv qoʻllanma. – T.: Iqtisod moliya. 2008. 314 b.
3. Qahharov N.B., Ayubov K. Vokal sanʼati asoslari. Oʻquv qoʻllanma. – T.: – Iqtisod-moliya. 2008 y.
4. Jalilov M.R.; «Qoʻshiqlar xrestomatiyasi». Oʻquv qoʻllanma. – T.: TDPU, 2002 y.
5. Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. Darslik. – T.: Yangi avlod asri. 2009.
6. Аден Г. Хрестоматия вокально-педагогического репертуара. 1966.
7. Тураев Ю., Амануллаева Д. “Вопрос методики преподавания эстрадного пения”. Методическое пособие.

ESHITISHDA NUQSONI BOʻLGAN BOSHLANGʻICH SINIF OʻQUVCHILARIGA МАТЕМАТИКАНИ OʻRGATISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARINING OʻRNI

I.Q.Sayfullayeva, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti oʻqituvchisi

В статье рассматривается проблема использования информационных технологий как одного из наиболее сложных и уникальных направлений обучения детей с нарушением слуха, а также анализируется эволюция информационных технологий в обучении слабослышащих школьников в начальной школе.

Ключевые слова и понятия: слабослышащие дети, речь, коррекция, обучение, информационные технологии, компьютерная система.

The article examines the problem of using information technology as one of the most complex and unique areas of teaching children with hearing impairment, and also analyzes the evolution of information technology in teaching hearing impaired schoolchildren in primary school.

Key words and concepts: hearing impaired children, speech, correction, training, information technology, computer system.

Mamlakatimizda taʼlim tizimida uzoqni koʻzlab olib borilayotgan islohotlar bugun nafaqat jamoatchiligimiz tomonidan, balki butun jahonda eʼtirof etilmoqda. Respublikamizda taʼlim-tarbiya tizimini takomillashtirish va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yoʻnishi darajasiga koʻtarildi.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va maʼnaviy salohiyatga ega boʻlib, dunyo miqyosida oʻz tengdoshlariga hech qaysi sohada boʻsh kelmaydigan insonlar boʻlib kamol topishi, baxtli boʻlishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” deb taʼkidlagan edilar.

Bugungi kunda davlatimiz siyosati maxsus ehtiyojli bolalarga yanada samaraliroq taʼlim-tarbiya berish, ularni ijtimoiy jamiyatga teng huquqlik asosida toʻliq va erta moslashtirish masalalari xususida keng koʻlamli ishlarni olib borishga qaratilgan.

Zamonaviy sharoitda maxsus taʼlimning asosiy vazifasi eshitishda nuqsoni boʻlgan shaxsning madaniyatini shakllantirish, uning aqliy, maʼnaviy va axloqiy rivojlanishini amalga oshirish hisoblanadi.

Shiddat bilan rivojlanayotgan davr talabi maxsus taʼlim uslubiyatiga ham turli oʻzgarishlar kiritdi. Bugungi kunda oʻquvchilar bilan qiziqarli, hissiy muloqot qilishni va eng muhimi, eshitishda nuqsoni boʻlgan oʻquvchilar oʻz dunyoqarashi va nutqini shakllantirishni orzu qilmaydigan oʻqituvchining oʻzi yoʻq. Eshitishda nuqsoni boʻlgan oʻquvchilarning bilim, malaka va koʻnikmasini shakllantirish va faollashtirishning samarali vositasi axborot texnologiyalarini taʼlim va tarbiya jarayonida keng qoʻllashmoqda.

Axborot kommunikativ texnologiyaning ish shakllarini faollashtirish, oʻquvchilarning mustaqil fikrlash faoliyati darajasini kengaytirish, qiziqirish shaxsning ijodiy salohiyatini oshirish imkonini beradi. Axborot kommunikativ texnologiya maxsus maktabda taʼlim jarayonini jadallashtiradi, dars samaradorligi tezligini oshiradi, barcha oʻquvchilarning fan nazariyasini oʻzlashtirishini sinab koʻrish, amaliy malaka va koʻnikmalarni rivojlantirish darajasini chuqurlashtirish, har bir oʻquvchi bilan dars jarayonida tabaqalashtirilgan ishlarni olib borish imkonini beradi. Davlat taʼlim standarti boʻyicha maxsus maktabda surdopedagog kar va zaif eshituvchi bolalarning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini va oʻz-oʻzini anglash salohiyatini shakllantirishga, erkin fikrlay olish, oʻzgalar fikrini anglash, oʻz fikrini ogʻzaki va yozma nutq vositasida ravon bayon qila olish koʻnikmalarini egallashlariga erishishi lozim.

Maxsus taʼlim jarayonida maxsus tayyorlangan multimediali ilovalar-

dan, videolavhalardan, turli animatsion materiallardan foydalanib oʻquv jarayoni tashkil qilinganda, oʻquvchilarning amaliy tafakkur va tasavvurlarini shakllantirishda mavzuga boʻlgan qiziqishlari ortadi va tez tushunib olishlariga imkoniyat yaratadi.

- Maxsus maktablarning matematik taʼlim jarayonida AKT (axborot-kommunikativ texnologiyalar) dan foydalanish- oʻquv jarayonini qiziqarli va mahsuldor qilish hisobiga oʻquvchida materialni anglab olish motivatsiyasi ortadi;

- Mustaqil ishlash va oʻzini-oʻzi nazorat qilish koʻnikmasi rivojlanadi;

- Darsning samaradorligi va har bir oʻquvchining oʻzlashtirilishi ortadi, taʼminlanadi;


- Eshitishda nuqsoni boʻlgan oʻquvchining fikrlashini, bilish hissiyotini, maqsad sari intilishlari, matematik tasavvurlarini rivojlantirish hisobi-ga umumiy faol rivojlanishga erishiladi;

- Sinfdagi barcha bolalarning faol ishlashi taʼminlanadi.

Innovatsion va axborot texnologiyalarini maxsus taʼlim jarayoniga tatbiq qilishni zamonaviy axborot dunyosi rivojlanishidagi mantiqiy va zaruriy qadam, deb xarakterlash mumkin. Kompyuterning oʻquv jarayoniga jadal kirib kelishi pedagogikada yuksak oʻzgarishlar, yaʼni oʻqitishning yangi usullari, shakllarini keltirib chiqardi. Maxsus taʼlim jarayoniga kompyuter texnologiyalarini tatbiqʻi masalasini X.X.Malofeyev tahlil etib eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalar taʼlimida kompyuter texnologiyalarini qoʻllash mohiyatini yangi innovatsion yoʻllarini ishlash chiqish zarur deb, baholaydi. Qator olimlarning eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalarning nutqning talaffuz tomonini shakllantirish va rivojlantirish, yozma nutqini rivojlantirish va korreksiyalash, atrof-olam haqidagi tasavvurlarni shakllantirish, inson hayoti haqidagi tasavvurlarni shakllantirish yuzasidan ta-dqiqot ishlarida kompyuter texnologiyalarini ijobiy samarasi taʼkidlanadi. Maxsus taʼlim jarayoniga kompyuter texnologiyalarini tatbiq masalasi ilmiy jihatdan asoslab koʻrsatilgan ammo surdopedagogikada matematika-kada arifmetik amallarni bajarishga oʻrgatish jarayonida eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalar nutqini rivojlantirishda kompyuter texnologiyalarini qoʻllash masalasiga eʼtibor qaratilmagan. Matematika darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish amaliy malaka va koʻnikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, mustaqil ishlarni samarali tashkil etish va oʻquv jarayonini takomillashtirish, adabiyot darslariga qiziqishni oshirish, oʻquvchilarning bilim faoliyatini faollashtirish imkonini beradi. Maxsus maktabda eshitishda nuqsoni boʻlgan oʻquvchilarga matematika fanini oʻqitishning oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, kompyuter texnologiyasidan toʻgʻri foydalanish maqsadga muvofiq.



(1-diagramma)



Shu bilan birga, o'quvchi uchun u turli funksiyalarni bajaradi: o'qituvchi, ishchi vosita, o'quv obyekti, hamkorlik jamoasi, o'yin muhitidir. O'qituvchi vazifasida kompyuter o'quv axborotining manbai (o'qituvchi va kitobni qisman yoki to'liq almashtirish), vizual qo'llanma (multimedia va telekommunikatsiya qobiliyatlari bilan sifat jihatidan yangi daraja), individual axborot maydoni, simulyator, diagnostika va nazorat vositasi sifatida qo'llaniladi. Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning matematika fani bo'yicha asosiy bilimlarini shakllantirish, o'quvchilarning bilimlarini korreksiyalash va nutqini muloqot quroli sifatida shakllantirish jarayonida kompyuter yordamida o'qitish va testlardan foydalaniladi. O'quv jarayonini tashkil etishning ushbu usuli zamonaviy axborotni qayta ishlash tizimida baholash uchun qulay va oson hisoblanadi.

Internet barcha mamlakatlar va xalqlarning odamlarga insoniyatning barcha axborot resurslaridan to'g'ridan-to'g'ri (onlayn) muloqot qilish, uydan chiqmasdan qulay sharoitlarda ma'lumot olish imkonini beradigan yangi global aloqa vositasidir. Shubhasiz, internetda matematik ta'lim uchun zarur bo'lgan barcha narsalar mavjud: klassik nashrlar; bosma nashrlarning elektron shakllari, muzey eksponentlari, rasm galereyalari; darsliklar va o'quv qo'llanmalari; kitoblar; dasturiy vositalar va elektron kutubxonalar. Masofaviy erkin foydalanish, interaktiv usullar, o'qituvchilar, o'quvchilar, do'stlar bilan bevosita muloqot qilish, tarmoq kutubxonalariga tashrif buyurish, internet axborot imkoniyatlaridan foydalanish, usullar va texnologiyalar- bularning barchasidan har bir eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchi unumli foydalana olishi mumkin.

Matematik ta'lim jarayonida interaktiv taxta va multimedia proektoridan foydalanishda eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish, darsda qulay psixologik muhitni yaratish eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning mavzuga qiziqishini saqlab qolish, o'quvchilarning o'zini namoyon etishi uchun shart-sharoitlarni ta'minlash imkonini beradi. Yorqin tasvirlar, ta'sirchan ranglar, tasavvur qilish uchun cheksiz imkoniyatlar yuqori sinf o'quvchilariga o'yin shaklida o'quv materiallarini osongina o'rganish imkonini beradi. Misol uchun, darsda ular turli xil ranglarda doskada yozadilar, resurslar va chizmalar kutubxonasidan foydalanadilar. Interaktiv doskaning imkoniyatlarini bilish, muayyan sinf o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, barcha kerakli matn va grafik materiallarni oldindan tayyorlash, uni dars jarayonida to'g'ri ishlata olish lozim. Shunda matematika darsining samaradorligi oshib boradi, o'qitishda monotonlik, bir xillik yo'qoladi. O'quvchi katta ekranda ba'zan musiqiy ashula va vizual effektlar bilan ko'rgan narsa uzoq vaqt davomida uning xotirasida qoladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar dars mavzusidan chalg'imagay, ularning e'tibori ishlab chiqarilgan materiallarga qaratiladi.

Matematikada arifmetik amallarni bajarishga o'rgatish jarayonida interaktiv doska bilan ishlashning quyidagi shakllarini qo'llash mumkin:

- masalalar va misollar bilan ishlash;
- elektron siyoh bilan eslatma yaratish;
- elektron ensiklopediyalar va xrestomatiyalarni jamoaviy ko'rish;
- elektron ta'lim dasturlarining vazifalari bilan jamoaviy ish;
- elektron ta'lim resurslari bilan jamoaviy ish;
- ta'lim videokliplari orqali eslatmalarni namoyish qilish va qo'llash;
- eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar tomonidan yaratilgan taqdimotlarni namoyish etish;
- elektron interaktiv ta'lim resurslaridan foydalanish.

Har qanday texnik vosita singari, interfaol doskadan ham butun dars jarayonida foydalanilmaydi va sanitariya- gigiyena me'yorlariga muvofiq, u bilan 20 daqiqadan ortiq ishlashga ruxsat berilmaydi.

O'quv jarayonini tashkil qilish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish oz vaqt ichida o'rganilayotgan materialning semantik yadrosini taqdim etish, e'tibor berish kerak bo'lgan asosiy fikrlarni, shuningdek, siqilgan, yorqin va shuning uchun esda qolarli shaklni belgilash imkonini beradi. Shuni ham unutmaslik kerakki, axborot kommunikativ texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llash ularning an'anaviy ta'lim usullari va uslublari bilan muvofiqligi ta'minlangan taqdirdagina samarali bo'ladi.

Matematikani o'qitish jarayonida axborot-kommunikativ texnologiyalarni qo'llash eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning bilimini oshirishning samarali vositasi bo'lib, maxsus maktab o'quvchilarning individual ijodkorlik faoliyatini tashkillashtirish uchun sharoit yaratadi. Shuningdek, kar va zaif eshituvchi bolalarning nutqini muloqot quroli sifatida shakllantirish imkonini beradi.

O'qituvchi o'quvchining bilim darajasi, uning salomatligi holati, tafakkur, xotirasi xususiyatlari va hokazolarni inobatga olib, kompyuterda ishlash vaqtini belgilaydi. Charchoqning sezilishi, diqqatning bo'linishi singari dastlabki belgilaridayoq, o'qituvchi ishni to'xtatishi shart.

Kompyuterda ishlash o'quv vaqtining faqat bir qismini egallashi shart. Yangi nazariy materialni qaytarilishi dars o'tishning aralash shakllarida katta foyda keltiradi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, № 11.
2. Fayziyeva U., Nazarova D., Qodirova F. "Surdopedagogika" – T.: Sano-standart 2012 y. – 304 b.
3. Головчиц Л.А. Дидактические игры для дошкольников с нарушениями слуха. Сборник игр для педагогов и родителей/ Под ред. Л.А.Головчиц. – М.: ООО «Издательство Ритм», 2012. – 160 с.
4. L.R.Mo'minova, Sh.M.Amirsaidova, Z.N.Mamarajabova, M.U.Xamidova, D.B.Yakubjanova, Z.M.Djalolova, N.Z.Abidova. "Maxsus psixologiya" – T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" 2013 y. – 272 b.

MILLIY MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA

X.A.Kadirova, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

В данной статье рассматривается проблема совершенствования национального мировоззрения будущих учителей на основе предмета народной педагогики в высшей школе, внедрения концепции национального духовно-нравственного воспитания.

Ключевые слова и понятия: мировоззрение, личность, национальное мировоззрение, народная педагогика, национальное духовно-нравственное воспитание, национальная нравственная культура, духовность, вера.

Mamlakatimizda milliy ma'naviy-axloqiy tarbiya va ushbu yo'nalishning davomi sifatida barcha sohalar qatori ilm-fan, san'at, adabiyot, ma'rifatga katta e'tibor qaratilmoqda. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yi-

This article discusses the problem of improving the national worldview of future teachers on the basis of the subject of public pedagogy in higher education, introducing the concept of national spiritual and moral education.

Key words and concepts: worldview, personality, national worldview, folk pedagogy, national spiritual and moral education, national moral culture, spirituality, faith.

cha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorigina zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" [1] ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu esa



mamlakatimizni istiqbolda yanada taraqqiy topishiga yo'l ochib beradi hamda keyingi besh yilda isloh qilishning "Yo'l xaritasi"ga aylandi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda oliy ta'lim muassasalarida xalq pedagogikasi o'quv predmeti asosida bo'lajak o'qituvchilarda milliy dunyoqarashni takomillashtirish muhim masala hisoblanadi.

Dunyoqarash – ta'lim oluvchilarning dunyoga va insonning undagi o'rniga, o'z atrofidagi voqeyelikka va o'z-o'ziga munosabatiga bo'lgan umumiy qarashlar tizimi, shuningdek, bu qarashlarga asoslangan e'tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillari deb izohlanadi.

Shunday ekan, milliy dunyoqarash - O'zbekistonda yashab, faoliyat ko'rsatayotgan barcha millat vakillariga tegishli bo'lib, uni O'zbekistondagi turli millat va elat, din va e'tiqod vakillarini mamlakatimizda Ozod va obod Vatan barpo etish uchun birlashtirish, xalqlarni o'zaro hurmat va hamkorlikka chorlash, oliyjanob maqsadlarni ko'zlash kabi umuminsoniy tamoyillarga aylangan g'oyalari, qarashlari va tasavvurlari tizimidir.

Milliy dunyoqarash, kasbiy faoliyatda intizomlilik, diqqatni bir joyga qo'ya bilish, ehtiyotkor, murakkab vaziyatlarda qat'iyatlilik, o'z bilim va ko'nikmalarini doimiy takomillashtirishga intilishni talab etadi. Milliy dunyoqarashga ega bo'lish shaxsda atrof-muhit, ijtimoiy

munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, sub'ektlarga nisbatan ma'lum munosabatning qaror topishi, shuningdek, shaxs tomonidan zimmasidagi ijtimoiy burchlarini to'laqonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas'uliyat tuyg'usiga ega bo'lishi uchun zamin yaratadi.

Shaxsda milliy dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi, uning turli yo'nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o'z-o'zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi.

Talabalarda milliy dunyoqarashning shakllanishida ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o'zlashtirilishi muhim o'rin tutadi. Shaxsning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondashuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo'lgan milliy dunyoqarash mazmunini ifodalaydi.

O'z navbatida dunyoqarashning boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta'minlaydi. O'z mazmunida ezgu g'oyalarni ifoda etgan dunyoqarash shaxs qiyofasida namoyon bo'layotgan ijobiy fazilatlarining boyib borishiga yordam beradi. Shu sababli, har tomonlama yuksak tafakkurga ega bo'lgan kadrlarni, jumladan o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida ularning milliy dunyoqarashini xalq pedagogikasi o'quv predmeti asosida takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Dunyoqarash o'z mohiyatiga ko'ra, ilmiy (muayyan falsafiy tizimga ega) va oddiy (muayyan falsafiy tizimga ega bo'lmagan) dunyoqarash tarzida farqlanadi. Ilmiy dunyoqarash asosida uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o'zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlik kasb etgan g'oyalar yotadi.

Shaxs dunyoqarashini shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega murakkab jarayon sanaladi. Dunyoqarashlar negizida e'tiqod shakllanadi. E'tiqod dunyoqarash negizida aks etuvchi ijtimoiy-falsafiy, tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy-axloqiy, estetik hamda ekologik bilimlarning takomillashgan ko'rinishi.

Muayyan g'oyaga cheksiz ishonch bo'lib, uning shakllanishi bir necha bosqichda kechadi. Birinchi bosqichda ular beqaror va vaziyat taqozosiga ko'ra o'zgaruvchanlik xususiyatini kasb etadi. Ikkinchi bosqichda ma'naviy-axloqiy qarashlarning barqaror tamoyillariga aylanadi. Mavjud talab, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy qoidalardan chetga chiqish qiyin, ziddiyatli vaziyatlarda ongli harakatni tashkil etish, irodaviy sifatlarga tayangan holda ish ko'rish taqozo etiladi. Uchinchi bosqichda, e'tiqod barcha vaziyatlarda ham ustuvor ma'naviy-axloqiy tamoyil bo'lib qoladi. Talaba tomonidan o'zlashtirilgan ilmiy bilimlar hayotiy munosabatlar jarayonida keng qo'llanilganda, ularning asl mohiyati chuqur his qilingan va anglangandagina e'tiqodga aylanadi.

Pedagog-psixologlarning ko'rsatishicha, shaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi, uning turli yo'nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o'z-o'zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi.

Hozirgi kunda uzluksiz ta'lim tizimida quyidagi: aqliy tarbiya; axloqiy

tarbiya; xuquqiy va siyosiy tarbiya; estetik va badiiy tarbiya; ekologik tarbiya; iqtisodiy tarbiya; jismoniy tarbiya kabi tarbiya shakllari mavjud. Biz pedagogik ilmiy va amaliy tahlillar natijasiga ko'ra, bugungi kunda yangi kiritilayotgan "Tarbiya" o'quv predmeti tarkibiga milliy ma'naviy-axloqiy tarbiya tushunchasini kiritishni taklif etamiz. Buning uchun ta'lim oluvchilarda ma'naviy-axloqiy madaniyat shakllantirilishi maqsadga muvofiq.

Ma'naviy-axloqiy madaniyat – O'zbekiston xalqining an'analari, tili va madaniyatini bilish va hurmat qilish, milliy faxr tuyg'usini, o'qimishlilik va aql zakovatligi, axloqiy namunalarining mavjudligi va kundalik hayotida ularga o'xshashga intilishi, bo'sh vaqtlardan foydalanishning ijtimoiy qimmatli usullaridan foydalanishni bilishi, o'zining shaxsiy salohiyati ustida milliy boylik sifatida qayg'urish va boshqalar bo'lib, u xilma-xil munosabatlar jarayonlarida bilim olish, ijodiy va mehnat faoliyati jarayonida namoyon bo'ladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya – yosh avlodni xalqning boy milliy-madaniy tarixiy an'analariga, urf-odatlarida hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladigan tarbiya.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya ma'naviyat va axloqni tarkib toptirishni o'z ichiga oladi. Ma'naviyat – (arabcha – ma'nolar majmui) kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmuidir [2]. Shuningdek, ma'naviyat – kishining ichki, ruhiy, axloqiy qiyofasi tushunchasi bo'lib, ma'lum bir axloq me'yorlari, maromlari asosida yashash tarzidir.

O'rta Osiyo xalqining eng qadimgi «Avesto» diniy kitobining og'zaki vujudga kela boshlashi natijasida, ya'ni miloddan 3000 yillar muqaddam shakllanib kelgan va jahondagi boshqa mamlakatlarda yashovchi xalqlar ma'naviyatidan farqliroq uyat, andisha, sharm-hayo, ibo, or-nomus, iffat, g'urur, izzat-nafs, qadr, insonparvarlik, muruvvat kabi axloq me'yorlariga asoslangan insonning ruhiy, axloqiy qiyofasi bo'lib, shular asosida tashkil topgan urf-odatlar, milliy an'analar va turmush kechirish tarzi hisoblanadi [3].

Ma'naviy-axloqiy tarbiya asnosida talabalarda milliy dunyoqarashni takomillashtirish samarali bo'lishi mumkin. Jahon andozalariga mos yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash ko'p jihatdan oliy ta'limning barqaror rivojlanishiga hamda uni ta'minlovchi pedagog kadrlarni tayyorlash bilan bog'liqdir. Bu o'z navbatida bu o'quv jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar talabi asosida tashkil qilish orqali amalga oshirish, bo'lajak o'qituvchilarda milliy dunyoqarashni takomillashtirishni taqozo qiladi.

Shuningdek, ushbu holat, ta'lim jarayonini bozor iqtisodiyoti talablarini inobatga olgan holda tashkil etish, unga tegishli o'qitish texnologiyalarni joriy qilish, ta'lim mazmunini doimiy ravishda yangilab borishga qaratilgan metodik ta'minotni takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda zamonaviy o'qitish texnologiyalari bilan uzviylikda barkamol shaxs tarbiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblangan milliy dunyoqarashni rivojlantirish va uni pedagogik nuqtai nazardan tadqiq qilish hamda uni yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilganligi bilan dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.

2 Abdurahmonov A. Qadriyat – ma'naviy merosdir // «Ma'rifat gulsani» g. – 12 (77) 2007.

3 Djurayev R.X., Tolipov O'Q., Safarova R.G., To'raqulov X.O., Inoyatova M.E., Divanova M.S. Pedagogik atamalar lug'ati, – T.: 2008.



O'QUVCHILARDA KIMYOVIY BILIMLAR ASOSIDA KASBIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH USULLARI TIZIMI

M.SH.Islamova, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Данная статья посвящена изучению теоретических основ формирования и развития профессионального мировоззрения на основе химических знаний, преподаванию химии в формировании профессиональных установок у студентов, формированию навыков профессионального политехнического мышления на педагогической основе профессионального политехнического мышления.

Ключевые слова и понятия: профессиональное мировоззрение, цели обучения, профориентация, профессиональное политехническое мышление, электронное обучение, профориентация.

This article is devoted to the study of the theoretical foundations of the formation and development of a professional worldview based on chemical knowledge, teaching chemistry in the formation of professional attitudes among students, the formation of professional polytechnic thinking skills on the pedagogical basis of professional polytechnic thinking.

Key words and concepts: professional worldview, learning goals, career guidance, professional polytechnic thinking, e-learning, career guidance.

Kasbiy dunyoqarashni shakllantirish muammosi, shaxsiyat, dunyoning ilmiy manzarasi, o'rganilayotgan bilish metodologiyasi qator faylasuflar (P. Alekseev, V. Andrushchenko, L. Guberskiy, I. Dobronravova, S. Kirilenko, I. Lakatos, G. Platonov, A. Spirkin) tomonidan o'rganilgan. Talabalarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish mavzusi ham tadqiqotlarda (A. Bugaev, M. Golovko, S. Goncharenko, L. Zorina) aks etgan [1].

Bugungi kunda dunyoqarashni o'rganishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar mavjud bo'lsada, bu masala hozirda ham dolzarbligicha qolmoqda.

Shuningdek, ko'pchilik olimlar (Babanskiy Yu.K., Galperin P.D., Lerner I.Ya., Mahmutov M.I., Talizina N.F. va boshqalar) tomonidan o'quv maqsadlarini belgilash usullari, shakllari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, zamonaviy darsning ta'lim berish, tarbiyalash va talaba shaxsini kamol toptirish maqsadlarini aniqlash va ularga erishish yo'llari bo'yicha ma'lum darajada nazariy va amaliy ma'lumotlar [1,3] mavjud.

Kimyo fanini o'qitishda ta'lim oluvchilarni kasbiy faoliyatga yo'naltirishni tashkil etishda, har bir o'quv mashg'uloti uchun pedagogik maqsadlar aniq ishlab chiqilishi lozim.

Pedagogik maqsad - bu pedagog va talabaning hamkorlikdagi faoliyati natijasini oldindan tasavvur etishdir. Pedagogik jarayon, o'zining qanchalik murakkabligi va davomiyligidan qat'iy nazar, u eng avvalo maqsadni aniqlashdan boshlanadi. Pedagogik jarayonning boshqa tashkil etuvchi qismlari (tamoyil, mazmun, uslub, vosita, shakl) belgilangan maqsadga bo'ysunadilar. Ular maqsadga muvofiq holda tanlanadilar va o'zaro uyg'unlashtiriladilar.

Pedagogik jarayonni tashkil etuvchi qismlarining eng muhimi, yetakchisi bo'lgan o'quv maqsadlarini infokommunikatsiya orqali qo'yish va amalga oshirish zamonaviy pedagogik usul bo'lib, o'qituvchi dars yakunida qanday natijaga erishishni, yangi mavzuni axborot texnologiyalari vositasida tushuntirishni, mazmuni o'zlashtirishini va buning natijasida talabalar uni amalda qo'llay olishlariga erishishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Pedagogik amaliyotda mustahkam o'rin olgan o'quv maqsadlarini aniqlashning quyidagi an'anaviy usullari mavjud:

1. Maqsadlarni o'rganiladigan o'quv materialining mazmuni orqali aniqlash.
2. O'quv maqsadlarni o'qituvchi faoliyati orqali aniqlash.
3. O'quv maqsadlarini talabaning intellektual, hissiy sohaga oid ichki rivojlanish jarayonlari orqali aniqlash.
4. O'quv maqsadlarini o'quvchilar xatti-harakati va faoliyati orqali belgilash.

O'quv maqsadlarini o'ta aniq belgilanishi unga erishganlikni yaqqol nazorat qilishga imkon beradi. Bu esa, o'z navbatida talaba shaxsini rivojlanib borayotganlik darajasini hamda o'qituvchi faoliyatidagi kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlab, ularni bartaraf qilish demakdir.

Fikrimizcha, o'quv fani maqsadlarini axborot texnologiyalari vositasida aniqlashtirish va amalga oshirish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Birinchi bosqichda kimyo fani o'qitilishining umumiy maqsadi aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa kundalik va joriy o'quv faoliyatining maqsadlari aniqlanadi. Qismlarga ajratib aniqlashtirilgan va amalga oshirilgan o'quv maqsadlari jadval shaklida rasmiylashtiriladi: ustunda fanning bo'limlari, qatorda esa talabaning bu bo'lim-

larni o'zlashtirishdagi intellektual faoliyatining asosiy turlarining elektron shakllari va variantlari tayyorlanib, kompyuter xotirasiga joylashtiriladi. O'quv maqsadlariga erishganlikni aniqlash elektron baholash usulida amalga oshirilishi mumkin. O'quv maqsadlarining va o'quv jarayonining elektron shaklda tashkil etilishi va natijalarning elektron usulda aniqlanishi ish uslubini tezlashtiradi va faallashtiradi. Shuningdek, har bir bosqichda kasbiy fikrlashni rivojlantirish amalga oshirib boriladi.

Ma'lumki, biror kishining kasb tanlashi va unga mos kasbni tanlashga yordam berish muammosi shaxs va jamiyat rivojlanishi ehtiyojlariga bog'liq.

Kasbni tanlash muammosi nuqtai nazaridan, tanlash bosqichlari o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi va insonning kasb va mutaxassislikni erkin tanlash huquqi, ish beruvchining shaxsiy, shu jumladan kasbga oid ahamiyatligi, fazilatlari va mehnat bozorining talablarini hisobga olgan holda mutaxassislarni tanlash huquqiga mantiqiy mos kelganda bo'ladi.

Maktabda olib borilgan kasbiy maslahatlarning samaradorligi insonning mehnat jarayoni va undan xabardorligi kengligi va chuqurligi bilan belgilanadi. Ushbu bilim maktabda darslarda, shuningdek, to'garaklarda darsdan tashqari va bo'sh vaqtlarda olinadi hamda buning natijasida shaxsning muayyan kasbga moyilligi oshib boradi. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish jarayoniga ularning kasbiy-mehnat sohasiga munosabatini va shaxsni shakllantirish jarayoni ichki va ijtimoiy kasbiy ehtiyojlar va hayotning ajralmas qismi sifatida qaralishi mumkin.

70-yillarda kasbga yo'naltirishni amalga oshirish, 80-yillar kasbiy faoliyatning nazariy asoslari bo'yicha maslahatlar tashkil etish, (E.A.Klimov), yoshlarni kasbga yo'naltirishda mehnat ta'limi o'rni va ahamiyati (P.R.Atutov, V.A.Polyakov), maktab va oilaning muvofiqlashtirilgan o'zaro ta'siri bilan o'quvchilarning kasbiy yo'naltirish afzalliklari va xususiyatlari (L.V.Botyakova, M.S.Savina) [5] kabi tadqiqotlar amalga oshirilib hayotga tatbiq etilgan.

Kasbiy munosabatlarni shakllantirishda o'z-o'zini boshqara olish, o'z faoliyatining sub'ektiga aylanish jarayoni muhim hisoblanadi. Bundan tashqari ta'lim oluvchini qanday qilib kasbiy-madaniy faoliyatga yo'naltirish mumkin, ishonirish, ishonchni oqlash, o'zgalarga nisbatan ishonchni yuzaga keltirish masalalari o'ta muhim sanaladi.

Munosabatlarning mohiyati rivojida o'quvchining kasbiy-madaniy munosabatlarini bevosita ikki xil ko'rinishda amalga oshiriladi.

1. Individual xususiyatlar bilan bog'liq bo'lgan munosabat.
2. Kasbiy – madaniy maqsadlarga qaratilgan munosabat.

Bunda, o'quvchining individual (yakka tartibdagi) xususiyatlari, avvalo uning xarakteri, diqqati, xotirasi, irodaviy sifatleri bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Psixolog bundan tashqari shaxslarning sog'ligi, ijtimoiy kelib chiqishi va oilaviy shart-sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlarini, albatta nazarda tutish lozim.

Kasbiy-madaniy maqsadlarga qaratilgan munosabatda o'quvchining kasb tanlash motivlari, uning o'sib borishi dinamikasiga alohida e'tibor qaratiladi.

O'quvchilarda muayyan kasbga bo'lgan munosabatlarni shakllantirishda ijobiy o'zgarishlarga erishish, ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi dinamikasi bilan bog'liq.

Kasbiy-madaniy munosabatlarni amalga oshirish pedagogik ta'lim-tarbiyaviy ishlarni to'g'ri rejalashtira olish, ota-onalar bilan o'zaro munosabat o'rnatish, o'zining kasb-faoliyatini to'g'ri tahlil etib, yan-



gilikka va ijodkorlikka intila borish bilan bog'liq.

Yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etishda:

- muayyan nazariy hamda amaliy bilimlarni o'zlashtirishga va kasb tanlashga bo'lgan ijtimoiy yoki shaxsiy ehtiyojlarning yuzaga kelishi;
- muayyan sohaga oid nazariy hamda amaliy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ehtiyojini yuzaga kelishi;
- o'quvchining o'quv-bilish faoliyati mazmunini belgilash;
- o'quvchini bilish faoliyatini yo'lga qo'yishda kasbga qiziqtirish omillarining mavjudligi muhim ahamiyatga ega.

Qayd etilgan omillarning barchasi ta'lim-tarbiya jarayonida, muayyan fanni o'qitish davomida amalga oshirilishi lozim. Shuningdek, darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlari mazmunini yanada boyitadi. Shu sababli darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishini mazmunini tanlash mezonlari ishlab chiqildi.

Kimyo fanini kasbga yo'naltirib o'qitishda kasbiy politexnik fikrlashning pedagogik asoslanib, pedagogik va psixologik tadqiqotlarda aniqlangan va sinovdan o'tgan kasbiy politexnik fikrlash ko'nikmasini shakllantirish uslublari umumlashtirildi.

Demak, o'quvchilarda kimyoviy bilimlar asosida kasbiy dunyoqarashni shakllantirishning quyidagi usullari tizimini joriy etishni taklif etamiz:

1. Fanning o'quv mavzulari bo'yicha dars maqsadlarining an'anaviy (ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi) shakllarini yanada takomillashtirgan holda (kognitiv, psixomotor, affektiv) qo'llash;

2. O'quvchilarda kasbiy-madaniy munosabatlarni shakllantirish;

3. Umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilarida fanlarni o'qitishda kasbiy yo'naltirilgan ta'limni joriy etish (tadqiqot ishimizda, kimyo fani misolida);

4. Kimyo fanini o'qitishda o'quvchilarda kasbiy politexnik fikrlashni shakllantirish;

5. O'quvchilarning kasbiy dunyoqarashini shakllantiruvchi fan va kasbiy bilimlarni o'zlashtirishning mazmuni va usullarini kasbiy va shaxsiy rivojlanish, o'z-o'zini rivojlantirish jarayonlari bilan uyg'unlashtiradigan texnologiya ishlab chiqish

6. Elektiv ta'limni o'qitishning butun davri davomida uzluksiz va ketma-ket ravishda tashkil qilish va boshqalar.

Adabiyotlar

1. Выготский Л.С. Собрание сочинений. В 6 томах – М.: Педагогика, 1983. – Т. 3.

2. Кудрявцев Т.В. Исследование психологических особенностей профессионального становления личности // Методологические проблемы повышения эффективности психолого-педагогических исследований. – М.: 1985.

3. Максимова В.Н. Межпредметные связи в процессе обучения – М.: Просвещение, 1988.

4. Шадрников В.Д. Проблемы системогенеза профессиональной деятельности. – М.: 1982.

XALQ HUNARMANDCHILIGINI O'RGANISHDA O'QUVCHILARDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

M.YU. Yakubova, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Народные промыслы играют важную роль в духовном воспитании школьников, знакомстве с ремеслами, традициями, многовековыми национальными ценностями своего народа, развитием творческих способностей и духовных качеств, а также в профориентации.

Ключевые слова и понятия: народные промыслы, профориентация, креатив, национальность, креативность, национальные ценности, креативная личность, креативное мышление, формирование, развитие.

Folk crafts play an important role in the spiritual education of schoolchildren, acquaintance with crafts, traditions, centuries-old national values of their people, the development of creative abilities and spiritual qualities, as well as vocational guidance.

Key words and concepts: folk crafts, vocational guidance, creativity, nationality, creativity, national values, creative personality, creative thinking, formation, development.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019 yil 28 noyabrda imzolagan qarorida ko'rsatilganidek, yoshlarni xalq san'ati ustalarining ko'nikmalariga o'qitib, o'rgatish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni vujudga keltirishda amaliy yordam ko'rsatish eng muhim vazifadir [1].

Xalq hunarmandchiligi tarixi xalqlarning, jumladan, o'zbek xalqining paydo bo'lishi, shakllanishi, tarixiy rivojlanishi, milliy qadriyatlarini ifodalaydigan soha bo'lib xizmat qila oladigan ma'naviy, moddiy, madaniy merosimizdir. Shuning uchun yoshlarga, maktab o'quvchilariga xalq hunarmandchiligiga oid ishlarni o'rgatish, ularni ma'naviy tomondan tarbiyalash, o'z xalqining hunarmandchiligi, urf-odatlarini, asriy milliy qadriyatlarini bilan tanishtirishda va kasb-hunarga yo'naltirishda katta ahamiyatga egadir. Bu borada umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan mehnat ta'limi o'quv fanida o'quvchilarga xalq hunarmandchiligi haqida ma'lumot berish, xalq hunarmandchiligiga oid ishlarni o'rgatish ko'zda tutilgan bo'lib, bunda bevosita yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish uchun katta imkoniyatlar mavjud.

Xalq hunarmandchiligi 150 dan ziyod sohaga ega bo'lib, o'zida mehnat va kasb ta'limining ko'pgina xususiyatlari amaliylik, ijodiylik, milliylik, mahalliy xomashyolarni topish va ularga ishlov berishning qulayligi, o'g'il va qiz bolalar mehnatining o'ziga xosligi, shahar va qishloq maktabini uyg'unlashtira olishi, asosiy hollarda murakkab qurilmalar, uskunalar, asboblardan va stanoklar talab qilmasligi, mashg'ulotlarni tashkil

etishning soddaligi bilan ajralib turadi. Jumladan, naqqoshlik, yog'och va ganch o'ymakorligi kabi xalq hunarmandchigi turklarini maktab o'quvchilariga o'rgatish katta qiyinchilik tug'dirmaydi. Natijada bunday sohani yetarlicha o'rgangan, ma'lum kasblarni egallagan yoshlarning ishsiz qolmasliklari, mehnat bozorining raqobatbardoshligi bilan alohida e'tiborga molikdir [2].

Xalq hunarmandchiligi san'ati milliy qadriyatlarini, ananalarini izchil o'rganish, rivojlantirish va takomillashtirgan holda boyitib borish malaka va ko'nikmalariga asoslanadi. Binobarin "Talim to'g'risida"gi qonunda: «Umumiy talim uzluksiz davlat ta'limi tizimida asosiy bo'g'in bo'lib, ta'lim oluvchilar ilmiy bilim, mehnat va boshlang'ich kasb-kor ko'nikmalari, ishbilarmonlik asoslarini egallashlari, shuningdek, ijodiy qobiliyatlarini va manaviy fazilatlarini rivojlantirishni taminlaydi, - deb ta'kidlangan.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarining mehnat va kasb tayyorgarligi tizimini amalga oshirish, bunda milliy, tarixiy, xududiy, ma'naviy, madaniy va etnik xususiyatlarni yetarlicha ifodalash maqsadida umumta'lim maktablarida "Texnologiya" fani 5 ta yo'nalishda, jumladan, «Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi» bo'limi o'qitiladi. Xalqimizning uzoq o'tmishga-eramizdan avvalgi davrlarga borib taqaladigan hunarmandchiligi, amaliy san'ati, milliy qadriyatlarini chuqur yoshlar ongiga singdirish uchun mehnat va kasb ta'limini o'qitishda xalq hunarmandchiligi sohalarini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Me'nat bozoridagi innovatsion, kreativ mutaxassislariga bo'lgan talab o'quvchilarni yanada yuqori darajadagi bilimlarni egallashlariga, kreativlik va innovatsion potentsialning shakllanishi



vazifasini yuklaydi.

Innovatsion faoliyatning alohida va umumiy jihatlarini o'rganish borasida ko'plab pedagog-olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Masalan: N.N.Azizxo'jayeva, B.L.Farberman, N.Saidaxmedov, M.Ochilov, B.R.Adizov, M.H.Maxmudov, S.Ziyamuxamedova, B.Ziyamuxamedov, U.Nishonaliyev, R.Jo'rayev, O.Tolipov, rossiyalik olimlar V.P.Bespalko, M.T.Gromkova, V.A.Slastenin, L.S.Podymova, M.V.Klarin, ye.P.Morozov, P.I.Pidkasistuy, N.V.Konoplina, M.M.Potashnik, Xutorskiy A.V., N.R.Yusufbekova, V.I.Andreev, P.G.Shedrovitskiy va boshqalar.

Yuqoridagi tadqiqotlar mualliflari aniq dalillaridan kelib chiqib, o'quv yurtini tugatgan bitiruvchilarning innovatsion kreativlik sifatлари yaxshi rivojlanirilmaganligini e'tirof etganlar.

Jamiyatning rivojlanishi o'qituvchidan innovatsion axloqni, ya'ni pedagogik faoliyatda faol tizimli ijodni talab etadi.

Innovatsion axloq – bu o'z individualligini, o'zini namoyon etishning maksimal rivojlanishidir. Jamiyatda insonni innovatsion faoliyatni to'xtatishga majbur qiluvchi bir necha maxsus usullar "mavjud". O'qituvchi innovatsion faoliyatni amalga oshirishda xalaqit beruvchi psixologik to'siqlarni, "komplekslarni" anglashi, boshdan kechirishi va ulardan qutulishi lozim. Pedagogning axloqini va ichki olamini standartlashtirish uning faoliyatida ko'proq instruktiv yozmalarning ustunlik qilishiga olib keladi. Uning ongida ko'proq turli xil pedagogik faoliyatning tayyor namunalarini to'planadi. Bu esa o'qituvchini pedagogik hamkorlikka qo'shilishiga olib keladi, ammo uning kreativligi darajasini pasaytiradi.

Kreativlik – insonning fikrlashida, hissiyotida, muloqotda, faoliyatning alohida turlarida namoyon bo'luvchi ijodiy imkoniyati, qobiliyati, shaxsni bir butunlikda yoki uning alohida tomonlarini, faoliyati hosilasini, uni yaratish jarayonini karakterlaydi. Individning original xazinani yaratuvchi, nostandart qarorni qabul qiluvchi ichki xususiyatini aks ettiruvchi qobiliyat-kreativlik iste'dodning muhim va nisbatan mustaqil faktori sifatida qabul qilinadi, u ba'zan intellekt matnidagi akademik yutuqlarda namoyon bo'ladi [3].

O'quvchilarda innovatsion kreativlikni shakllantirishning turli shakllarini izlash o'quv yurtlaridagi hal qilinmagan muammolardan biridir. Bu muammo yangi pedagogik muammolarni aniqlash va anglash, nazariya va amaliyot tahlilida tanqid va o'z-o'zini tanqid, ta'lim, tarbiya va o'quvchi shaxsini rivojlantirishda nostandart yo'llarni tanlash, uslub va uslubiyotdagi dogmalardan voz kechish bilan karakterlanadi.

Ta'lim jarayonida pedagogga xos kreativlik sifatleri o'quvchilardagi tashabbuskorlik, intiluvchanlik, ijodkorlik, noodiaty fikrlash kabi xususiyatlar bilan uyg'unlashishi muhim o'rin tutadi. Kreativ yondashuv shaxsning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqaribgina qolmay, balki, o'quvchilarda mustaqillik, ijodkorlik sifatlarini tarkib topishiga, ularning faollashuviga ko'mak beradi.

O'quvchilarda kreativliklikni shakllantirishning to'rtta yo'li mavjud:

1-yo'l: kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish. Bunda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish asosiy e'tibor markazida bo'lib, o'quvchilar ish bajarish usullari asosida fe'llar yordamida kreativ karakterdagi harakatlarning mohiyatini ifodalashga yo'naltiriladi. Xususan, o'qituvchilar kreativ fikrlash ko'nikmasini samarali shakllantirish maqsadida o'quvchilarga ularni fikrlashga undovchi savollar tarkibida mavzu bo'yicha mahsulotni tayyorlash usullarining bo'lishiga e'tibor qaratiladi. Bu holat misollar bilan tushuntirilsa, o'quvchilarda "Xalq hunarmandchiligida-zardo'zlik" mazmunidagi nazorat savoli ularda kreativlikni shakllantirmaydi. Zero, savol tarkibidagi "ta'riflab bering" tushunchasi o'z mohiyatiga ko'ra "mavjud bilimlaringizni birma-bir aytib o'ting" deyish bilan teng. Nazorat savollarini berishda o'quvchilarni fikrlashga undovchi so'z (fe'l)lardan foydalanish ularning kreativ fikrlashlarini osonlashtiradi. Shu sababli shaxsda kreativ sifatlarini shakllantirishning birinchi yo'lga ko'ra pedagoglar turli, antiqa,

noan'anaviy hamda puxta javobni berishga majbur qiluvchi so'z (fe'l)lardan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir. Masalan: "yaratish", "fikrni mantiqan bayon eting", "tasavvur qiling" kabi so'z (fe'l)lardan foydalanish amaliy jihatdan samarali sanaladi. Natijada o'quvchilar ham mavjud bilimlarni umumlashtirish, ham yangi fikr va g'oyalarni ilgari surish imkoniyatiga ega bo'ladi.

2-yo'l: amaliy kreativ harakat ko'nikmalarini rivojlantirish. Pedagog o'quvchilarda kreativ harakat ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ko'rsatmalı metod va usullardan foydalanadi. Bu o'rında "usulni toping", "o'zgartirish kiriting", "maqbul variantni tanlang" kabi kreativ amaliy harakat ko'nikmalarini shakllantirish, o'quvchilarda interfaollık va kirishimlilikni rivojlantirish imkoniyati.

3-yo'l: kreativ faoliyat jarayonlarini tashkil etish. Bunda o'quvchilarning muammoni yechish va innovatsion g'oyalarni ilgari surish jarayonida kreativ, ijodiy fikrlashiga urg'u beradi. Mazkur jarayonlarda kreativ metod va usullar faol qo'llanilmasa-da, kreativ fikrlash yuz beradi. Masalan: "yangicha ko'rinish hosil qiling", "boshqacha usulda tayyorlang", "optimal variantni tanlang" kabi topshiriqlarni bajarar ekan, o'quvchilar xalq hunarmandchiligida zardo'zlikni takomillashtirish bilan bog'liq turli muammolarni tahlil qiladi. Natijada ushbu jarayonda ko'p tomonlama fikrlash, mushohada yuritish ro'y beradi.

4-yo'l: kreativ mahsulot ishlanmalardan foydalanish. Bu yo'lni tutishda pedagog o'quvchilarga "Xalq hunarmandchiligida zardo'zlik va mening yangi g'oyalarni" mavzusida o'z ishlanmasini yaratish topshirig'ini berishi mumkin. Topshiriqni tayyorlash jarayonida o'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalari faol rivojlanadi. O'quvchilar o'zlarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to'la namoyon qilishlari mumkin. Agar o'quvchilarda muvaffaqiyatsizlikka uchrash qo'rquv hissi mavjud bo'lsa, fikrni noto'g'ri ifodalashdan hadiksirasalar, tanqidga uchasalar bunday vaziyatda ularda kreativ fikrlash ko'nikmalarini samarali shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin bo'lmaydi. O'quvchilarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko'nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin.

Ta'lim amaliyotini kuzatish, o'quvchilar o'quv faoliyatini o'rganish, tashxislovchi metodlarni qo'llash natijasida ma'lum bo'ldiki, o'quvchilarda kreativlik muayyan bosqichlarda, ya'ni kreativlik quyidagi to'rt bosqichda shakllanadi va rivojlanadi (1-jadval):

Kreativ shaxsning shakllanish bosqichlari

1-jadval

Bosqichlar	Mazmuni
1-bosqich	Maktabdagi turkum fanlarning (jumladan, Texnologik ta'lim) fanini nazariy-metodologik asoslarini o'zlashtirish
2-bosqich	O'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim jarayonida amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalarini hosil qilish
3-bosqich	Mustaqil ravishda o'qib-o'rganish va ijodiy izlanish asosida hosil qilingan amaliy ko'nikmalarning malakalarga aylanishiga erishish
4-bosqich	Mavjud nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarga tayangan holda faoliyatni samarali tashkil etishga psixologik jihatdan tayyorlanish

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish murakkab jarayon sanaladi. Buning uchun, "Texnologik ta'lim" fanini o'qitishda kreativ karakterga ega mashg'ulotlarni tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunday mashg'ulotlar o'quvchilarning qiziqishlarini kuchaytirib, ularni yanada ko'proq harakat qilishga undaydi. Xalq hunarmandchiligini o'rganish jarayonida o'quvchilarda kreativlik sifatlarini rivojlantiruvchi metod, vosita va texnologiyalarini va yuqoridagi o'quvchilarda kreativlikni shakllantirishning to'rtta yo'lini uyg'unlikda qo'llash o'z samarasiga ega.



Xalq hunarmanchiligi yoshlarning tafakkuri, tasavvuri, estetik didi, epchilligi kabi sifatlarini shakllantirishga yordam beradi. Zoro, bu sifat va fazilatlar yosh avlodni har tomonlama rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash

bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019 yil 28 noyabrda qarori. www.lex.uz.

2. O'razov B.X., Karimov I., Muronov B.I. V-sinfda mehnat ta'limi darslarida xalq hunarmandchiligi ishlarini o'rganish. Uslubiy qo'llanma. – T.: "Fan va texnologiyalar", 2011, – 38 b.

3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARGA KASBIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH TIZIMLARI

N.N.Bozorov, M.F.Qurbonova, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

В статье описаны механизмы формирования профессиональной компетентности студентов педагогических вузов. Также здесь говорится о понятии профессиональной компетентности, профессиональной культуре, их направлениях.

Ключевые слова и понятия: профессиональная компетенция, культура, педагогическое образование, педагогическая культура, компетентность.

The article describes the mechanisms of formation of professional competence of students of pedagogical universities. It also talks about the concept of professional competence, professional culture, and their directions.

Key words and concepts: professional competence, culture, pedagogical education, pedagogical culture, competence.

Dunyoda bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni tarkib toptirish, kasbiy kompetensiyasini o'zlashtirishda qadriyatlar tizimidan foydalanish, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlari, jumladan, modul texnologiyalarining didaktik tizimini takomillashtirish dolzarblik kasb etgan. O'zbekiston ta'lim tizimida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi, jumladan, kelajak avlodning ma'naviy, axloqiy hamda jismoniy rivojlanishiga alohida urg'u berilmoqda. Hozirgi bosqichda shaxs ta'lim va tarbiyasining maqsadi milliy istiqloq g'oyasiga mos ravishda ma'naviy va axloqiy yetuk, har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish, umumiy demokratik jarayonlar bilan bog'liqlikda insonlar ongida yangi ilg'or qadriyatlarni qaror toptirishdan iborat. Shaxs, jamiyat munosabatlarning uyg'unlashuvi, muloqot madaniyati (shaxslararo, ommaviy) kabi qadriyatlar tobora ustuvor bo'lib bormoqda. Ushbu xususiyat oliy o'quv muassasalarida, birinchi navbatda, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'qiyotgan bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy madaniyatini samarali shakllantirishning zarurligini asoslaydi. Bugungi kunda kadrlar yangi avlodi – yoshlarni o'qitish, tarbiyalash va shakllantirishga mas'ul shaxs-kadrlarning kommunikativ sifatleri alohida usuvor hisoblanmoqda.

Davlat ta'lim siyosatida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasi, ularning kasbiy-muloqot madaniyatiga jiddiy e'tibor berilmoqda. Hozirgi zamon pedagogika ta'limida kasbiy madaniyatga qadriyat sifatida qaralib, bunda:

kadrlar tayyorlash milliy dasturining konseptual-ta'limiy yo'nalishlari, maqsadlari va vazifalarini hisobga olish; yangi dasturlar, darsliklar, qo'llanmalar yaratish, tavsiyalarni yangilash, takomillashtirish, modernizatsiyalash; ilmiy-pedagogik tizimda ilmiy jihatdan asoslangan tizimli pedagogik madaniyatni shakllantirishga e'tibor qaratiladi.

Davlat ta'lim siyosatida hozirgi zamon ta'limining ustuvor yo'nalishi bu – hozirgi zamon gumanitar konsepsiya kontekstida bo'lajak o'qituvchilar tayyorlashni takomillashtirishdir. Eng avvalo, bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik madaniyatni shakllantirish yo'nalishidagi ishlar takomillashtirilishi lozim. Shu munosabat bilan ta'lim jarayonida bo'lajak mutaxassis shaxsi, uning kasbiy-shaxsiy tayyorgarligi, ayniqsa, intellektual-ijodiy, faoliyatli-amaliy va ijtimoiy-kommunikativligi, uning kasbiy madaniyat – pedagogik muloqoti ustuvorligiga alohida e'tibor qaratilgan. Oliy pedagogik ta'lim oldida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy madaniyatni shakllantirish orqali ularni kelgusidagi pedagogik faoliyatga yanada sifatli tayyorlash vazifasi turibdi.

Pedagogika ensiklopediyasida kasbiy madaniyat tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Kasbiy madaniyat – insonning olgan bilim va tajribasiga asoslangan malakali harakatlar yoki mehnat faoliyatining mahsulidan bunyod bo'lgan narsalar, o'zgaralarda zavq uyg'ota oladigan ijtimoiy hodisa. Shaxsning kasbiy madaniyati bili-

mi, malakasi, ko'nikmasi, qobiliyati, axloqiy va estetik rivojlanishi, dunyoqarashi, odamlar bilan o'zaro muloqot qilish usul va shakllari, iste'dodi darajasida amalga oshiradigan kuchi va salohiyatini o'z ichiga oladi. Kasbiy madaniyatni o'zlashtirish ko'rsatgichlari va natijalari kishining kasbiy layoqatliligi, ishlab chiqarish, foydalanish, ishchi holatida saqlab turish qobiliyatlari, kasbiy harakatchanlik; o'qish, bilimlarni va texnologiyalarni qo'llash malakasini oshirish; ixtisoslashish qobiliyati; tashkiliy – kasbiy faoliyat masalalari borasida o'zini o'zi axborot bilan ta'minlash, o'z xatti-harakatlarini hamkasblari bilan muvofiqlashtirish, qaror qabul qilish, o'zini o'zi idora qilish, mustaqillik, yakuniy natijaga yo'naltirilgan o'zini o'zi tekshirish, rasmiy shaxslar bilan ish yuzasidan olib boriladigan munosabatlarni amalga oshirishda, ishga qabul qilish hujjatlarini rasmiylashtirishdagi kasbiy, axloqiy ko'rinishi, ish joyi va jihozlarni tutishi, ilg'or tajriba, innovatsion jarayonlar, zamonaviy texnologiyalarni anglashi va qo'llashi bilan ijodiy qobiliyatlaridir. O'qituvchining kasbiy madaniyati uning barcha bilimlari, layoqati, muloqotga kirishuvchanligi, pedagogik mahorati, o'qituvchilar bilan munosabatini o'zida mujassamlashtiradi" [1].

Ushbu ensiklopediyada pedagogik madaniyat tushunchasi ham ochib berilgan. Jumladan, "pedagogik madaniyat – o'qituvchining o'z kasbiy faoliyati jarayonida erishgan yutuqlari, ma'rifatliligi, kasbiy odobi, mahoratini ifodalovchi atama. O'qituvchi pedagogik madaniyatning tarkibiy qismlari sifatida uning intellektual rivojlanganlik darajasi, kasbiy tafakkuri, kasbiy kompetensiyalari, odobi, imidji, muloqot ko'nikmalari tashkil etadi" [2].

"Kompetentlik" tushunchasining mohiyati. Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo'sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o'zida qanday kompetentlik sifatlarini yoritishi zarur. Ayni o'rinda shu va shunga yondosh g'oyalar yuzasidan so'z yuritiladi. "Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Inglizcha "competence" tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita "qobiliyat" ma'nosini ifodalaydi [3].

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:



1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub'ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholashni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi. Ular o'zida quyidagi mazmuni ifodalaydi:

Sifatlar:

Ijtimoiy kompetentlik.

Shaxsiy kompetentlik.

Texnologik kompetentlik.

Maxsus (yoki kasbiy)kompetentlik.

Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlar:

Ektremal kompetentlik.

Psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion, kommunikativ va boshqa kompetentlik - murakkab jarayonlarda; noaniq vazifalarni bajarishda; bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda; kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda o'z bilimlarini izchil boyitib boradi; yangi axborotlarni o'zlashtiradi;

davr talablarini chuqur anglaydi; yangi bilimlarni izlab topadi; ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi [3].

1) psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

2) metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash;

3) informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinni, samarali foydalanish;

4) kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

5) innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish;

6) kommunikativ kompetentlik – ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish.

3. Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

4. Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogikni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

5. Ektremal kompetentlik – favqulodda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan) da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik. Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan. Bunday tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin. O'z tadqiqotlarida A.K.Markova pedagogning kasbiy kompetentligi quyidagi tarkibiy asoslardan iborat ekanligi aytiladi [4]

6. Pedagogning kasbiy kompetentligi. O'zbekistonda pedagogning kasbiy kompetentligi, uning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan bo'lib, ular orasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqot o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida quyidagi tarkibiy asoslar tashkil etadi. Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi. O'z ustida ishlash quyidagilarda ko'rinadi:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;

Tarkibiy asoslar Maxsus yoki kasbiy kompetentlik (kasbiy faoliyatni yuqori darajada tashkil etish) Shaxsiy kompetentlik (o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini namoyon etish) Individual kompetentlik (o'z-o'zini boshqarish, kasbiy rivojlanish va yangiliklar yaratish) Ijtimoiy kompetentlik (qo'shimcha faoliyatni hamkorlikda tashkil etish).

Umuman olganda, pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalariga kasbiy kompetensiyani shakllantirish bugungi kunda zamon talabi hisoblanadi. Uzluksiz kasbiy (pedagogik) ta'lim tizimida har tomonlama rivojlangan, ma'naviy jihatdan boy, ijtimoiy jihatdan faol, intellektual-ijodiy, kasbiy-kreativ, kommunikativ-faoliyatli shaxsning shakllantirilishi nazarda tutilgan. O'zbekiston Respublikasining davlat ta'lim siyosatida barcha sohalarida muloqot madaniyati, eng avvalo, kasbiy madaniyatiga alohida e'tibor qaratish, bu borada ilmiy-amaliy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar

1. Sayidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya. 2003.
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf, 2000.
3. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'ra'yev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015.
4. Yo'ldoshyev J.G., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2004.

O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH –SHAXSIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH MEZONI SIFATIDA

L.Bobaxodjayeva, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

В статье рассматривается отношение учеников к изучению естествознания, важность критического мышления в понимании его сущности и формирования навыков самостоятельного обучения, а также содержание критического мышления и основы познавательных компетенций.

Ключевые слова и понятия. Критическое мышление, рассуждение, подход, педагогический этикет, компетентность, альтернативное мышление, умственная деятельность.

The article examines the attitude of students to the study of natural science, the importance of critical thinking in understanding its essence and the formation of independent learning skills, as well as the content of critical thinking and the basis of cognitive competencies.

Key words and concepts. Critical thinking, reasoning, approach, pedagogical etiquette, competence, alternative thinking, mental activity.

Ta'lim muassasalaridagi ta'lim tarbiyaning millatimiz mintalitetiga xos bo'lgan kundalik an'alariga uyg'un tushmaydigan jihatlari ham mavjud. Misol tariqasida tanqidiy fikrlashni keltirish mumkin. Qadimdan yoshi ulug' kishilarga gap qaytarmaslik, ularning

fikrini bo'lmaslik, ya'ni xalq pedagogikasida odob-axloq normalariga qat'iy amal qilish kerakligi ta'kidlab kelingan. Bugunga kelib o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish zamon talabiga aylandi, bu an'analarga zidmi yoki unga umumbashariy zarurat, fan-texnika



taraqqiyot hosilasi sifatida ham qarash kerakmi?

Ma'lumki, bugungi kun pedagogikasida tanqidiy fikrlashga XXI-asr talablari bilan muvaffaqiyatli kurashishimizga imkon beradigan ma'lum bir ko'nikma, biz nima o'rganayotganimiz va nima qilayotganimizni yaxshiroq tushunishga yordam beruvchi yondashuv sifatida qaraladi. Tanqidiy fikrlash nima degan savolga yosh o'qituvchilar ham, ta'lim sohasida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamkasblar ham javob berishga biroz qiynalishadi. Ushbu atama juda ko'p turli parametrlarni – ko'nikmalar, faoliyat turlari, qadriyatlarini o'z ichiga oladi. Adabiyotlarda ushbu atamaga oid ko'plab ta'riflar mavjud bo'lsada, ular bir-biriga mos kelmaydi. Ayni paytda, bu hodisa hamma uchun– bog'cha tarbiyachisimi, boshlang'ich sinf o'qituvchisi yoki universitet o'qituvchisimi, turli xil etnik guruhlar va madaniyat vakillari uchun bir xil ravshan bo'lishi va shuning uchun uning ta'riflari yetarlicha moslashuvchan bo'lishi kerak, deb hisoblaymiz. Shu o'rinda tanqidiy fikrlashga berilgan ta'rifga o'tishdan oldin, aqliy faoliyatning tanqidiy fikrlash deb atash mumkin bo'lmagan ayrim turlariga to'xtalib o'tamiz. Amerikalik olim Devid Klasterning fikricha, oddiy yodlash tanqidiy fikrlash emas, inson xotirasi ham ta'lim jarayonining eng muhim aqliy operatsiya bo'lsada, ammo u tanqidiy fikrlashdan tubdan farq qiladi. Kompyuterining xotirasi deyarli barchamizga qaraganda ancha yaxshi, ammo biz uning eslash qobiliyati fikrlash emasligini tushunamiz. To'g'ri, ko'plab maktab o'qituvchilari eskirgan usulda xotirani fikrlashdan ustun qo'yadilar va testlar, imtihonlar orqali faqat o'quvchilar xotirasining hajmini tekshiradilar, lekin tanqidiy fikrlash tarafdorlari, hali ham aqliy faoliyatning murakkab turlariga e'tibor qaratish zarur, deb hisoblaydilar.

“Tanqidiy bo'lmagan” fikrlashning yana bir turi sifatida murakkab g'oyalarni tushunishni ham olish mumkin, unda ham ta'lim jarayoni bo'lmaydi. Biologiya va matematika, ingliz tili, tarix yoki fizika darslarida o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlar yoki darslikda fikrlash materiallarni tushunish uchun ba'zan o'quvchilar ko'p bosh qotirishlari talab etiladi. Tushunish qiyin bo'lgan aqliy operatsiyalar, masalan, o'quvchilar Eynshteynning nisbiylik nazariyasini tushunishga harakat qilmoqda yoki matematikadan ekstremum nuqtalari haqidagi teorema ustida ishlayotgan bo'lsin. Albatta, uning boshida murakkab intellektual jarayon davom etmoqda, ammo u hali tanqidiy fikrlamaydi. Ya'ni, haqiqiy tushunish har doim tanqidiy fikrlashni anglatmaydi, chunki o'quvchi boshqalarning g'oyalarni tushunarli til va aqliy darajaga o'tkazadi. Bunda fikrimiz passiv bo'ladi va biz faqat bizdan oldin kimdir yaratgan narsani idrok etamiz. Tanqidiy fikrlash esa, yangi g'oyalar sinovdan o'tkazilganda, baholanganda, ishlab chiqilganda va qo'llanganda sodir bo'ladi. Biror qoidani, faktlarni yodlash va g'oyalarni tushunish tanqidiy fikrlash uchun zaruriy shartlar hisoblanadi.

Ijodkorlar, ya'ni rassom, musiqachi yoki sportchining miyasi ham murakkab faoliyat jarayonlarida ishtirok etsada, agar ular faoliyatini yangi boshlamayotgan bo'lsa, ularni ham tanqidiy fikrlash qatoriga kiritib bo'lmaydi. Ularning faoliyati professional darajaga yetgach, ular buni sezmaydilar ham. Odatda, bunday fikrlash jarayonlari ongsiz bo'lib qoladi. Masalan, Messi professional futbolist sifatida juda taniqli. Faraz qilaylik, darvozaga tepishdan oldin u shunday o'ylaydi: «Vaqt to'g'ri keladimi? Boshqa muqobil yechim bormi? Mening o'rimda boshqa buyuk futbolchilar nima qilgan bo'lar edi? U hozir zarba bergan bo'larmidi yoki yaxshiroq daqiqani kutadimi? Yoki boshqa bir o'yinchiga ko'ptokni oshirgan bo'larmidi? kabi «ongli» yondashuv bilan u umuman bitta ham gol urmagan bo'lishi mumkin edi. Faqat uning 10-raqamli formani ki-yish haqidagi qarori, shubhasiz, tanqidiy fikrlashning namunasi bo'lishi mumkin. Xuddi shunday, rassomlar va musiqachilar ham o'z ishlarida murakkab aqliy operatsiyalarga tayanib, ular haqida to'liq bilishmaydi. Ularning intuitiv fikrlashlari, barcha qiymatlariga qaramay, ularni tanqidiy deb atash mumkin emas.

Tanqidiy fikrlash birinchidan, u mustaqil fikrlashdir. Dars tanqidiy fikrlash tamoyillari asosida qurilganida, har kim o'z g'oyalari, baholari va e'tiqodlarini boshqalardan mustaqil ravishda bayon qiladi. Hyech kim biz uchun tanqidiy fikr yurita olmaydi, biz buni faqat

o'zimiz uchun qilamiz. Shuning uchun tafakkur individual xarakterga ega bo'lgandagina tanqidiy bo'lishi mumkin. O'quvchilarning o'z ustida ishlashlari va hatto eng qiyin masalalarni ham mustaqil ravishda hal qilish uchun yetarli erkinlikka ega bo'lishlari kerak. Masalan, bog'cha bolalarining barcha bitiruvchilari bir xil she'r, ashula va raqsi o'rganishadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ham biror uzunroq she'rni yod olishi va aytib berishi mumkin. Lekin, ulardan sanoqligini darslikdan tashqari mustaqil holda biror narsani yod oladi yoki uning qisqacha mazmunini aytib bera oladi. Bularning barchasi o'qituvchining nazoratida amalga oshirilgan ishlar. Aslida tanqidiy fikrlash to'liq bo'lmagan fikrlar ko'rinishida shakllanadi, namoyon bo'ladi.

O'quvchilarda tanqidiy fikrlash savollar berish hamda yechilishi kerak bo'lgan muammolarni aniqlashtirishdan boshlanadi. O'quvchilar tabiatan juda qiziquvchan. Biz ushbu xususiyatni bolalarda kuzatishga odatlanganmiz. Biroq, haqiqiy kognitiv jarayon har qanday bosqichda o'rganuvchining muammolarni hal qilish hamda o'z manfaatlari va ehtiyojlaridan kelib chiqadigan savollarga javob berishga intilishi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun, yuxu delosa qiladi Jon Bin, tanqidiy fikrlashga o'rgatish qiyinligi qisman talabalarga atrofimizdagi turli xil muammolarni ko'rishda yordam berishdan iborat. Uning fikriga ko'ra, o'quvchilar muammolarini o'zlarining hayotiy tajribalari asosida, shu jumladan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy masalalarni shakllantirsa, ularni hal qilsalar o'rganish ancha muvaffaqiyatli bo'ladi.

Amerikalik faylasuf va o'qituvchi Jon Devi tanqidiy fikrlash talabalar muayyan muammo bilan shug'ullana boshlaganda paydo bo'ladi, deb hisoblaydi. “O'quv jarayonining boshlang'ich nuqtasi sifatida qabul qilingan vaziyat yoki hodisa to'g'risida berilishi kerak bo'lgan asosiy savol - bu hodisa qanday muammo tug'diradi?” Devining fikricha, muammolarga e'tiborni qaratish o'quvchilarning tabiiy qiziqishini uyg'otadi va ularni tanqidiy fikrlashga undaydi. “Muayyan muammoga qarshi kurashish, qiyin vaziyatdan o'z yo'lini topish bilangina [o'quvchi] haqiqatan ham o'ylaydi”.

Bundan kelib chiqadiki, darslarga tayyorgarlik jarayonida o'qituvchi o'quvchilar oldida turgan muammolar doirasini belgilashi kerak va kelajakda ular bunga tayyor bo'lgach, ushbu muammolarni mustaqil ravishda shakllantirishlariga yordam berishlari zarur. Tanqidiy fikrlash tufayli odatdagi “maktab o'quvchisidan” o'qitish maqsadga muvofiq mazmunli faoliyatga aylana, bu davrda o'quvchilar haqiqiy intellektual ishlarni amalga oshiradilar va hayotiy muammolarni hal qilishga kirishadilar. Ma'lumot to'plash, matnlarni tahlil qilish, muqobil qarashlarni taqqoslash va aqliy faoliyat uchun imkoniyatlardan foydalanish orqali ular o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob izlaydilar va topadilar.

Kanadalik professor X.Jonson “insonga taklif qilingan nuqtai nazar yoki xatti-harakatlar to'g'risida qat'iy qaror chiqarishga imkon beradigan aqliy faoliyatning maxsus turi” tanqidiy fikrlashning ta'rif deb ta'kidlaydi.

Shuningdek, tanqidiy fikrlash ishonchli fikrlashga undaydi. Tanqidiy fikrlaydigan kishi muammoning o'ziga xos yechimini topadi va bu yechimni oqilona, asosli dalillar bilan qo'llab-quvvatlaydi. Shuningdek, u xuddi shu muammoga boshqa yechimlar topish mumkinligini biladi va o'zi tanlagan yechim boshqalarga qaraganda mantiqiy va oqilona ekanligini isbotlashga harakat qiladi. O'quvchilarda bunday qobiliyatlarni shakllantirish orqali ularning olgan bilimlarining hayotiy mohiyatini anglash imkonini yaratadi. Aynan ta'lim muassasalarida olingan bilimlarni kundalik hayotiy faoliyatida qo'llay olishlari esa, kompetentlik talablari hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatishni ularning voqiyelikka mulohaza bildirishi, ilmiy va amaliy tafakkurining kengayishi hamda zaruriy hollarda aniq asoslangan qaror qabul qila olish ko'nikmasini rivojlantirish kabi masalasining yechimi sifatida baholash mumkin.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019 dagi “O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha ri-



vojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" 187-son qarori.

3. Monografiya. Fizika o'qitish jarayonida o'quvchilarning kompetensiyalarni rivojlantirishning didaktik jihatlari. "Mashhur-press" – T.: 2019.

4. Е.С.Полат, М.Ю.Бухаркина, Современные педагогические и информационные технологии в системе образования: учеб. пособие для студентов высш. учеб. заведений / . – М.: Издательский центр «Академия», 2007. – 368 с.

5. Халперн Д. Психология критического мышления. – СПб., 2000.

ZAMONAVIY KUZATISH QURILMALARINING ASTRONOMIYA RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI

H.N.Bozorov, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

В статье рассматривается роль современных устройств слежения в развитии астрономии.

Ключевые слова и понятия: телескоп, технология, вакуумные конструкции, вакуумный ресивер, полупроводник.

The article discusses the role of modern tracking devices in the development of astronomy.

Key words and concepts: telescope, technology, vacuum structures, vacuum receiver, semiconductor.

Bugungi kunda optik teleskoplar zamonaviy texnologiyalarga asoslangan Zaryadli Aloqa Qurilma (ZAQ)lar bilan jihozlangan bo'lib, bu yarim o'tkazgichli asboblarning texnologiyalarining rivojlanishi (yoki tranzistorlarning paydo bo'lishi) natijasida elektronikaning deyarli barcha sohalarida vakuum qurilmalarining o'rni to'liq egallay boshladi. Vakuumli qurilmalar faqatgina ba'zi bir kremniy ishlatib bo'lmaydigan sohalar: generator lampalar, juda ham kuchli signallar uzatuvchi yoki yuqori kuchlanishli qurilmalar (kenotronlar, rentgen trubkalari) uchungina ishlatilmoqda.

Nima uchun qattiq jisimli qabulqilgich vakuumli qabulqilgichga nisbatan qulayroq hisoblanadi. Buning o'ziga xos afzalliklari bor, jumladan, Pentium protsessorida 5000000 (besh million)ta tranzistor bo'lishiga qaramasdan bitta lampali triggerdan kamroq energiya istemol qiladi. Shu sababli, Texas Instruments kompaniyasi tomonidan 1960-yillarda planar texnologiyalar kashf etilgandan so'ng qattiq jisimli uzatuvchi, yoki qabil qiluvchi qurilmalarning analoglarini (o'xshash nusxalarini) yaratish bo'yicha bir qancha ishlar olib borildi.


Bunday ishlarining deyarli barchasi yorug'likga sezgir bo'lgan elementlardan iborat matritsalarini (xususan, fotorezistorlar yoki fototranzistorlar) yaratish yo'liga qaratilgan edi. Bu esa keyinchalik gorizont va vertikal yo'nalishlar bo'yicha tasvir hosil qilish sxemalarining paydo bo'lishiga olib keldi. Dastlab bunday qabul qilgichlar elementlarining o'zaro joylashuvi 256x256 ta bo'lib, hosil qilingan tasvirning sifati juda ham past bo'lgan. Buning sababi, birinchi navbatda o'sha zamonga mos kelgan texnologiyalarning yetarli darajada sifatli emasligi bo'lib, u turlicha nuqsonlarning paydo bo'lishiga olib kelgan, ya'ni tasvirda yo'l-yo'l bo'lib ko'ringanligi ko'zga tashlangan. Ushbu holat olingan axborotni o'qib oladigan qurilmalarning bir xil emasligidan kelib chiqqan [4].

Ushbu muammoni hech kim kutmagan tomondan yechimi paydo bo'ldi. 1970 yil "Bell Laboratories" kompaniyasining ishchilari U.Boyl va J.Smitlar silindrik magnit domenlaridagi elektr analoglarning sxemalarini yaratish vaqtida uning eksperimental ravishda zaryad bog'lanishli prinsipini taqdim etishdi. Birinchi zaryad bog'lanishli qurilma analogli regestrndan iborat bo'lib, unda 8 ta element bo'lgan. Ularning har biri molibden to'siqli p-MOYA teznologiyalar ("metalloksid-yarimo'tkazgich" so'zining qisqartmasi) asosida yaratilgan bo'lib, keyinchalik ikki o'lchamli matritsalarining paydo bo'lishiga olib keldi. Tez orada ZAQLarga xos bo'lgan o'z-o'zini skanlashtirish xususiyati ulardan avvalgi qabulqilgichlardagi juda ko'pgina muammolarni yuzaga keltiruvchi siljish regestrlerini hosil qilish zaruratini yo'qotishga olib keldi [2].

Keyinchalik ZAQLarning parametrlari va texnologiyalaridagi katta siljish ularda yashirin ko'chirish kanallarining paydo bo'lishi va polikristall kremniydan yaratilgan shaffof elektrodning qo'llanilishi bilan bog'liq. Bu o'z navbatida qabulqilgichlarning

sezgirlikni keskin orttirib berdi. O'tgan asr 70-yillarining o'rtalarida televideniye standartiga mos keluvchi dastlabki kommersiyaviy matritsalar paydo bo'ldi. Bular: Fairchild, AQShdagi Bell va RCA, Yevropadagi Philips kompaniyalarida ishlab chiqarila boshlandi (bu qabulqilgichlarning elementlari soni Yavropa va Amerika standartlariga mos ravishda 576 yoki 476 ta vertikal ustun va kamida 350 ta gorizont satr ravishda joylashgan elementlardan iborat bo'ldi). Tez orada Yaponiyada arzon ZAQLarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Bu esa maishiy elektronika sohasida vazni katta bo'lgan kinokameralarning o'rniga ancha kichkina hajmdagi videokameralarning qo'llanilishiga olib keldi [1].

ZAQLarning fan-texnikaga ta'sirini ko'radigan bo'lsak, xususan astronomiyaga juda ham katta inqilobiy ta'sir ko'rsatdi. Ularning paydo bo'lishini ko'z o'rniga fotoplastinkalardan foydalanish kabi taqqoslash mumkin (xususan, aynan astronomiyada fotoemulsiyaning o'rniga to'liq kremniy qo'llaniladigan sohaga aylanib qoldi). Boshqa tomondan olib qaralganda aynan astronomiya qo'ygan, xususan, kosmik apparatlar ushun qo'llaniladigan ZAQLar uchun talablar ularning texnologiyasini, ishlab chiqarilishini rivojlanishiga olib keldi. Hozirgi kunda elementlarining (peksellarining) soni 4096 x 4096 bo'lganlari va kvant chiqishi 90% atrofida bo'lgan ZAQLar yangilik emas. Nihoyat, tibbiyotdagi va biologiyadagi mikroskopiya, kompyuterli ko'rish hamda videokonferensiyalar, kosmik apparatlarning orientatsiya sistemalari, shtrix-kodlarni o'quvchi qurilmalar, telefakslar, skaner va shu kabilar faqatgina ZAQLarning mavjudligi uchungina insoniyat tomonidan foydalanib kelinmoqda [3].



1-rasm. MDP tranzistor

Zaryadli Aloqa qurilmasining tuzilishi to'g'risida, dastlab o'zimizda MOYA-tranzistor tuzilishi haqida tasavvur paydo qilamiz. Bunday tranzistor MDYA ("metall-dielektrik-yarimo'tkazgich" so'zining qisqartmasi) tuzilishi va ikkita n+-p yoki p+-n o'tishlardan iborat. Agar dielektrik sifatida yarimo'tkazgich oksidi qo'llanilsa, u holda tranzistorini MOYA-tranzistori deyiladi (1-rasm).

n+-p o'tishlardan biri M – manba, ikkinchisi P – paynov vazifasini bajaradi. Metall elektrodli dielektrik qatlamini zatvor (Z) deyiladi. manba bilan paynovning dielektrik yarimo'tkazgich chegarasi yaqinida joylashgan tok o'tkazuvchi inversion qatlam tutashtiriladi. Bu kanalning zatvor elektrodiga muayyan ishorali va kattalikli kuchlanish berish yo'li bilan hosil qilinadi. Ko'rilayotgan holda (p-tur yarimo'tkazgich) zatvorga, taglikka nisbatan, musbat potensial berish zarur. Bu yarimo'tkazgichning dielektrikka yondoshgan sirtiy qatlamiga elektronlar oqib kelishini va zatvordagi kuchlanish muayyan qiymatga ega bo'lganda mazkur qatlamning o'tkazuvchanligi n-tur bo'lib qolishini paydo qiladi. MOYA tranzistorlarida zatvor elektrodi ostidagi oksid qatlami



odatda chamasida, kanalning uzunligi dan kam bo'lishi mumkin [2]. Tushayotgan miqdoriga proporsional elektronlar hosil qilib beradi va shu orqali ikki o'Ichamli tasvirlar hosil bo'ladi.

Samarqand davlat universitetidagi astronomiya o'quv-ilmiiy markazidagi ko'z gusining diametri 48 sm bo'lgan optik Grabb Parsons nomli teleskopiga 2015-yilda QSI Imaging kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan QSI 683 WSG-8 maxsus kamera olib kelib o'rnatilgan. U mikrolinzali texnologiya bilan, hamda 8,3 megapeksilli Kodak Enhanced Response to'liq ramkali CCD tasvir sensori bilan ta'minlangan. Kamera yuqori sifatli fotosuratlarini tasvirga olishga qodir. Kamera ichki tempraturasi tashqi havo haroratidan 30 daraja past bo'lgan haroratgacha sovuutilishi mumkin. Kamera 5 ta filtr U-ultrabinafsha, B- blue(ko'k), V- green(yashil), R- red(qizil), I- infraqizil filtrlardan iborat [5].

O'quv-ilmiiy teleskopda zaryadli aloqa qurilmasi o'rnatilishi natijasida kvazarlarni va o'zgaruvchan yulduzlarni kuzatish bo'yicha bir qator muhim natijalar olinmoqda. Mazkur qurilma teleskopda tasvir aniqligi va ishonchligini ko'p marta oshirish

imkoniyatini berdi. Hozirgi paytda dunyo astronom olimlari ana shunday qurilmalarni texnik xarakteristikalarini oshirish ustida jadal tadqiqotlar olib borishmoqda.

Adabiyotlar

1. Steve B. Howell "Handbook of CCD Astronomy" Second edition National Optical Astronomy Observatory and WIYN Observatory S. B. Howell 2006.

2. Миронов А.В., Мошкалев В.Г., Харитонов А.В., Колыхалова О.М. Об аппаратурных систематических ошибках фотоэлектрической фотометрии / Известия Национальной академии наук Республики Казахстан. Серия физико-математическая. 1995, № 4, часть I. С. 54-64.

3. Romanishin W. An Introduction to Astronomical Photometry Using CCDs, University of Oklahoma March 31, 2002 .

4. Кирилковский В. К. Оптической изеирения Санкт-петербург 2005.

5. www.qsi/ccds/683i/com.

TA'LIM VA TARBIIYANING DEMOKRATIK HAMDA INSONPARVARLIK TAMOYILI

S.A.Toshtemirova, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

В данной статье принципы совершенствования системы образования представлены через теоретико-научные основы и результаты исследований специалистов.

Ключевые слова и понятия: качество образования, совершенствование, демократизация, гуманизация, непрерывное образование, повышенное образование, инновационный подход, кластер.

In this article, the principles of improving the education system are presented through the theoretical and scientific foundations and the results of specialists' research.

Key words and concepts: quality of education, improvement, democratization, humanization, continuous education, advanced education, innovative approach, cluster

XX asrning oxiridan boshlab ta'limni isloh qilishda nafaqat ta'lim tizimi, balki uning mazmuni, texnologiyalari va tashkiliy shakllari sohasida ham jiddiy ijobiy o'zgarishlar kuzatilmogda. Ta'limni modernizatsiyalashda uning sifati ham muhim bo'lib, bu butun ta'lim tizimi tarkibiy qismlarining sifat vazifalari, murakkab rivojlanish kuchi(dinamika)ga ega bo'lgan jarayon hisoblanadi. Ta'lim sifati ta'lim muassasalari faoliyatidagi ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik va siyosiy muhitning o'zgarishi bilan izohlanadi [1].

Ta'lim tizimini yangilashda birinchi navbatda rivojlanish tezligini oshirish, jamiyat siyosiy va ijtimoiy tanlash imkoniyatlarini kengaytirish, axborot jamiyatiga o'tish, madaniyatlararo hamkorlik ko'lamini sezilarli darajada oshirish, global muammolarning paydo bo'lishi va o'sishiga sabab bo'ladigan malakasiz va kam malakali mehnat sohasini qisqartirish, xodimlarning kasbiy harakatchanligini rivojlantirishga bo'lgan doimiy ehtiyojni belgilovchi kasbiy malakasini oshirish va qayta tayyorlash, jamiyatdagi yoshlar va kattalarning jadal rivojlanishiga olib keladigan bandlik sohasiga chuqur tarkibiy o'zgarishlar kiritish, rivojlangan mamlakatlarda milliy boylikning asosiy qismini tashkil etadigan inson kapitalining rolini oshirishga e'tibor qaratish lozim.

Ta'lim tizimini takomillashtirishda ta'limni rivojlantirishning to'rt asosiy g'oyasi, shaxs, jamiyat, ta'lim va ishlab chiqarish yaxlit tizim sifatida keltirib o'tiladi. So'nggi yillarda aynan shu g'oyalarga asoslangan holda ta'lim tizimini isloh qilishning bir qator tamoyillari takomillashtirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati tamoyilini alohida ta'kidlash mumkin [2].

Ta'lim sifati rivojlantirishning muhim tamoyillaridan biri zamonaviy ta'limning rivojlanishi, yangi ijtimoiy-madaniy vaziyatni tahlil qilish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish bilan bog'liq bo'lib, bunda ko'plab tadqiqotchilar umumiy o'rta ta'lim muassasalarini demokratlashtirish muhimligini va bu ta'lim oldida turgan muammolarni hal qilishning kaliti ekanligini ta'kidlab

o'tgan.

Ta'limning demokratlashuvi – ta'lim va tarbiya uslublarining tanlanishida o'quv muassasalarining mustaqilligini kengayishi, ta'limni boshqarishning davlat-jamiyat tizimiga o'tilishi [3]. Ta'lim sifati ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadigan pedagogik tizimni boshqarishni demokratlashtirish, kadrlarni tanlash, qabul qilinayotgan qarorlarni ochiq muhokama etish, axborotlarni barcha uchun ochiq, tushunarli bo'lishiga erishish, ta'lim muassasasi hayotiga oid o'z fikrlarni bildirishlariga imkon berish, ta'lim muassasasida demokratik g'oyalarning ustuvor o'rin tutishini anglatadi.

Ta'limda demokratik jarayonlarni rivojlantirish bilan bog'liq holda, birinchi navbatda, ta'lim sub'ektlari o'rtasida inson omilini samarali boshqarish asosida amalga oshirish vazifasi qo'yiladi, bu esa rus tadqiqotchisi M.V Goremiko tomonidan ta'limni demokratlashtirishga bir qator yangi xususiyatlarni kiritishni taklif etish imkonini berdi:

ta'lim muassasa va ta'lim oluvchining mavjudligi;
ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchining o'zini-o'zi tashkil etishi;
ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi o'rtasidagi hamkorlik;
ta'lim muassasasining ochiqligi;
ta'limni mintaqaviylashtirish;
ta'lim tizimining xilma-xilligi;
jamiyat kontekstida ta'lim tizimidagi teng imkoniyatlar;
davlat tomonidan markazlashgan sistemadan markazlashmagan sistemaga o'tish [4] va hokazo.

Ta'limni insonparvarlashtirish (ta'lim-shaxs) bilan bog'liq bo'lgan keyingi tamoyilda uning shaxsiy yo'nalishi sifatlarini qayta yo'naltirish nazarda tutiladi. Bozor munosabatlari sharoitida bu jarayon shaxsning rivojlanishi va o'zini-o'zi tasdiqlash natijasida ijtimoiy barqarorlik va ijtimoiy himoya vositasi sifatida ko'rib chiqiladi. Insoniylikka yo'naltirilgan ta'lim falsafasi barcha bosqichlarda ta'lim jarayonini sifatli yangilashning strategik dasturiga aylanadi [5].



Hozirgi kunda ta'lim jarayonining muhim muammosi ta'lim-tarbiyaning insonparvar paradigmalari ishlab chiqish hisoblanadi. Albatta bu paradigmalar zamonaviy ijtimoiy-madaniy vaziyatga mos kelishi lozim. Shundagina u ko'p madaniyatlilikka asoslangan ta'lim jarayoni oldiga qo'yilgan vazifalarni hal eta oladi. Uning yechimlarini topishga harakat qilish innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish orqali amalga oshiriladi. Innovatsion konsepsiya asosini tashkil qilgan insonparvar yondashuvlarga tayanadigan bo'lsak, bu yo'nalishdagi bir qator tadqiqotlar, jumladan,

o'z-o'zini rivojlantirishga asoslangan tarbiya tizimi (L.I.Novikova);

insonni madaniyat yordamida tarbiyalash (ye.V.Bondarevskaya); jamoaviy ijodiy ish uslublari (I.P.Ivanov);

erkinlik pedagogikasi va pedagogik qo'llab-quvvatlash (O.S.Gazman);

shaxsga yo'naltirilgan ta'limning didaktik tuzilmalari (V.V.Serikov);

pedagogik faoliyatni mustaqil tashkil etish (S.V. Kulnevich) kabilar bunga misol bo'la oladi.

Mazkur tadqiqotlar negizida ifodalangan g'oya dunyoviy ta'limning ilmiy-texnika taraqqiyotiga o'tish paradigmasidan, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga asoslangan shaxsga yo'naltirilgan hamda o'z faoliyatini ijodiy tatbiq etishga qaratilgan insonparvarlik paradigmasiga o'tmoqda.

Ta'limni insonparvarlashtirishning umumiy qonunlarini tahlil qilgan yana ko'plab tadqiqotlar (I.B.Kotova, S.A.Smirnov, E.X.Shiyanov) o'z izlanishlari natijasida insonparvarlashtirishning eng muhim deb hisoblangan xususiyatlarini quyidagilar deb belgilaydi [6].

ta'lim – aqliy xususiyat va vazifalarni shakllantirish jarayoni sifatida o'sib borayotgan shaxs va ijtimoiy muhit bilan o'zaro bog'liq ta'sirga ega;

shaxsning umummadaniy, ijtimoiy-axloqiy va kasbiy rivojlanishi qanchalik uyg'un bo'lsa, u shunchalik erkin va ijodiy shaxsga aylanadi;

shaxsning umuminsoniy madaniyat bilan uyg'un holda rivojlanishi asosiy ijtimoiy madaniyatning rivojlanish darajasiga bog'liq;

xalqning madaniy-tarixiy an'analarini, ularning umuminsoniy madaniyat bilan birligini hisobga olgan holda – yangi o'quv rejalar va dasturlar yaratish eng muhim shartlardan biridir;

o'quvchi ta'lim olishning sub'ekti sifatida faoliyat yuritganda shaxsning umumiy, ijtimoiy-axloqiy va kasbiy rivojlanish jarayoni har taraflama ma'qul xususiyatiga ega bo'ladi;

muloqotli yondashuv tamoyili ta'lim oluvchining shaxsiy-teng holatini, hamkorlikdagi insonlar holatida o'zgartirishni taqozo etadi.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, insonparvarlik falsafasining asosi shaxs bo'lib, uning asosiy faoliyati kelajakka intilish, uning ijodiy salohiyatini erkin amalga oshirish, o'ziga ishonish va o'z "men"iga erishish imkoniyatidir, deyish mumkin.

Inson manfaatlari nuqtai nazaridan kelib chiqib, uning rivojlanish istiqbollari ta'limni insonparvarlashtirishning asosiy xususiyatlari sifatida belgilanadigan insonparvarlik, mustahkam asoslilik va aniq faoliyat yo'nalishining tanlanishi muhimligi orqali keltirish mumkin.

Ta'limni takomillashtirish nazariyasining yuqorida keltirilgan tamoyillari tahlilini olib borar ekanmiz, uning sifati va xususiyatlarini zamonaviy jamiyatda jamoat talablariga, muayyan hududlarning manfaatlariga va ta'lim ehtiyojlariga qaratilgan mintaqaviy, shahar va maktablar darajasida hal qilinishini taklif qilamiz. Shuning uchun ta'lim sifati oshirish va uni tashkil etish ta'lim tizimida barqaror va izchil rivojlanish, intellektual va moddiy resurslarni jalb qilish qobiliyatini belgilovchi yangicha yondashuvlarni tatbiq etishni talab qiladi. Yuqorida keltirilgan ilmiy-pedagogik tamoyillar va xususiyatlarni nafaqat nazariy

jihatdan, balki amaliy jihatdan tadqiq qilish mamlakatimizda ta'limni rivojlantirish bo'yicha mintaqaviy dasturlarning ishlab chiqilishi va amalda tatbiq etish zarurati bilan izohlash mumkin.

Ta'lim sifati oshirishga zamonaviy yondashuvlarning tatbiq etilishi, uni sub'ektivlik, tarkib, tuzilish, rivojlanish, shaxs ehtiyojlarini muvofiqlashtirish kabi xususiyatlar orqali davlat va jamiyatni o'zaro bog'liqlikda demokratik, insonparvarlik, uzluksizlik, izchillik va uzviylik tamoyillariga asoslangan zamonaviy ta'limning yangilanishi va rivojlanishini belgilab beradi. Klaster ta'limga nisbatan innovatsion yondashuv sifatida hududdagi inson resurslari, tashkilotlar va texnologiyalarni birlashtiruvchi kuchli mexanizmni yuzaga keltiradi. Ta'lim klasterlari tizimi o'quvchiga yoshligidan rivojlanish vektorini topishga va kelajakda yuqori malakali mutaxassis bo'lishga yordam beradi. U o'z faoliyati davomida mintaqaning Xalq ta'limi vazirligiga tegishli dolzarb muammolarni, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashga va ularni hal etishga katta ahamiyat qaratmoqda. Ayniqsa, mamlakatimizda sifatli ta'lim bilan ta'minlash bo'yicha pedagog kadrlar asosiy axborot ma'lumotlariga muhtoj ekanligi bu kabi tadqiqotlarning keng ko'lamli rivojlanishini taqozo qilmoqda [7].

Uzluksiz ta'lim tizimida o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy sohalarining, xususan, fan, ta'lim-tarbiya va ishlab chiqarishning integratsiyasi mukammal tarzda amalga oshirilmas ekan, ta'lim sifati va uning natijaviyligi barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish bobidagi strategik maqsadga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun birinchi navbatda bugungi kunda ta'limning mazmun-mohiyatini modernizatsiya qilish va unga mutanosib holda pedagogik innovatsion yondashuvlarni muntazam amaliyotlarda tatbiq etish, o'quv jarayonlaridagi faoliyatlarini amaliyotlar bilan tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

1. Mardonov Sh, Toshtemirova S. Structure and mechanisms of action of the educational cluster // International Journal of Psychological Rehabilitation, Vol.24, Issue 07, 2020. Page 8105.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni. Toshkent shahri, 2020 yil 23 sentyabr.
3. Musaxanova G.M., Ibodullayeva S. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim va uning faoliyat ko'rsatish tamoyillari/Iqtisodiy ta'lim rivojlanishining muammolari va istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjumanining ilmiy maqolalar va ma'ruza tezislari to'plami. Toshkent. 2015. B. 143.
4. Горемыко М.В. Управление качеством общего образования региона на основе кластерного подхода: дисс. канд. пед.наук. – М: 2010. – С. 26.
5. Muhamedov G., Xodjamqulov U., Toshtemirova S. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri – T.: Universitet, 2020. B. 170.
6. Педагогика: педагогические теории, системы, технологии: Учеб. для студ. высш. и сред. учеб. заведений / С.А. Смирнов, И.Б. Котова, Е.Н. Шиянов и др.; Под ред. С.А. Смирнова. - 3-е изд., испр. и доп. – М.: Издательский центр "Академия", 1999. – С. 37.
7. Toshtemirova S.A. Factors affecting the quality of education and the importance of the education cluster to address them // European Journal of Research and reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 4, 2020, Part II. Page 152.



ПРОБЛЕМНЫЕ АСПЕКТЫ, СВЯЗАННЫЕ С ПРИМЕНЕНИЕМ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА УРОКАХ

Ш.И.Ботирова, доктор филологических наук (PhD), доцент кафедры “Узбекский язык и литература” Чирчикского государственного педагогического института Ташкентской области

Ushbu maqolada dars mashg'ulotlarida pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarni qo'llash bilan bog'liq muammoli jihatlarni, umumta'lim maktablarining ona tili va adabiyot fanlari dasturlarini takomillashtirish, ta'limda “ko'tarish” va “tushirish” prinsiplarining amal qilishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar va tushunchalar: pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, “tushirish” prinsipi, “ko'tarish” prinsipi, integratsiya

В сегодняшней педагогике важнее всего учить обучению предмета. До сих пор наша национальная педагогика рассматривала обучение студентов имеющимся знаниям, которыми обладает человечество, как наиболее оптимальным способом. В этом случае знания впитываются в ум и сознание готового читателя. При этом знания будут легко доступны в литературе, и овладение ими считается удовлетворительным как для студентов, так и для преподавателей. Но это не предполагает творческого подхода к пониманию сути вопросов и явлений у студентов, только запоминание имеющихся знаний, их внедрение в практику рассматривается как основная цель данного вида. При таком подходе в зависимости от того, сколько знаний запомнил студент, делаются выводы о его знаниях. Это правда, но, учитывая, что процесс обучения состоит из двух этапов, первый этап - это приобретение знаний, второй этап - сделать из него выводы, становится ясно, что этот метод не оправдывает себя. Пока знание не служит знанию, оно ничем не отличается от обычной информации. То есть, если существующее знание не служит основой для открытия нового знания, если в этом процессе нет явления цепной реакции, то нет развития и прогресса, как ожидается в науке и производстве. Для этого студентам нужно будет понять суть вопроса, разобраться в причинах и следствиях и иметь возможность делать выводы. Но несколько поколений студентов, благодаря вышеописанной «буриной методике», не могли пойти дальше, чем запоминать знания, имеющиеся в литературе, запоминать их вслепую, применять полученные знания на практике. Таланты многих одаренных учеников, чья память полна знаний и информации, не были реализованы и «исчезли» в процессе производства. Тем не менее, в ходе курса студенты смогут понять феномен и сущность, причину и следствие, понимание междисциплинарных взаимодействий, отношений и балансов, умение сравнивать и делать логические выводы по каждому предмету, если это необходимо. Это показывает, насколько серьезным и уникальным уроком является творческим процессом.

По этим и другим причинам педагогическая сфера постоянно обновляется и продолжает адаптироваться со временем. Наша национальная педагогика переживает сейчас период серьезных перемен. В последнее десятилетие прошлого века в нашу педагогику вошли процессы, связанные с организацией урока на основе педагогических технологий (ПТ) и интерактивных методов. Понятие педагогических технологий - явление многогранное, мнения специалистов по его описанию разные. Например, Г. К. Селевко считает, что педагогические технологии - это модель педагогической деятельности, которая включает в себя обеспечение условий, созданных как для педагога, так и для проектирования, совершенствования и ведения образовательного процесса которые продуманы во всех своих деталях [1].

П. Беспалько понимает эту концепцию как набор инструментов и методов для реализации (или реализации) теоретически обоснованных учебно-воспитательных процессов, позволяющих успешно достигать поставленных образовательных целей. [2]

Сегодня ПТ не может считаться новинкой. Фактически, в основе таких нестандартных экспериментов лежит учительский подход к обучению с использованием новых, эффективных методов и инструментов, взгляд на обучение как на творческий процесс. Новые методы и инструменты, методы и подходы, если они правильно выбраны

This article describes the problematic aspects associated with the use of pedagogical technologies and interactive teaching methods in the classroom, the improvement of the native language programs and literature of secondary schools, the application of the principles of “lifting” and “lowering” in education.

Key words and concepts: pedagogical technologies, interactive methods, the principle of «lowering», the principle of «lifting», integration.

и применяются в соответствии со спецификой науки и предмета, несомненно повысят эффективность урока. Но можем ли мы сказать, что все используемые в настоящее время ПТ и интерактивные методы также повышают эффективность урока? К сожалению, нет. Точнее, есть также случаи непонимания и отсутствия правильной интерпретации ПТ и интерактивных техник. По нашим наблюдениям, в результате непонятного подхода к этому явлению многие педагоги (особенно в системе народного образования и среднего специального, профессионального образования) превращают урок в игру, своего рода развлечение. Некоторые учителя подходят к этому вопросу слепо и не замечают, что они уходят от сути урока и отступают от цели. Действительно, непроверенные, негарантированные подходы не могут быть применены в образовательном процессе. Поскольку судьба учащихся в учебных заведениях, их конституционное право на образование - это события, которые влияют на будущее этой нации, и учителя не дают право и полномочия «экспериментировать» над ним.

По нашему мнению, ожидаемый результат не может быть достигнут без усиления интеграционных процессов между типами образования в системе образования, особенно в системе педагогического образования, без достижения определенных выводов относительно его оптимальных решений. Интеграционные процессы между типами образования варьируются от структуры образования страны до механизмов управления и научных программ. Это очень сложный и систематический процесс. Хотя об этом процессе много сказано в учебных источниках, но когда речь заходит об исполнении, то заметны отсутствие систематичности и несоответствие теории и практики.

Мы видим, что в программах изучения родного языка и литературы средних школ вопрос о сплоченности в последующие годы в какой-то мере обеспечен.

Однако, когда дело доходит до контента, существует тенденция удлинять и уменьшать содержание программы, а не членство. Например, в учебнике 6-го класса «Родной язык» мы видим, что определенная тема присутствует в более поздних классах. Это не правильно с точки зрения того, что в последующих классах предмет будет дан глубже и детальнее. Но на практике это не так. На практике теоретические знания в 6-м классе повторяются даже в следующих классах и слегка растягиваются. Никакой новой теоретической информации, специфичной для новых грамматических норм, специфичных для этой темы, не приводится.

В целом вопрос обучения студентов теоретическим знаниям по лингвистике должен быть коренным образом пересмотрен. Уровень, на котором грамматические нормы должны быть даны студентам, должен быть строго определен, по нашему мнению. Другими словами, беглость человеческой речи мало зависит от тщательного усвоения теоретических знаний по лингвистике, хорошего усвоения грамматики. Поскольку целью изучения языка является качественное донесение идеи до слушателя, и пока знание грамматики не служит этой цели, целесообразно также снизить уровень изучения грамматики. Учебные программы по родному языку в средних школах должны быть пересмотрены с той же точки зрения. Программа, которая, как ожидается, будет улучшена, будет сосредоточена на практических аспектах, связанных с режимом сокращением предоставления



теоретической информации учащимся, вместо улучшения устных навыков. Например, учебники «Родной язык» в 6-м классе посвящены таким темам, как «Путешествие к свойству слов», в 7-м - «Художественное дыхание слова», в 8-м - «Классическая магия слова», и учащиеся работают над словами в этом отношении. [4]

Учебные планы педагогических вузов также должны быть пересмотрены с точки зрения требований времени. В то же время целесообразно развивать общеобразовательные и средне-специальные учебные заведения профессионального образования в соответствии с количеством часов, выделенных для предметов, указанных в учебных программах. Процесс интеграции между типами образования происходит здесь. В общем, в этом процессе есть два сквозных вопроса:

1. Чему следует учить учащихся средних школ?
2. Как научить студентов темам, доступным в научных программах?

В результате первого из этих вопросов формируются научные программы, а второй направлен на совершенствование методологии. Эти два вопроса полностью отражают содержание образовательного процесса. Таким образом, можно логически заключить, что, хотя научные программы выражают содержание образования, его качество определяет качество образования.

